

83.3  
S 70 .

Y. Solijonov

# HOZIRGI ADABIY JARAYON

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YO'LDOSH SOLIJONOV

# HOZIRGI ADABIY JARAYON

*O'quv qo'llanma  
bakalavriatning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun*

Toshkent  
“Innovatsiya-Ziyo”  
2020

UDK: 894.375

BBK: 83.3(50'z)

S 70

Solijonov Yo'ldosh

Hozirgi adabiy jarayon /o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo",  
2020, 102 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Hozirgi adabiy jarayon" fanining obyekti  
XX asrning 90-yillardan XXI asrning shu kunigacha bo'lgan davrda yaratilgan  
adabiy-badiiy asarlari va mazkur davrdagi adabiy hayot haqida so'z yuritilgan.

O'quv qo'llanma bakalavriatning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari  
uchun mo'ljalangan.

Taqrizchilar

Mirzayeva X.

Filologiya fanlari doktori, professor

Sabriddinov A.

Filologiya fanlari doktori

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.



© Yo'ldosh Solijonov, 2020.  
© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

## **MAVZU: KIRISH. FANNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

1. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining obyekti. Maqsad va vazifalari.
2. Hozirgi adabiy jarayonning taraqqiyot bosqichlari, manbalari , omillari.
3. Hozirgi adabiyotning asosiy tendensiya, konsepsiya va xususiyatlari.

Dastlab talabalar darsni o'zlashtirish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar, mustaqil ta'lif uchun ajratilgan adabiyotlar bilan tanishtiriladi va yozdirib qo'yiladi. Shundan so'ng ma'ruza boshlanadi.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan “Hozirgi adabiy jarayon ” fani to'la ma'noda mustaqillik mevasi hisoblanadi. O'z nomidan ham ko'rinish turibdiki, bu fan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan 1991-yildan to hozirgacha bo'lgan davr haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun uni dastlab “Mustaqillik davri adabiyoti”, “Istiqlol davri adabiyoti”, “Eng yangi o'zbek adabiyoti” degan nomlar bilan ham ataldi. Ikki asrni tutashtirgan, XX asrning so'nggi o'n yilligi bilan shiddatli XXI asrning ikki dekadasini o'ziga xos oltin ko'prik bilan bog'lagan bu adabiy jarayon g'oyatda murakkab davrni bosib o'tdi.

“Hozirgi adabiy jarayon” fanining obyekti XX asrning 90-yillardidan XXI asrning shu kunigacha bo'lgan davrda yaratilgan adabiy-badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Aslida 30 yil bobotarix uchun non ushog'idek qisqa muddat hisoblanadi. Ammo ana shu muddat mustaqillik ishqisi bilan yongan o'zbek xalqi hayotida juda katta ishlar amalga oshirilgan oltin davr bo'lib qoldi. Bu qisqa muhlat huddi atom zarrasi kabi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy jabhalarida ijobil ma'nodagi kuchli portlashlarni vujudga keltirdi. Bunday ijobil

o'zgarishlar o'zbek xalqining ma'naviy potensiali tuganmas zahiralarga boyligi va yashovchanligi tusayli ro'yobga chiqdi. Bu o'sish, o'zgarishlarning tub asoslari va sabablarini bilib olish uchun Siz birinchi Prezidentimiz I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli asarlari, hozirgi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ilm-fan namoyandalari, akademiklar (2016-y. dekabr), O'zbekiston ijodkor ziyoli vakillari bilan uchrashuvda (2017-y. 3 avgust) so'zlagan nutqlari hamda Oliy Majlisga Murojaatini (2020-y.24-yanvar) puxta o'rghanishingiz, konspektlashtirishingiz shart. Sizga taqdim etilayotgan bu manbalar mamlakatimizda adabiyot va san'atning rivojlanishiga juda katta rag'bat bo'lganligini isbotlaydi. Bular orasida, ayniqsa, ijod ahli bilan o'tkazilgan uchrashuvda Sh.Mirziyoyevning so'zlagan nutqi adabiyot va san'atga, ijod erkinligiga turtki bergenligi bilan ajralib turadi.

Prezident "Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'nomazmuni deb biladigan Siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqatli, mas'uliyatli va sharafli ekanini barchamiz yaxshi bilamiz" deya yuksak baho berdi. Ammo bu bilan qanoat hosil qilib bo'lmaydi. Negaki, "Yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg'unlikka tushib, bir joyda depsinib turganday, ko'pchilik ijodkorlarimiz o'z tashvish va muammolari bilan o'ralashib qolganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san'at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflarida bo'lishi, o'z asarlari, faol grajdaniq pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak."

"Hozirgi adabiy jarayon" fanining bosh maqsadi ana shu 30 yillik davr adabiyotining asosiy xususiyatlari, bu yillarda o'zbek adabiyotida paydo bo'lgan muhim konsepsiylar (*lot. qarashlar, sikrlar tizimi, dunyonи tushunish, anglash usuli*) va asosiy tendensiylar (*lot. yo'nalish, harakat, intilish, mayl*)ni (bu

atamalar mohiyatini adabiyotga oid va “O‘TIL”, “O‘zME”dan izlang) aniqlash, bu davrda yaratilgan asarlarni o‘rganish va tahlil qilishdan, vazifasi esa badiiy asarni tushunish malakasini shakllantirish, hozirgi davr adabiyotining eng yangi fazilatlarini targ‘ib etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iboratdir. Albatta, “Hozirgi adabiy jarayon” fanini so‘nggi 30 yillik adabiyot bilan cheklab qo‘yish uni tor tushunishdan iborat bo‘lur edi. Chunki istiqlol g‘oyasi, erk mavzusi adabiyotning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, u eramizdan oldingi VI asrdayoq paydo bo‘lgan (*bu haqda qarang: Y.Solijonov. “Haqiqatning sinchkov ko‘zlar” 125-134-betlar*).

Adabiyot so‘zi har doim erk va ozodlikka chaqiriq bo‘lib yangradi. Loaqlal XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti namoyandalarining asarlarini eslang. Yoki sovet tuzumining dastlabki bosqichida Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho‘lponlarning faryodiga qulq soling! II jahon urushi yillarda ijod qilgan “soviet” adiblari G.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, M.Osim kabilar nega tarixiy mavzuga murojaat qilganliklarining tub sababini aniqlang! 70-yillarda kommunistik mafkura mustamlaka qilichini qayrab, sal ko‘tarilgan boshni, ovoz chiqargan tilni kesib turgan paytda E.Vohidovning “O‘zbegim”, “Ruhlar isyoni”, A.Oripovning “Hangoma”, O.Matjonning “Haqqush qichqirig‘i”, R.Parfining Turkiston haqidagi yoniq asarlari ne-ne mashaqqatlar bilan dunyoga kelib, xalqimizning zimiston ko‘ngilga ozodlik nurini olib kirgani, ko‘zini ochgani adabiyotning o‘lmasligidan, uning har doim erk bongini chalib turganligidan darak bermaydimi?! Bularsiz hozirgi adabiy jarayonni tasavvur etish mumkin emas. Demak, hozirgi adabiy jarayon o‘zining shu kungi bosqichiga quyidagi manbalar va omillar asosida erishdi: 1. Ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotining eng yaxshi an‘analarini o‘rganish, tadbiq etish, ijodiy yondashish va yangilash. 2. Buyuk Sharq adabiyotining barhayot ildizlaridan bahramandlik, G‘arb adabiyoti bilan hamkorlik. 3. Xalq hayotini chuqr o‘rganish va real ifodalash, haqiqat vaadolat ustuvorligi uchun kurashish. 4. Xalq og‘zaki ijodiga xos buyuk optimistik

g‘oyaning barhayotligi. 5. Boshqa xalqlar adabiyoti bilan doimiy ijodiy hamkorlik, o‘rganish va ta’sir etish.

Omillar esa quyidagilar:

1. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi.
2. O‘zbekistonda SSSR tarkibida yashab turib, Prezidentlik lavozimining vujudga kelishi. 3. Mustaqillikning e’lon qilinishi:
  - a) madhiya (18.11.91); b) bayroq, gerb (18.11.91); v) BMTga a’zo (2.03.92); g) jahon hamjamiyatiga a’zolik (2.06.91); d) milliy valyuta-so‘m (08.94).

Adabiy jarayonni davrlashtirish har doim adabiyotshunoslik fanining eng muhim va murakkab masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Ko‘p asrlik tarix va tajribaga ega bo‘lgan o‘zbek mumtoz adabiyotini, qariyb bir asrlik davrni qamrab olgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” va “XX asr o‘zbek adabiyoti”ni davrlashtirish hanuz to‘la-to‘kis amalga oshirilmagan bir paytda, endigina 30 yillik adabiy jarayonni davrlashtirishga urinish biroz erish tuyildi. Biroq o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy hayatida shu qadar ulkan o‘zgarishlar, yutuqlar, ayni chog‘da, yo‘qotishlar yuz berdiki, bu mustaqillik davri adabiyotining shakllanishi, rivojlanishi va tez sur’atlar bilan yangilanishiga turki berdi. Shuni hisobga olib, “Hozirgi adabiy jarayon”ni quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etamiz:

1. Shakllanish va izlanish davri adabiyoti (XX asrning so‘nggi o‘n yilligi).

2. Yangilanish davri adabiyoti (XXI asrning 1-2-dekadasi).

Ushbu taraqqiyot bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari, fazilatlari va qusurlarini keyingi darslarimizda yo‘l-yo‘lakay tushuntirib boramiz.

Endi “Hozirgi adabiy jarayon”ning asosiy tendensiyalari hamda konseptual xususiyatlarini aniqlab olaylik. Asosiy tendensiyalar:

1. Hozirgi adabiy jarayonning ilk bosqichida o‘zbek ijodkorlari yangicha uslub va mahorat sirlarini egallash maqsadida bevosita G‘arb adabiyotiga murojaat qildilar. Qisqa muddatda

jahon tan olgan Kamyu, Kafka, Nitshe, Joys, Markes singari san'atkorlarning asarlari tarjima qilindi. Bu adabiyotning rivojlanishi uchun ikki tomonlama foyda berdi. Bir tomondan, o'zbek adabiyoti xazinasi yangi durdona asarlar bilan boyitildi. Adabiy yangilikka muhtoj o'quvchining ehtiyoji qondirildi. Ikkinchisi tomonidan, yozuvchining o'zi asarni tarjima qilish jarayonida ijod sirlarini o'rgandi, mahorati ortdi. Ana shu o'rganish oqibatida o'zbek adabiyotiga absurd, ong oqimi tasviri kirdi.

2. O'zbek adabiyoti bag'rida modernizm usuli bo'y ko'rsata boshladи. Aslida adabiyotda paydo bo'ladigan turli "izm"lardan cho'chimaslik kerak. Bu har bir adabiyotning ma'lum bir davridagi izlanish, yangilanish jarayonidir. Agar u ijobiy natija bersa, kashfiyat darajasidagi asarlar yaratilishi mumkin. Ayni paytda beparvo ham bo'imaslik lozim – hali suyagi qotmagan yosh qalamkashlar o'rtasida taqlidchilik paydo bo'lishi xavfi bor. Hozir o'zbek adabiyotida modern she'riyati, modern nasri vujudga keldi. Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad kabi shoirlar, O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul singari adiblar bu yo'nalishda muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar.

3. Modernizm adabiyotimizni nechog'li boyitmasin, qanchalik rang-barang qilmasin, yana buyuk Sharq adabiyoti an'analarini, mumtoz adabiyotimizning hayotbaxsh ildizlari, qadimgi yodgorliklar, mif va afsonalar, asotirlar hamda rivoyatlarga qaytish, tayanish, qiziqish kuchaydi. Sharq adabiyoti an'analariga tayanish, avvalo, milliy o'zlikni anglashga olib keldi. Sharq adabiyoti an'anasi ko'ra badiiy asarda tasvirlangan shaxs o'z manfaatini ajdodlari manfaatlari hamda qadriyatlaridan ustun qo'yaydi. Uning G'arb adabiyotidan farqi ham aynan shundadir, ya'ni G'arb adabiyotidagi qahramonlarning aksariyati ota – bobolari tutgan yo'ldan bormaydilar.

4. Qalam ahliga ijodiy erkinlik berildi. Natijada adabiyotning barcha tur va janrlarida hayotni ro'y-rost, butun murakkabligi bilan tasvirlashga, ijtimoiy-ma'naviy adolatsizlik, xo'rlik va qullik

sharoitida yashagan, ma'nан majruh bo'lgan inson tasviriga e'tibor kuchaydi. Ch.Aytmatov aytganidek: "adabiyot hamisha insonparvarlikka xizmat qilib kelgan"ligini amalda isbotlashga kirishdi.

5. O'ttiz yillardiki, mustaqillik bayrami arafasida eng yaxshi yozuvchilarni "O'zbekiston qahramoni", "Xalq shoiri" yoki "Xalq yozuvchisi" unvonlari, orden va medallar bilan mukofotlash odat tusiga kirdi. Eng yaxshi asarlar respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlanmoqda.

Savol:1. "*O'zbekiston qahramoni*" unvoniga o'zbek adabiyotidan kimlar musharraf bo'ldi? (A.Oripov, S.Ahmad, E.Vohidov, T.Qayipbergenov, Ibrohim Yusupov).

2. "*O'zbekiston xalq shoiri*" unvoniga sazovor bo'lgan vodiylik ijodkorlarni sanang (T.Nizom, H.Sa'dulla, E.Vohidov, O.Hakimov, A.Obidjon, I.Mirzo, E.Siddiqova).

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim rol o'ynagan asosiy konsepsiylar quyidagilardan iborat:

1.Mustaqillik yillarida chorak kam bir asrlik "soviet davri adabiyoti"ga turlicha qarashlar, uni inkor etuvchilar paydo bo'ldi, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Uyg'un kabi adiblar sotsialistik tuzum, komunistik firqa maddohlari sifatida ayblandi. Ularning ijodi vulgar-sotsiologik nuqtayi nazardan talqin etildi. "Inqilob kuychisi" nomini olgan Hamzaga ochiq hujum boshlandi. Keyinroq bunday nomaqbul qarashlarga barham berildi va sovet davri ijodkorlarining merosi xolisona va haqiqat nuqtayi nazardan o'rjanila boshlandi (*bu haqda: Y.Solijonovning "Haqiqatning sinchkov ko'zlari"* kitobidagi A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek !aqidagi maqolalarini, "Zulmatdan nur qidirganlar", "Adabiyot xiyoboni" nomli kitoblarini o'qing).

2.Mustaqillik davri adabiyotida inson omiliga alohida va yangicha qarash boshlandi. Ma'lumki, sho'ro adabiyotida bosh qahramon faqat kambag'al toifadan olinar, u o'ta aqli, tadbirkor, qo'rqmas, faqat ijobiy fazilatlarga ega qilib tasvirlanardi. Uning ichki dunyosidan ko'ra tashqi olami, xatti-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yoritishga ko'proq e'tibor berilardi. Mustaqillik

yillarida yaratilgan asarlarda bunday bir yoqlamalikka barham berildi. Endigi qahramonlarni tom ma'nodagi inson – ham surati, ham siyrati, ham fazilati, ham illati bilan mukammal tarzda tasvirlashga e'tibor kuchaydi.

3.Odamlarning ma'naviy dunyosidagi o'zgarishlar tufayli badiiy adabiyotga ilgari ko'rilmagan (to'g'risi, ta'qiqlangan) yangi hodisa – ruhoniy kayfiyat – islom ma'naviyati kirib keldi va xalqimizni komillik sari yetaklashda muhim rol o'ynadi. Muxlislar bunday yangilanishni xayrixohlik bilan kutib oldi. Albatta, bu sog'inch ehtiyojini qondirish dastlab o'zbek ijodkorlari zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Chunki bu ehtiyojni muallif yoki asar qahramonlarining "Bismillohir rahmonir rahim", "Xudo - Alloh" deyishi yoki nomoz o'qishini tasvirlash bilangina qondirib bo'lmasdi. Dastlab shunday kamchiliklar ham ro'y berdi. Lekin tajriba va bilim ortgan sari insonning diniy-axloqiy ruhiyati, botiniy dunyosini ochishga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi.

4.Ijodiy erkinlik tufayli adabiyotda ta'qiqlangan mavzu va muammo qolmadi. Hozirgi paytda ijodkor xohlagan mavzuda yozishi mumkin. Faqat u xalqni yomonlikka o'rgatmasa, jamiyatga, umumiy maqsadlarimizga qarshi qo'ymasa bas. Hozir shunday xavf sezilmoqda. Ayrim yozuvchilar nuqul jinoyatchilik, buzg'unchilik, axloqiy tubanlik, ur-yiqit, o'g'rilik, odam o'ldirish kabi insoniyatga yot mavzularni yoritishga ruju qo'ymoqdalar. Bu holni Prezidentimiz ham quyidagicha baholadi: "Ayni paytda adabiy-badiiy jarayonda ko'zga tashlanayotgan salbiy tendensiyalar, xususan, tijoratlashuv, shaxsiy manfaatning birinchi o'ringa chiqqani, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo'lib borayotgani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi. Bugungi kunda yengil-yelpi, sayoz, oldi-qochdi voqealarni ifodalovchi kitoblar ko'payib borayotganligi to'g'risida haqli e'tirozlarni eshitish mumkin"(ijodkorlar bilan uchrashuvdagi nutqidan).

5.Hayotda badiiy adabiyotning ma'naviy hayotdagi o'mi va tarbiyaviy rolini oshirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Muhtaram Prezidentimizning qator nutq va ma’ruzalarida, suhbatlarida, xususan, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” nomli risolalarida, hozirgi Prezidentimizning adiblar bilan o’tkazgan bir necha uchrashuvlarida, yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada yaxshilash va “Ijod” fondini tashkil qilish to‘g‘risidagi qarorida bu masalaga alohida urg‘u beriladi.

### **Mustaqillik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari:**

1. Adabiyot yakkahokim mafkura tazyiqi, adabiy siyosat zug‘umidan xalos bo‘ldi.
2. “Bugungi adabiy jarayon o‘z inon-ixtiyori, ichki qonuniyatlari asosida erkin, tabiiy rivojlanish yo‘lidan bormoqda” (U.Normatov. “Tafakkur” jur. № 1, 2009).
3. Mustaqillik yillarda Sho‘ro davrida kamsitilgan milliy adabiy qadriyatlarni tiklash, tarixni haqqoniy, xolis yoritish, xususan, tasavvuf va jadid adabiyotini o‘rganish imkoniyati tug‘ildi.
4. Juhon adabiyoti bilan yuzma-yuz ijodiy hamkorlik yuzaga keldi. Juhon arenasiga chiqish yo‘llari izlana boshlandi.

### **Nazorat savollari**

- 1.“Hozirgi adabiy jarayon” fani qaysi davr adabiyotini o‘rganadi?
- 2.Fanning maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
- 3.Adabiyotda tendensiya va konsepsiya deganda nimani tushunasiz? Ularni sanang.
- 4.Hozirgi adabiy jarayonni qanday taraqqiyot bosqichlariga bo‘lib o‘rganish mumkin?
- 5.Modernizm haqida ma’lumot bering.
- 6.Mustaqillik davri adabiyotining asosiy xususiyatlarini sanab bering.

## MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK LIRIKASI

### Adabiyotlar

1. Mustaqillik davri adabiyoti. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 2006.
2. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T.: “Sharq”, 2004.
3. B.Sarimsoqov. Badiylik asoslari va mezonlari. T.: 2004.
4. I.G‘afurov. She’riyat – izlanish demak. T.: ASN, 1984.
5. I.G‘afurov. Mangu latofat. T.: “Sharq”, 2008.
6. U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. T.: “Fan”, 2007.
7. Y.Solijonov. Lirika latofati, nasrning nazokati. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.

Hurmatli talabalar! Siz dastlab umumta’lim maktablari, litsey va kollejlarning darsliklari, hozir esa oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun chiqarilgan D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” nomli darsligi va boshqa ilmiy manbalarda “lirik tur, lirik she’riyat, lirik obraz, lirik qahramon” degan atamalarni eshitgansiz va ular haqida ma’lum tushunchaga egasiz. Shunga qaramay, so‘ramoqchi edim:

1. Lirik tur nima va u qanday janrlardan iborat?
2. Lirik she’riyat deganda nimani tasavvur qilasiz?
3. Lirik obraz bilan lirik qahramon orasida farq bormi? Bo‘lsa, u nimada ko‘rinadi? Javoblarni o‘qituvchi izohlaydi va xulosalaydi.

Grekcha “lira” so‘zidan olingan lirika badiiy adabiyotdagi uch asosiy turning biri bo‘lib, unda ifodalananayotgan voqelik shaxsning his-tuyg‘ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi, ya’ni muallif – shoir tashqarida ro‘y berayotgan voqea, narsa yoki hodisaga qalb ko‘zi bilan qaraydi, uni qalb prizmasi orqali aks ettiradi. Lirika hayotni insonning his-tuyg‘ulari, fikri va kechinmalari orqali ifodalaydi. Bu lirikaning boshqa adabiy turlardan farqini ko‘rsatuvchi eng muhim xususiyatidir. Mana shu yetakchi

xususiyat adabiyotdagi badiiy tasvirga oid juda ko'p masalalarning o'ziga xos shaklda hal etilishini talab qiladi.

Bugun biz bu atamalar qatoriga yana bir muhim iborani qo'shamiz va uning o'ziga xosligini o'rganamiz. Bu adabiy iboraning nomi "lirik men" deb ataladi. Sirtdan qaraganda, "lirik men" lirik obraz va lirik qahramon atamalari anglatgan ma'noga yaqindek, ulardan farqi yo'qdek. Chunki shoir lirik obraz tarzida ham, lirik qahramon qiyofasida ham namoyon bo'lishi mumkin. U holda "lirik men"ni iste'molga kiritishning nima ahamiyati bor? Ahamiyati shundaki, agar she'riyatda "lirik men" bo'lmasa, obraz ham, qahramon ham bo'lmaydi. Chunki she'rda yaqqol ko'zga tashlangan obraz ham, hayotga, voqe'a-hodisalarga munosabat bildirayotgan lirik qahramon ham muallif – men tomonidan yaratiladi. Shu ma'noda lirik "men" bu iste'dodli ijodkor va yuksak ma'naviyatli shaxsning sintezlashuvidan, monumental qiyofasidan iboratdir.

"Men"ni anglash, "men"ni kashf etish har bir ilm va ijod ahlining oliy maqsadi hisoblangan. Bu maqsad ham diniy, ham dunyoviy adabiyotning bosh masalasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Jaloliddin Rumiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiylar butun umri mobaynida o'z "men"ini izlab o'tgan allomalardir. Siz Navoiyning "O'z vujudingga tafakkur aylagil, har ne istarsen o'zingdin istagil", "El netib topgay menikim, men o'zimni topmamom" degan hikmatli iboralarini eslang. Hozirgi o'zbek yozuvchilaridan N.Eshonqul esa butun ijodi davomida "Mendan "men"gacha" bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tish lozimligini ta'kidlaydi.

Lirik obraz "lirik men" ilgari surmoqchi bo'lgan fikrni o'quvchiga aniqroq, ta'sirliroq yetkazishga xizmat qiluvchi poetik unsur hisoblanadi. "Lirik men" o'zi tanlagan obraz orqali g'oyaviy niyatini aniqroq ifodalashga erishadi. Masalan, mana bu satrlarni tinglang:

Ko'chang boshida bir tol bor edi. Bormi? Xabar bergin.

Meni ko'rmoqqa zor edi. Hanuz zormi? Xabar bergin.

Holing so'rsam, og'ib qismat xatarlarga ketar bo'ldi,

Faqat tolning holidan, yor, xabar bersang, yetar bo‘ldi.  
Yashnaganmi? Ko‘karganmi? Bo‘yi necha quloch bo‘ldi?  
Yoxud o‘zga imoratga meningdek bir og‘och o‘ldi?..

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning “*Maktub*” deb atalgan ushbu qisqagina (atigi 6 misra) she’ridagi “tol” nihoyatda keng ko‘lamli, chuqur ma’noli, yuksak falsafiy mushohadaga chorlaydigan lirik obrazki, u orqali lirik men ilk muhabbatini boy bergen lirik qahramon-oshiqning iztiroblarini g‘oyatda teran ochmoqda. Lirik menning muhabbatga munosabati shu qadar xolis, shu qadar samimiysi, uning lirik qahramoni — oshiq ma’shuqani mutlaqo ayblamaydi. Bu masalada oshiq o‘zini ko‘proq aybdor deb biladi. Sevishganlarning ayriliq azoblari lirik obraz — “tol” zimmasiga yuklanadi. Tol ikki sevishgan qalbning visol onlariga, totli uchrashuviga, iztirobli kuzatishlariga ko‘p bor guvoh bo‘lganligi matndan anglashilib turibdi. Uning hanuz borligi, xazon bo‘lgan muhabbatga zid o‘laroq yashnayotgani, ko‘karayotgani lirik qahramon — oshiq muhabbatining yashovchanligidan dalolat beradi. She’rning, ayniqsa, xulosasi lirik menning madaniy didi yuksakligini, ma’shuqa(inson)ni g‘oyatda avaylashini ko‘rsatadi. Zero, uning lirik qahramoni-oshiq sevgilisi ko‘ngliga sira ozor yetkazmay, toldek kesilib, o‘zga imoratga og‘och-ustun bo‘lganligini tan oladi. Satrdagi “og‘och” tarixiy so‘zi juda o‘rinli tushgan. She’riyatda yana bir mashhur obraz bor. Men uning nomini aytishim bilan Siz darhol o‘quvchilik paytingizda yodlagan to‘rt satrni aytta boshlaysiz: “Anor”. Bu chistonda anor obrazi o‘scha davrdagi ayollar qismatini ifodalayapti. Lirik men tafakkurining yangilanishi tufayli asrlar davomida anor obrazining yangi qirralari ochilishi tabiiy. Mana, oradan 170 yillar o‘tgandan so‘ng yaratilgan she’rda anor obrazi qanday ma’noni anglatyapti:

Kimdan zarba yeding og‘ir,  
Lunjing buncha liq-liq qon?  
Sizayapti yerga axir  
Labingdagi yirtiqdan.  
G‘irrom hayot fursat sayin

Kutar yengilishingni.  
Lek nomardga ko'rsatmagin  
Qonayotgan tishingni.

Nosirjon Jo'rayev qalamiga mansub mazkur she'rda anorning tashqi ko'rinishi obraz sifatida shaxslantirilyapti. Sirtdan anor nazarda tutilayotgan bo'lsa-da, lirk men uning qiyofasida insonni tasavvur qilyapti. Nohaqlik va zulm tufayli jafo chekayotgan jabrdiyda insonga munosabat bildirilyapti. "G'irrom hayot" qulay payt poylab bu haqgo'y insonning lunjiga tushirishga, oyog'idan chalib yiqitishga urinadi. Lirk men uni bu zarbadan himoya qilishga intiladi. Lirk menning xulosasi o'quvchida katta umid tug'diradi. Mana, ikki xil misol orqali "*lirk obraz*", "*lirk qahramon*" va "*lirk men*" o'rtasidagi farqni ma'lum darajada bilib oldik. Endi lirk men masalasiga ko'proq to'xtalamiz. Har bir lirk menning o'z nuqtayi nazari va estetik ideali bo'lishi shart. Avvalo, shuni aytish kerakki, har qanaqa ijodkor ham "men" bo'lmay o'tib ketishi mumkin. Haqiqiy iste'dodgina "men"likka erisha oladi. Chunki tom ma'nodagi iste'dod egasi yorqin, betakror shaxs bo'lib yetisha oladi. Biz ijodkorning o'ziga xosligi, individualligi, individual uslubi degan iboralarni ishlatamiz. Ullarning zaminida ijodkor "men'i, ana shu "men"ga tegishli shaxs fazilatlari (ehtimol, qusurlari ham) dunyoqarashi, tafakkuri, tashqi dunyoni qabul qilishi. uning ichki olamida qayta ishlanishi va ijod mahsuli sifatida qayta yaratilishi masalalari yotadi.

Lirk menning yangilanishi so'z san'atining yangicha qiyofa kasb etishiga, o'zgarishiga olib keladi. Lirk men o'zgarsa, mavzu va g'oya ham, shakl va mazmun ham, metod va uslub ham yangilanadi. Mustaqillik davri lirkasida "modern she'riyat" nomi ostida juda ko'p shakl-shamoyillar vujudga keldi. A.Qutbiddin, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor, T.Ali, Go'zal Begim, Nigina singari shoirlar yaratgan ijod mahsullari o'quvchilarda turli kayfiyat va munosabat uyg'otdi. Kimdir uni tushundi – qabul qildi, kimdir tushunmadi – qabul qilmadi. Mana, masalan T.Ali bironta ham tinish belgisi ishlatilmagan quyidagi she'rida: "*Uyimdan uzoqda / biroq / yashayman uyimda*", — deydi. Sirtdan

qaraganda shunchaki axborotdan iboratdek tuyilgan bu satrlarda na obraz, na detal, na ritm, na qofiya bor. Ammo unda lirik menning adadsiz hissiy kechinmasi, uyiga, oilasiga, Vataniga bo‘lgan cheksiz sevgisi, ularsiz yashay olmaslik tuyg‘usi yashiringan. Yoki Abdu Nabining atigi beshta so‘zdan tarkib topgan besh qatorli “Besh navo”larini olaylik. Uning “Besh navo” deb atalgan to‘plami hozirgi she’riyatning g‘oyat go‘zal va yangi tajribalaridan biridir. Shoir har bir so‘zgav ehtiyyotkorlik bilan yondashadi, uning ma’nodagi kuch-qudratini aniq hisobga oladi, eng zarurini, yuki zalvorlisini tanlab oladi. Uning e’tirof etishicha: “So ‘zlarning//Muxtasariyam//Zalvorlisiyam,//Chiroylisiyam//So ‘z da-ye!..” Chindan ham besh navolar g‘oyat muxtasar, xiyla zalvorli va o‘z o‘rnida chiroqli so‘zlardan tarkib topgan.

Shoir ana shunday so‘zlar yordamida: “Bir//Sheryurak//She’rlar//Yozishim//Kerak” deb niyat qiladi. Kezi kelganda shoir bitta so‘zni ikkiga ajratish bilan ham yangi so‘z kashf etadi va har biri orqali yangi ma’noni ilgari suradi: “Ishq-da/ Poklaydi,/Ishq.../Or.../Bo ‘lsa” yoki: “Izhor/So ‘zining/O ‘zagi/Iz.../hormi?” Bu navolardagi “Ishqor” va “Izhor” so‘zlarini bo‘g‘inga ajratish orqali ulaming yangi ma’nolarini ochgan. Chindan ham haqiqiy insonning ishqini or(nomus)ni bilan qorishib ketmasa, mo‘rt bo‘ladi, orsizlik tufayli unga tushgan dog‘larni har qanday oliy navli ishqor bilan ham poklab bo‘lmaydi. Bir qarashda atigi beshta so‘z (ba’zan so‘z ham emas, qo‘srimcha yoki harf!)dan tuzilgan satrlarni tugal she’r deb qabul qilish nojoizbek ko‘rinadi. Biroq ijodkor qo‘llagan bu usul o‘zini to‘la oqlagan. Chunki har bir so‘z, hatto qo‘srimcha yoki harf ham ma’noning tig‘izligi, mazmunning chuqurligi, sathining kengligi, fikrning ko‘lmandorligi bilan e’tiborni tortadi. Bu ijodkorning kundalik hayotni kuzatishi teranligidan, ulardan falsafiy xulosalar chiqara olish salohiyati kuchliligidan darak beradi. Demak, hozirgi adabiy jarayonda ana shunday ixcham shakldagi she’rlar ham yaratilmoqda. Bunga qo‘srimcha sifatida A.Obidjonning bir qatorli “Ignabarg she’rlar”, “Uch chanoqlar”ini ham olsak bo‘ladi. Aksincha, ana shunday tinish belgilarisiz she’r

ijod qilishga ruju qo'ygan yana bir shoir Bahrom Ro'zimuhammadning quyidagi satrlarini o'qib, hech narsa tushunmaysiz:

*Dosh bermadi ko'z gavhari // bu tusga // yam-yashil edi  
chunki // qip-qizildan quyugroq edi // ip esholmasdi qop-qora  
hatto // to'qroq edi sap-sariqdan ham.*

Bu yerda shoir usqni ifodalayaptimi, birorta manzaranimi, tushunib bo'lmaydi. Ana shunday she'rlar to'g'risida rus shoiri Aleksandir Kushner adabiyotshunos Vladimir Kamishev bilan suhbatida "She'rlardan ma'no qochdi, faqat ma'niszlik, ko'p hollarda alahlashga o'xshagan narsa, ustiga ustak tinish belgilarisiz qoldi" deb tashvishlanadi. Ijodkorni qo'llab-quvvatlagan V.Kamishev ham "Tinish belgilariga bu qadar e'tiborsizlik ularni to'g'ri qo'llay olmaslikdan emasmikan?" deb so'raydi. Unga javoban Kushner "Bunday shoirlar o'quvchini chalg'itish uchun, ayni chog'da ko'proq taassurot qoldirish, juda bo'lmasa, mana shunday yo'llar bilan o'ziga e'tibor qaratish uchun tinish belgilarini inkor etadilar" deydi. Ana shunda bu kabi ijodkorlarning qandaydir o'rtamiyona va qashshoqqina matniga duch kelamiz ("Jahon adabiyoti" 11/2011). Lirik menning yangilanishini, dastavval, adabiyotning asosiy tahlil obyekti, o'rGANADIGAN predmeti hisoblangan insonga yaqinlashganida ko'rish mumkin. Ilgari "men" ko'proq tashqi dunyoga qarar, unga munosabat bildirar va shundan so'nggina ana shu ijtimoiy voqeahodisalar darchasidan insonga qarab, undan o'rnak olishga undardi. Buning oqibatida quruq pand-nasihatdan iborat she'riyat vujudga keldi. Endilikda lirik men, avvalo, o'zining yuragiga razm solishga, ko'nglini taftish qilishga e'tibor qaratmoqda. Bu mustaqillik davri o'zbek she'riyatining muhim o'zgarishlaridan biridir. Endi shoir o'z nigohini tashqaridan, atrofda ro'y berayotgan turli voqeahodisalardan uzib, o'z ko'ngliga qarata boshladi va undagi ziddiyatlarni, taloto'plarni obrazli tarzda tasvirlashga kirishdi. Bu jihatdan U.Asim, Sh.Rahmon, X.Davron, M.Yusuf, I.Mirzo, S.Sayid, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova,


I.Otamurod kabi o'nlab shoirlar ijodi, avvalo, o'z "men"i bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash o'rinnlidir.

Lirik "men"ning yangilanishi dastavval so'zdan foydalanish mahoratida yaqqol ko'rindi. Ayrim ijodkorlar esa so'zlarning chiroyiga mahliyo bo'lib ma'nosiga e'tibor bermaydi. Masalan, Shodmon Eshboyev bir she'rida "Sog'inchlarim chuvalib borar, Onam ko'rpa qaviganidek" deb yozadi ("Yoshlik", 11/2013). Sirdan qaraganda juda chiroyli, biroq hayo chuvalishi, ip chuvalishi mumkin-u, sog'inch chuvalmaydi-da! Buning ustiga "ko'rpa qaviganda" ipning chuvalishi ham mantiqqa zid. Yana shunday shoirlar uchraydiki, uning "men"i umumiy so'zlarni satriarga joylash bilan fikrini izhor qilmoqchi bo'ladi. Bu esa uning "men"iga soya soladi.

**Tayanch iboralar:** *lirika, obraz, qahramon, subyekt, obyektiv hayot, mavzu, g'oya, shakl, mazmun, qiyosa, yangilanish.*

### Nazorat savollari

1. Dars jarayonida tilga olingan ilmiy, adabiy atamalarni aniqlang va izohlang.
2. Lirik "men"ning lirik obraz va lirik qahramondan farqi bormi?
3. Hozirgi o'zbek she'riyati qanday asosiy mavzulardan iborat?
4. Ijodda shakl birlamchimi, mazmunmi?
5. Hozirgi she'riyatda lirik "men" qanday qiyofalarda namoyon bo'lmoqda?



## MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK LIRIKASINING TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Insonning ichki kechinmalari orqali biz lirik she'rda ham odamni, ham uni shu ahvolga solgan holatni, muhitni tasavvur qilamiz. Lirika, avvalo, qisqalikka intiladi. Shunga qaramay, unda badiiy asarning barcha unsurlari mavjud bo'lib, hayotning barcha qirralari aks etadi. Masalan, lirik shoir o'zining aniq individual kechinmalarini tipiklashtirib, umumlashtirishi, ayni chog'da o'zining shaxsiy munosabatini bildirib, individuallashtirishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan shoir Rustam Musurmonning "Bahor sog'inchi" deb atalgan quyidagi she'rini tahlil qilib ko'raylik:

### Bahor sog'inchi

Archalar "hechqisi yo'q"qa yo'yishar  
Qishning kuch-quvvatdan ketganligini  
O'riklar baribir sotib qo'yishar  
Bahorning bildirmay kelganligini.  
Qorlar qoyalardan o'zin tashlaydi,  
Tog'larning eng chuqur daralariga.  
Chechaklar emaklab chiqa boshlaydi  
Qishning bo'ysunmagan qal'alariga.  
Lolalar ochilar birdan lovullab,  
Qorlarning boshpanoh o'lkalarida –  
Qip-qizil sha'n oqar yerga shovullab,  
Bahorning bahodir yelkalaridan ...

(“O'zAS”, 1.03.96.)

Ko'rib turganimizdek, bu she'rda, avvalo, odamning kuchli his-hayajoni bor, ana shu hayajonni ifodalab bera olgan fikr bor, bahorni sog'ingan shaxsning munosabati bor. Bu xususiy munosabat ayni chog'da umumlashma xususiyatga ega. Unda ruh bor, ruhni qitiqlovchi tuyg'u bor. Kayfiyat bor, kayfiyatni allalovchi ohang bor. Tuyg'ular qarama-qarshiligi bor, manzara bor, harakat bor, mumtoz lirika an'analariga sodiqlik bor (2-misra "Devoni lug'atit-turk"ni eslatadi), obrazlilik bor (g'ij-g'ij),

detallar mavjud (archa, chechak, lola). She'rning qofiyalanish tartibi ohangning barqarorligini ta'minlagan (a-b-a-b).

Lirikada ruhiy holat birinchi o'rinda turadi. Chunki tashqi olamdag'i voqe'a-hodisalar, narsalar ijodkorning diqqat e'tiborini tortib, qalb-u shuuriga o'mashib qoladi, unga tinchlik bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o'y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. "San'atkorming qalbini zabit etgan, uning oromini, huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma deb ataladi" (B.Sarimsoqov). Lirik kechinma turli holatlarda ro'y berishi mumkin. Har qanday holatda ham u tugal estetik qimmatga ega bo'lgan asar sifatida mahsulot beradi. Shunga ko'ra lirik kechinmani ikkiga bo'lish mumkin: oniy va xotira lirik kechinma. Oniy lirik kechinma vaqtinchalik bo'lib, bir paytda lip etib paydo bo'ladi-da, estetik qimmat beruvchi mahsulot (she'r yoki satr) berib o'chadi va yo'qoladi. Xotiraga asoslangan lirik kechinma esa yashovchan bo'ladi. Lirik she'r odatda hajmining kichikligi bilan ajralib turadi. Buning sababi uning shoir (lirik qahramon) ko'nglida oniy lahza mobaynida kechgan his-tuyg'u, o'y-fikrni ifodalashga yo'naltirilganligidir. Ayni chog'da hozirgi she'riyatda hajman birmuncha katta she'rlar ham uchraydiki, ular ko'proq xotira lirik kechinmalar mahsulidir. Lirik she'r qahramoni ham insondir. Unda ko'pincha shoirning o'zi lirik qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Voqelikni lirik qahramon kechinmalari orqali aks ettirish lirikaning bosh xususiyati hisoblanadi. Lirikada ham badiiy fantaziya muhim rol o'ynaydi. Bunda shoir voqelikni o'z orzu-istagi, xayolida tasavvur qilgan ijtimoiy ideallar bilan bog'langan holda tarannum etadi. Buni she'riyatda ehtirosli lirika, pafos deyiladi. Lirik she'r o'zining serma'noligi, fikran teranligi, his-tuyg'u va ehtiroslarning samimiyligi, boyligi, shaklan rang-barangligi, serbo'yoqligi, jozibadorligi, g'oyatda musiqiyligi bilan o'quvchiga manzur bo'ladi. Lirika eng qadimgi adabiy tur hisoblanib, uning 20 dan ziyod janri mavjud. Keyingi yillarda jahon she'riyati tajribalaridan o'r ganish tufayli janrlar yanada ko'paydi. Bu hozirgi o'zbek she'riyatining boyishi va yangilanayotganidan darak beradi. Hozirgi o'zbek lirikasining

o'sish, o'zgarish, yangilanish tamoyillarini chorak kam bir asrlik "sovet she'riyati" bilan taqqoslab o'rganilsa, uning o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi. "Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun" degan g'oyat balandparvoz shiorni bayroq qilib olgan Sho'ro hukumati amalda uni bajarmadi. Adabiyot namoyandalari xalqning ko'nglini ifodalash o'miga tashqaridagi voqeа-hodisalarni (masalan, uzoq Afrikadagi yakka shaxsnинг yurti ozodligi uchun isyon ko'targan va bu yo'lda qurban bo'lganini ko'klarga ko'tarib, madhiyalar yozildi-yu, o'zimizda shunday hodisa yuz bersa, imi-jimida yo'q qilib yuborildi), tinchlikni (aslida "sovutq urush" avjiga chiqqan, SSSR – AQSH munosabatlari taranglashgan edi), kommunizmni ulug'lash, sharaflash, "tenglar ichida teng huquqli inson" baxtini baland pardalarda kuylash bilan ovora edilar. Shunisi borki, buning haqiqat ekanligiga ijodkorlarning o'zi ham ishonardi, zo'r berib o'quvchisini ham ishontirishga urinardi. Xalq o'z shoirlarini tinglardi, ammo uning ko'ziga qaramas, bosh ko'tarmay mehnat qilardi. Yaxshiki, imperiya parchalandi, 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Ammo mamlakatning to'la ozod bo'lishi uchun o'z bayrog'i, o'z madhiyasi, o'z gerbi, o'z valyutasiga ega bo'lishi kamlik qiladi. Bular mustaqillikning dastlabki qadamllari xolos. Haqiqiy mustaqillik xalqning ongi-shuuriga, ma'naviyatiga singishi zarur. Shundagina u mustahkam va bardavom bo'ladi. Buning uchun adabiyot, eng avvalo, she'riyat tozalanishi, yangilanishi, maddohlik, balandparvozlik, yuzakilik, quruq pand-nasihatdan voz kechishi lozim edi. She'riyat odamlarning ko'ngliga kirishi, osongina, birdaniga ro'y bergandek tuyilgan mustaqillikning aslida ildizlari chuqur ekanligi, ko'p asrlar goh oshkora, goh pinhona shaklda davom etgan qonli kurashlar evaziga qo'lga kiritilganligini anglatish kerak edi. Bu esa dastlab oson bo'lmadi. Chunki qariyb 75-80 yil uzluksiz davom etgan va afkor omma ongiga singdirilgan zo'ravonlik siyosati, partiyaviy boshqaruv, kommunistik masfkura asoratidan osongina qutilish, uni qisqa muddatda uch-to'rtta qonunlar qabul qilish yoki mitinglar tashkil etib, otashin nutq irod qilish bilan o'zgartirish

mumkin emasdi. Chinakam istiqlolning mashaqqatli, suronli, ammo sharaflvi va nurli odimlari boshlandi. Mustaqillikning ilk davrida ijod ahli uch toifaga bo'lindi. Ikkita uyushma bir-birini inkor etib, fosh qilib, "kimo'zar"ga faoliyat ko'rsata boshladи. Miyasi kommunistik mafkura bilan to'lib toshgan keksa avlod hamma narsani inkor qilishga, Sho'rolar davrini qo'msashga, uning siyosatini qaytarishga kirishdi. O'rta avlod na u yoqqa, na bu yoqqa qo'shilolmay, bir necha muddat garangsib turdi. Jim turishni ravo ko'rdi. Ayrimlar ijodni ham tark etdi va to'g'ri qildi. Chunki o'sha mavqeyi bilan istiqlol adabiyotidan o'rin ololmasdi. Yosh avlod esa o'zini emin-erkin his qilib, og'ziga kelganini qaytarmay aytta, hatto baqira boshlandi. Bu hol dastlab she'riyatda yengil-yelpilik, yuzakilik, shaklbozlikka olib keldi. Bu avlod xuddi XX asrning 20-yillardagi proletkultchilar singari o'zigacha yaratilgan adabiy merosni qabul qilmaslikka, "sovet shoiri" bo'lganlarning barchasidan voz kechishga urindi. Lekin bular vaqtinchalik shov-shuvlar edi. Aslida she'riyat inson ko'ngliga yo'l izlayotgan edi. Bu mustaqillik davri o'zbek she'riyatining muhim o'zgarishlaridan biridir. Endi shoir o'z nigohini tashqaridan, atrofda ro'y berayotgan turli voqeа-hodisalardan uzib, o'z ko'ngliga qarata boshlandi va undagi ziddiyatlarni, taloto'plarni obrazli tarzda tasvirlashga kirishdi. Sh.Rahmon, X.Davron, A.Obidjon, M.Yusuf, I.Mirzo, S.Sayyid, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova, I.Otamurod kabi o'nlab shoirlar ijodi, avvalo, o'z "men"i bilan ajralib turadi. Bular orasida, ayniqsa, I.Otamurod ko'ngil (kangul)ga alohida e'tibor beradi, uni obraz darajasiga ko'taradi. Mana, shoir ko'ngilga qanday murojaat qiladi:

Kanglum, kim ham sening hadding sig'dirar,

Kanglum, kim ham sening ko'tarar roying?!

Birgina o'zingsan o'zingga yayar,

Birgina o'zingsan o'zingga soyim. ("Tavr", 28-29-b.).

Shoir o'zining "Ichkari ... tashqari" nomli asarida to'g'ridan to'g'ri ko'ngil va hayot – ichki va tashqi dunyo iztiroblarini,

ziddiyatlarini ifodalaydi. Ular doimiy harakatda, bir-birini taftish qiladi, izlaydi, inkor qiladi:

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,  
Istayur tashqarida to‘luvni.  
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,  
Istayur ichkarida bo‘luvni.

Ichkari – ko‘ngil, tashqari – hayotdan o‘ziga javob istasa, tashqari – hayot ichkari – ko‘ngilga kirib uni tavof qilishni istaydi. Shoир nazarida “Ichkari – xo‘rsiniq, tashqari – xandon. Ichkari sukunat, tashqari – g‘ovur. Tashqari – g‘ussa, ichkari – huvaydo. Tashqari – nadomat, ichkari – gululg”dir. Xullas, Ikrom – ko‘ngil shoирi, ko‘ngil asiri, ko‘ngil bilan ish ko‘radigan, u bilan suhbatlashadigan shoир. U yangi so‘z to‘qishni, yashashni yaxshi ko‘radi. Shoир o‘zining har bir she’riga yoki satriga biron ta noyob, kutilmagan so‘z kiritib, uni uchqunlatib qo‘ymasa, ko‘ngli o‘rniga tushmaydi. Zukko adabiyotshunos I.G‘afurov ta‘kidlaganidek, “Ikrom shu kabi so‘z izdihomlari ichida yashaydi. Lekin noyob so‘zlar, iboralarni qo‘llashda poetik me’yorni saqlash bu ham badiiylik hamda estetik didning juda muhim elementi. Busiz badiiyat talafotga giriftor bo‘ladi” (*I.G‘afurov. Mangu latofat. T., “Sharq”, 2008, 287-bet*).

Mustaqillik davri adabiyotida shoirlarning o‘z nigohini tashqaridagi muammolardan uzib, ichkariga – botinga qaratishi shu davr she’riyatining tub yangiligi hisoblanadi. Bunday sharafga o‘zbek shoирi qariyb chorak kam bir asr mobaynida mustaqillik sharofati tufayli erisha oldi. U o‘zi xohlagancha ko‘ngil rozini to‘kib solishga, u bilan bahslashish, yaqindan suhbatlashish baxtiga tuyassar bo‘ldi. Bunday she’rlarda fuqaroni qandaydir buyuk ishlarga da‘vat etadigan otashin chaqiriqlar yo‘q, ijtimoiy masala yo‘q. Biroq ular aynan biz haqimizda, ko‘ngilimizdagи adoqsiz siru sinoat va izardorlar haqidadir. Shu jihatи bilan bizga yaqin va qadrdondir. Masalan, Z.Mirzoning “Nur kukunlari”, H.Ahmedovaning “Umid soyasi”, R.Rahmonning “Xastalik daftari” deb atalgan kitoblarini mutolaa qiling: nuqul hijron, dard, o‘limni kuylaydi. Garchi bular umuminsoniy tuyg‘ular bo‘lsa-da,

20-30 yil oldin ularning dunyoga kelishi dargumon edi. Bunday she'r mualliflari albatta tegishli jazosini olardi. Biroq shuni ham ta'kidlash o'rinniki, istiqlol davri she'riyati faqat ko'ngilning intim kechinmalarini kuylash bilan cheklanib qolayotgani yo'q. S.Sayyid, I.Mirzo, M.Mirzo, U.Azim, A.Suyun, Tursun Ali kabi shoirlar ijodida ijtimoiy masalalar ham baland pardalarda kuylanmoqda. Ammo bu ijtimoiy masalalar ayrim shoirlar tomonidan balandparvoz so'zlar orqali hissiz, quruq holda ifodalananayotgani ham sir emas. Fikrim isbotsiz bo'lib qolmasligi uchun bitta misol keltiray:

Bu dunyoda millatlar ko'p, ellar ko'p,  
Ellatlar ko'p, taqdirlar ko'p, yo'llar ko'p,  
Bir yon chaman, bir yon sahro, cho'llar ko'p,  
O'zing mening yagonamsan diyorum,  
Durlar ichra durdonamsan diyorum.

(K. Sindarov. *O'zing mening yagonamsan*. T.: 2008.-B.3).

Ha, adabiyotshunos U.Hamdam aytganidek, ayrim shoirlar katta masalalarni ifodalashda "kichrayib", "maydagap" bo'lib qolayotirlar. Xullas, istiqlol davri she'riyati lirik qahramonning barkamolligi sari dadil odimlamoqda. U o'z yo'lida uchrayotgan mayda-chuyda kamchiliklarni yuksak poetik obrazlar yaratish bilan yengib boradi. Hozirgi o'zbek she'riyatida namoyon bo'layotgan *lirik men* birinchi galda o'zini shafqatsizlik bilan taftish qilishga urinmoqda. Buning oqibatida so'nggi yillar she'riyatida "Men kimman? Dunyoga nega keldim? Qanday yashayapman? Qanday yashashim kerak?" degan savollarga javob izlash tendensiyasi ustuvorlik qilayotir. Shu ma'noda bugungi she'riyatning insonga diqqat-e'tibori yanada teranlashdi, uni tahlil qilish usullari yangilandi. Yanada aniqroq aytganda, inson ko'ngli she'riyatning asosiy o'rganish obyektiga, bosh qon tomiriga aylandi. Bilasiz, tibbiyotda insonning betobligi uning qonini tekshirish orqali aniqlanadi. Hozirgi ijod ahli ham xuddi bilimdon shifokor singari insonning tomiri qanday urayotganini ijod laboratoriyasida chuqur tahlil qilib, obrazli ifodalashga

urinmoqda. Natijada she'r- ko'ngil ko'zgusi, she'riyat esa hayot ko'zgusi darajasiga ko'tarildi.

Hozirgi paytda lirik men turli qiyofada namoyon bo'lmoqda. U aslida shoirning o'zi bo'lsa ham mavzu va g'oya mohiyatiga, shakl va mazmun qolipiga qarab har xil qiyofaga kiradi. Muhimi, kim bo'lishidan qat'i nazar masala lirik men tafakkurining yangiligi, tiniqligi, hayotni o'ziga xos nigoh bilan ko'ra olishida, fikrini obrazli tarzda tushunarli ifodalab bera olishidadir. Hozirgi she'riyatda namoyon bo'layotgan lirik men juda murakkab. Uni osongina tushunish ham mumkin, biroq uni dabdurustdan his qilib, aniq ko'rib bo'lmaydi. Ayrim lirik "men"ni esa tushunish qiyin, uning nima demoqchi ekanligini darhol anglab bo'lmaydi. Ammo she'rdagi nimadir histuyg'ungizni qo'zg'aydi, ko'nglingizga qandaydir nur olib kiradi, aqlga ozuqa beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi adabiy jarayonda **lirik** menning yangilanishi nafaqat janlar, shakl va mazmun, obrazlar tizimining yangilanishiga, balki ayni chog'da o'quvchi ommasi tafakkurining ham har tomonlama o'zgarishiga, boyishiga, yangicha munosabatning paydo bo'lishiga ta'sir qilyapti. Bu esa adabiyotimizning yanada buyuk bo'lishidan dalolatdir.

### Nazorat savollari

1. Lirika nima? U qanday xususiyatlarga ega tur?
2. Lirik kechinma va uning mohiyati haqida gapiring.
3. Lirik tur janrlarini sanang.
4. Istiqlol davri lirkasining sovet davri she'riyatidan farqini aytинг.
5. "Ko'ngil she'riyati" deganda nimani tushunasiz?
6. Subyektivizm illati nima?

## **MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA MAVZU VA G'OYA BIRLIGI**

### **Adabiyotlar**

- 1.Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. T.: ASN, 2006.
- 2.I.G'afurov. She'riyat izlanish demak. T.:ASN, 1984.
- 3.I.G'afurov. Mangu latofat. T.: "Sharq", 2008.
- 4.U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. T.: "Fan", 2007.
- 5.Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zлari. T.:A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashr. 2009.

### **Reja:**

- 1.Badiiy asarda mavzu va g'oya.
- 2.Hozirgi she'riyatning mavzu doirasi.
- 3.Lirik qahramon, lirik obraz va g'oya birligi.

Badiiy adabiyot uchta muhim elementdan tashkil topadi. 1-til, 2-mavzu, 3-syujet. Bu raqamlarni yana davom ettirish mumkin (xarakter, konflikt, g'oya, qahramon, tasvir, usul kabi). Ammo mavzusiz asar yuzaga kelmaydi, xuddi umurtqasiz organizmga o'xshab qoladi. Rus adibi M.Gorkiy aytganidek: "Mavzu muallif tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergen, ammo hozircha muallif tasavvurida hali to'la-to'kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlar orqali gavdalantirishni talab qilib, yozuvchida ishlashga mayl uyg'otadigan g'oyadir" (*M.Gorkiy. Adabiyot haqida. T.: 1962. -B.241*). Mavzuni asar g'oyasidan ajratib bo'lmaydi, agar mavzu muallif tasvirlayotgan narsa, voqeа, hodisa bo'lsa, g'oya ana shu ifodalanayotgan mavzu orqali aytilmоqchi bo'lgan fikrdir, yozuvchining xulosasidir. Shu ma'noda mavzu – bu yozuvchi tomonidan asarda qo'yilgan va aniq hayotiy materiallar asosida yoritilgan muammodir. Mavzu va g'oya asarning g'oyaviy – tematik birligini ta'minlovchi asosdir. Mavzu tushunchasi asarning butun mohiyatidan kelib chiqadi,

g‘oya esa yozuvchining miyasida yetilgan asosiy fikrdir. Bu fikr ma'lum bir voqelik orqali badiiy obrazlar yordamida o‘quvchiga yetkaziladi. Badiiy asar mavzusini odatda voqelik belgilaydi. Mavzuning yoritilishi ko‘p jihatdan san’atkor mahoratiga bog‘liq. Bir mavzu turli adiblar tomonidan turlicha yoritilishi mumkin. O‘quvchini qiziqtiradigan, davrning muhim va dolzarb mavzulari haqida yozish, mavzu tanlay bilish ijodkorning talantiga bog‘liq.

Endi mavzu va g‘oya birligi masalasini hozirgi o‘zbek she’riyati misolida ko‘rib chiqaylik. Shu narsa quvonchlik, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida mavzu cheklanmagan, sho‘rolar paytidagidek ta‘qiqlangan mavzu yo‘q. Ijodkor xohlagan mavzu bo‘yicha asar yaratishi mumkin. Faqat uning g‘oyasi umumbashariy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lsin. Insonni yovuzlikka emas, ezgulikka chorlasin. Ijodiy erkinlik berilganligi tufayli hozirgi o‘zbek she’riyatining mavzu ko‘lami keng va rang-barangdir. Adabiyotshunos U.Hamdam “bugungi o‘zbek she’riyati mavzularining ishlanish ko‘lami va darajasiga qarab” quyidagicha tasnif etishni taklif qiladi:

- ishqiy intim mazmundagi she’rlar;
  - intim mazmunli she’rlar (bularning farqi shundaki, birida oh-voh, tushkunlik ko‘p; ikkinchisida – umidba什lik kuchli; yana ko‘ngilning turfa intilishlari, faqat yor emas, ona, yurt, do’st va h.k.).
  - madhiya – bag‘ishlov she’rlar;
  - uhroviy mazmundagi she’rlar (biz buni ruhoniyl she’rlar deb ataganmiz, ya’ni dunyoning o‘tkinchiligi. Yaratganga iltijo, tavba – tazarru – Y.S.);
  - tarixiy mazmundagi she’rlar;
  - pand – nasihat she’rlar;
  - Vatan va uning mustaqilligi haqidagi she’rlar;
  - o‘lim mavzusidagi she’rlar;
  - boshqa har xil mavzudagi she’rlar:
- Albatta, olimning o‘zi aytganidek, bu tasnif g‘oyat shartli bo‘lib, uni yanada kengaytirish ham, qisqartirish ham, ba’zilarining o‘rnini almashtirish ham mumkin. Bu mavzular

orasida ishqiy hamda intim mavzudagi she'rlar salmog'i juda baland, hatto keyingi 20 yillik o'zbek she'riyatining asosiy qismini egallaydi. Ammo ularning ko'pchiligi o'ta subyktivligi, tushkun kayfiyatda yozilganligi, o'quvchini muhabbatning hayotbaxshligi, kuch-qudratiga ishonchini ottirishga o'rgatish o'mniga, nuqul hijron, yolg'izlik, bevafolik, yo'qotish, sarsonlikdan iborat ohu-nolalarni ifodalayotgani ham sir emas (*bu haqda qarang. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlar. – B.158-168*). Binobarin, sevgi, vafo va vafosizlik, hijron va o'lim singari umuminsoniy mavzular hamma davrda ham bo'lgan, har bir davr kishisi sevish, sevilishga, yig'lash yoki kulishga, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishga, bular to'g'risida o'ylashga, yozishga haqlidir. Biroq ushbu mangulikka daxldor tuyg'ular, barqaror fikrlarni bachkanalashtirib, soxtalashtirib, nuqul ko'z yoshi bilan sug'orib ifodalashga har doim ham yaxshilikka olib kelavermaydi.

Istiqlol davri she'riyatining bosh maqsadi Vatanga sadoqatlari barkamol avlodni tarbiyalash, xalqning milliy ongini shakllantirish, o'zligini tanitish, erkin ruhni o'stirishdan iboratdir. Hozirgi paytda she'r haqidagi tasavvur ham, she'riyatga munosabat ham tubdan o'zgardi. Istiqlol she'riyati ham shakli, ham mazmuni jihatidan boshqacharoq sifat kasb eta bordi. Unda ijtimoiy tafakkur yuki ortdi. Bu borada ijodkorlarning o'rta avlodiga mansub toifa ibrat ko'rsatayotir. E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, R.Parfi, U.Asim, X.Davron, H.Xudoyberdiyeva, ularning izidan borayotgan S.Sayyid, I.Mirzo, M.Mirzo, A.Qutbiddin, Z.Mirzo, H.Ahmedova, X.Rustamova, G.Begim singari o'nlab shoirlar ibrat ko'rsatmoqdalar. Shunisi muhimki, ularning she'rlari zamonning chirsillab turgan voqealaridan xoli emas, ayni chog'da qadim mumtoz she'riyatimiz an'analaridan ajralib ham qolgan emas.

Biroq shuni ham yashirmaslik joizki, mustaqillik davri adabiyotining ilk bosqichi (1990-2000)da g'oyadan, g'oyaparastlikdan uzoqlashish sezildi. Bu adabiy hodisaning ikki tomoni bor: biri foydali, ikkinchisi zararli. G'oyadan voz

kechishning foydali tomoni shunda ediki, o'zbek she'riyatni istiqlol yillarida sovet davridagi singari g'oyaparastlikdan qutildi. Ma'lumki, o'zbek "soviet" shoirlari kommunistik partiya siyosatini ulug'lashga, shiorlarni bayroq qilib olishga, kommunizmni madh etishga majbur edi. Insonning ko'ngli, tashvishi bilan mutlaqo ishi bo'lmasdi. Endi she'riyat hukmron g'oyadan, yagona yetakchi mafkuradan qutilgach, bir muddat nimani kuylashni, qanday g'oyani ilgari surishni bilmay garangsib qoldi. Boisi, adabiyot paydo bo'lganidan beri, ayniqsa, chorak kam bir asr davom etgan sovet mustamlakachiligi davrida turli darajada, har xil shakllarda zimdan kuylab, intilib kelgan assosiy orzusi (erk mavzusi) – mustaqillik qo'lga kiritilgan, yurt ozodlikka erishgan, milliy g'urur tiklangan, xullas, muammolar hal qilingandi. Vatan ozod bo'ldi, maqsadga erishildi. Xo'sh, endi nimani kuylash, qanday g'oyani ilgari surish kerak? G'oyasizlik shundan kelib chiqdi.

Ammo bu g'oyasizlik uzoq davom etmadidi. Ma'lum bir taradduddan so'ng shoir o'z "men"iga murojaat qildi. "Men"ning ichi – ko'ngil - dardga to'la edi, u juda zanglagan, diqqinamas bo'lgan edi. O'ziga e'tibor berilganidan quvonibmi, o'ksinibmi, oh-voh qila boshladidi. Og'ziga kelganini ayta boshladidi. Uni hamma ham eshitavermadidi, chunki har kimning tashvishi o'ziga yetarli edi. Umumning dardini tushunish, kuylash uchun ko'ngilni zanglardan, g'uborlardan tozalash kerak edi. Ko'ngilga erishilgan maqsadning ulug'ligini, mustaqillikning shukuhini, uni mustahkamlash tuyg'usini, millatning ertangi qayg'usini, buyuk davlat yaratish orzusini singdirish zarur edi. Bora-bora bunga erishildi ham. Binobarin, she'riyat XXI asr boshlaridan to'la ma'noda yangilikka yuz o'girdi, unda tom ma'nodagi ijobiy, o'zgarishlar ro'y bera boshladidi. Ko'z o'ngimizda yuz ochayotgan bu nafis olam – mustaqil yurt fuqarosining o'zligi, xalqning shakllanayotgan va tobora yangilanayotgan milliy ongi, madaniyati, qadriyatlarining tiklanish, ma'naviyati, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan mafkura bilan chambarchas bog'liq edi.

She'r bu – insonning qalbi, ruhi ekanligi amalda isbotlana boshladи. Qalb bilan ruh esa ilohiyatga tegishli, unga yondashdir. Yaxshi she'r yozilmaydi, balki tug'iladi, voqe' bo'ladi. Bu g'ayb ilmi bilan bog'liq bir sirli holatdir. Darvoqe, haqiqiy shoir ham birovning yo'l-yo'rig'i bilan emas, yaratganning amri bilan ijod qiladi. Shunga amal qilish asnosida shoirlar va she'rlar saralana boshladи. Binobarin, she'r yaratish baqiroqlik mahsuli emas, balki ibodat ekanligini, ijod bu sajdaga bosh qo'yishdek muqaddas holat ekanligini, xuddi oyatlar mehr bilan shivirlab o'qilgani singari she'r ham suhbattoshni yoningga chaqirib, "Dilingdagи siri do'stingga ochmoq kabi qutlug' marosim" (*X.Davron*) ekanligini anglagan shoirlar ajralib chiqdi. Ular Vatan, millat, yor, inson, yer, vafo, baxt, qayg'u to'g'risida bu so'zlarni ishlatmay ham shu qadar ehtiros bilan yozdilarki, ularni o'qib, hayajondan o'zingizni bosolmaysiz, muhabbat iforidan boshingiz aylanadi.

Shunday shoirlardan biri hamyurtimiz Tursun Alidir. Uning she'rlari, asosan, Vatan mavzusiga bag'ishlanadi. Ammo ularning aksariyatida "Vatan", "diyor", "yurt" degan so'zlar, odatdagи otashin va yolqinli xitoblar, oh tortish, ko'ksiga urib baqirish uchramaydi. Shoir bu tuyg'ularini sekingina, ohista, bosiqlik bilan aytadi (shuning uchun ham kitobning nomi "Sokin hayqiriq" deb qo'yilgan). Ajabki, mana shu sokinlik bag'rida Vatanga muhabbatning o'chmas va qudratli olovi, tuyg'uni portlatuvchi atom zarrasi, kayfiyatni osmon qadar ko'taruvchi po'rtana yashiringan. Masalan:

*Uyimdan uzoqda*

*biroq*

*yashayman uyimda.*

Shunday satrlarni shu va boshqa shoirlar ijodidan toping va tahlil qiling. Shu bilan birga bu davr she'riyatida "Vatan! Men seni sevaman! Sensiz menga hayot yo'q!" deb baqirayotgan shoirlar ham ko'paydi (aslida, u juda bemalol, beg'am-betashvish yashayotgan bo'ladi). Quruq dabdaba, ayyuhannos solish, baqirish – kuchsizlik belgisi ekanligini unutmaslik zarur. Vatanga muhabbat, yorga sadoqat singari ulug' tushunchalar haqida quruq

safsata sotuvchi shoirlar nazarimda, bank xodimlariga o'xshaydi. Kuniga qo'lidan behisob pul o'tadi-yu, unga ega bo'lmaydilar. Chunki bu pullar o'ziniki emas-da! Pulning hidi na to'ydiradi, na sarxush qiladi; na rangining yuqi qoladi. Hozirgi shoirlar orasida qandaydir "she'rbozlar" ko'payib ketganga o'xshaydi. Ular hamma narsadan she'r yaratishga, o'quvchini hayratda qoldirishga urinayotgandek ohanjama usullarda, balandparvoz so'zlarda "shig'ir" bitishga urinmoqdalar. Vaholanki, ularning ta'sir kuchi kam, go'yo qog'oz gullardan yasalgan guldastaga o'xshaydi. Shaldiroq ovoz chaqiradi-yu, hidi yo'q, ko'rinishi g'oyat go'zal-u, tarovati yo'q.

Shukurki, baxtimizga "badiiy ijod haqiqiy diyonat va pok diniy e'tiqod singari muqaddas ish" (L.Tolstoy) ekanligini amalda isbotlayotgan E.Vohidov, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, U.Azim, I.Otamurod, I.Mirzo, S.Sayyid singari o'nlab shoirlarimiz bor. Ular haqiqiy she'r insonning tom ma'nodagi ruhiyatini aks ettiruvechi ko'zgu bo'lishi uchun astoydil kurashmoqdalar. Ulardan biri:

Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,

Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.

Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,

Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim! (H.Xudoyberdiyeva)

deya hayqirgan bo'lsa, yana biri:

Haq gap uchun har bir ishga ko'nadi el,

To'g'ri so'zdan ko'payadi, to'ladi el.

Dordan qo'rqib yolg'on aytib turganim yo'q,

Shoirlari yolg'on aytsa – o'ladi el (U.Azim) deya jo'r bo'lib, yolg'on she'riyat lashkariga qarshi maydonga chiqadi. Boshqasiga esa dilidagi dardini, otashin muhabbatini ohistagina:

Men kuyinib sevaman, netay,

Men kuyinib so'zlayman xolos. deb izhor etgan bo'lsa (R.Parfi), yana bir shoirimiz "O'zim o'z qalbimning Kolumbi" bo'lib kashf etishim, buning uchun daraxt singari yonishim kerak deb qasam ichadi:

Daraxtlar yonmoqda bugun dunyoda,

Yonib, o'zgalarni uyg'otmoq ne baxt!  
Do'starimdir barcha yonayotganlar,  
Yuragimdir yonayotgan daraxt! (O.Matjon).

Ana shunday otashnafas shoirlarimizning halol va beminnat mehnati tufayli istiqlol davri she'riyatining mavzu ko'lami kengaydi, g'oyaviy yuki ortdi. Gap faqat mavzu va muammolarning kengayganligidagina emas. "Ana shu mavzu va muammolarning ifoda tarzi, badiiy tahlil etish san'ati, uslublar rang-barangligi, xalq yo'lidagi baxshiyona, xalq dostonlari, termalari yo'lidan tortib, olis Yapon she'riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlarigacha paydo" (B.Nazarov) bo'lganligida, ya'ni she'riyatning ham mazmunan, ham shaklan kengayganlidigidir. Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek she'riyati mavzu va g'oya jabhasida dong'il yo'lga chiqdi. Bu yo'lda uning egallashi lozim bo'lgan manzillari hali oldinda...

### Nazorat savollari

1. Mavzu haqida ma'lumot bering.
2. G'oya nima? G'oyasizlik va g'oyaparastlik-chi?
3. Istiqlol davri she'riyatining mavzu ko'lami bo'yicha tasnifni ayting.
4. Hozirgi o'zbek she'riyatining asosiy mavzusi va bosh g'oyasini aniqlang.
5. Ko'ngil she'riyati deganda nimani tushunasiz?
6. Hozirgi o'zbek she'riyatining kamchiligi nimada ko'rindi?
7. Hozirgi o'zbek she'riyatining yetakchi shoirlarini ayting va ular ijodidan misol keltiring.

## **MAVZU: LIRIK SHE'RDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI**

### **Adabiyotlar**

1. Mustaqillik davri adabiyoti. T.: 2006.
2. I.G‘afurov. Mangu latofat. T.: “Sharq”, 2008.
3. U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. T.: “Fan”, 2007.
4. B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: 2004.
5. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko‘zлari. T.: 2009.
6. Y.Solijonov. Lirika latofati, narsning nazokati. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.

### **Reja:**

1. Badiiy adabiyotda shakl va mazmun muammozi.
2. Badiiy asarda shakl va mazmun birligi.
3. Mazmun va shakl unsurlari.

Shakl va mazmun kategoriyasi adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi. Bu masala Aristoteldan to hozirgacha bo‘lgan olimlarning diqqat-e’tiborida turadi, bahsmunozaraga undaydi: ularning qaysi biri muhim? Shakl avval paydo bo‘lganmi yoki mazmunmi? Ma’lumki, hayotda hamma narsa o‘z shakli-shamoyili bilan yaratilgan. Biz nimaniki ko‘rsak, dastlab shakliga e’tibor beramiz. Masalan, mana bu shoxlari tarvaqaylab, bargi to‘kilayotgan, ildizlari yerga chuqur kirgan, tanasi g‘adir-budir, po‘stlog‘i qalin, osmonga bo‘y cho‘zgan “narsa”ni “daraxt” deymiz. Bu umumiyl nom bo‘lib, xayolimizga darhol “qanaqa daraxt?” degan savol uriladi. “Chinor” deymiz. Demak, ko‘z oldimizdagi shaklning mazmunini anglatuvchi tushuncha paydo bo‘ldi. Davom etamiz: “Chinor ko‘p ming yillik daraxt, yog‘ochi mustahkam, qurilishbop, qimmatbaho. A.Muxtorning “Chinor” romani bor” va h.k. Qarang, birgina shaklga qarab turib qancha fikr (mazmun) paydo bo‘ldi. Agar

chinor arralab tashlansa, u shakl sifatida ham, mazmun sifatida ham yo'qoladi. Kesilgan daraxt endi "to'nka", "g'o'la", "sarjin" bo'ladi. Demak, shakl o'zgarishi bilan mazmun ham o'zgaradi.

Bundan shu narsa anglashiladiki, mazmun bilan shakl o'zarо dialektik birlikda namoyon bo'ladi. Ularni bir-biridan ustun qo'yib ham, ajratib ham bo'lmaydi. Shakl va mazmun bir-birisiz yasholmaydigan kategoriyalardir. Ularning ahamiyati ayniqsa, badiiy asarda aniq ko'zga tashlanadi. Badiiy adabiyotda shakl va mazmunning o'mi, ularning dialektik aloqadorligi, bir-birini taqozo etishi, mazmun va shakl mutanosibligi adabiyot qonuniyatidir. Qayerdaki, ularning mutanosibligi buzilsa, badiiy asarning yaxlitligiga putur yetadi. Chunki adabiy asar o'z tuzilishiga ko'ra yaxlit organizmni, murakkab mexanizmni tashkil etadi. Bu organizmda o'lab g'oyaviy-badiiy unsurlar joylashgan bo'ladi. Bular mavzu, g'oya, obraz, syujet, kompozitsiya, til, xarakter, konflikt, janri, metodi, uslubi va h.k.lardir. Ularning birontasisiz badiiy asarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu adabiy unsurlar badiiy asar to'qimasida o'z o'mida bo'lishi shart. Bu unsurlarni shartli ravishda mazmun va shaklga daxldor deb ajratish mumkin. Siz bunday tasnifni "Adabiyotshunoslikka kirish" fanidan o'rganib olarsiz. Bizning vazifamiz ularga munosabat bildirish emas, balki hozirgi adabiy jarayondagi she'riyatning shaklidagi yangiliklar, o'zgarishlar, shaklning mazmunni ifodalashdagi o'rni, mutanosibligi yoki nomutanosibligini aniqlashdan iboratdir.

Odatda, tuzumning o'zgarishi, jamiyatning evrilishi, yashash tarzining yangilanishi badiiylik mezonlarining ham o'zgarishi va yangilanishiga, obrazlar, g'oyalar, mavzularning ifodalanishida o'zgacha shakllarning paydo bo'lishiga olib keladi. Chunki adabiy jarayon po'rtanavor hodisalarni yangicha shaklda namoyon etishga ishqiboz bo'ladi. Bu, ayniqsa, she'riyatda ochiq ko'rinadi. Adabiyotga kirib kelgan yoshlar faollikni qo'lga oladi. Ular keksa avlodning ijodiy yo'lini "eskirgan" sanab, yangicha yo'l izlay boshlaydi.

XX asrning 30-yillarida shunday hodisa yuz bergandi. Yangi sovet tuzumining sotsialistik qurilishlarini yangicha shaklda kuylashga ishqiboz shoirlar yetishib chiqdi. Ularni keyinchalik “futuristlar”, “simvolistlar”, “formalistlar”, “naturalistlar” degan turli nomlar bilan ataldi. Ular mazmundan shaklni ustun qo‘ydilar. Shaklbozlikka berilgan shoirlardan biri Sh.Sulaymon sotsialistik tuzumning “gigant qurilishlari”ni (*aslida yo‘q edi!*) ifodalash uchun turli-tuman simvollarga murojaat qiladi:

Tog‘lar-la, toshlar-la,  
Hey, tog‘lar-la, tosh-la.  
Baqirdi,  
Hayqirdi,  
Hayqirdi bir ovoz.  
Saf rost.  
- To‘plan!  
Hayqirdi, baqirdi,  
Baqirdi millionlar.  
- Tayyor, chog‘lan!  
Shior, kun shior:  
Kurash, o‘zish,  
Elektr, radio,  
Dobrolyut... ximiya, flot,  
San’at, texnika, o‘t...

Ko‘rinib turibdiki, shoir bu she’rida mazmundan ham, shakldan ham uzoqlashadi, keraksiz, tuturiqsiz so‘zlarni qo‘llaydi. Mantiqiy jihatdan bir-biriga bog‘lanmagan “Elektr, radio, dobrolyut (?)”, ximiya, flot, san’at, texnika, o‘t” kabi atamalarni qalashtirib tashlaydi. Umuman, shoirning nima demoqchi ekanini bilib bo‘lmaydi. Shunisi borki, Sh.Sulaymon goh “sarbast”, goh “erkin”, goh “sochma she’r” nomlari ostida e’lon qilgan she’rlarida ham shaklbozlikdan qutilmadi.

Adabiy hayotda yangicha shakl qo‘llab, davrga jo‘rovoz bo‘lishni istagan shoirlardan yana biri Umarjon Ismoilov edi. Bu shoir ham o‘z fikrini ifodalashda shaklbozlikka berilib ketadi,

futuristik (*lot. kelajak*), simvolistik elementlarni ishlataladi. She'rlarida ishlab chiqarish ohanglarini berish uchun ritmni buzadi, sun'iy so'zlarni qo'llaydi. Masalan, "Turksib ashulasi" she'rini "parovoz g'ildiragi ohangida o'qish"ni maslahat beradi va shunday satrlar yaratadi:

O'rtoq, a-a-a—arsh!	Ijtimoiy
Yo'l-lar-ni - och,	Hayot uchun
Tur – mush – lar soch	paxta elitar.
Turk – turk, sib – sib,	Ur – r – rug' tikkil,
Omoch og'ir, so'qa – so'qir,	Qo'ling yengil.
Tr – r – raktorga	Tuk-tuk, tik-tik,
Dehqon o'tir!	Tuk-tuk, tik-tik.

Albatta, bu shaklbozlik uzoq davom etmadidi. Biroq bu misollar davrdagi o'zgarishlar shakllarning turlicha ko'rinishini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi degan fikrni isbotlaydi. O'tgan asrning 80-90-yillariga kelib, o'zbek adabiyotida ham shakl borasida yangilanishlar, turli eksperimentlar vujudga kela boshladidi. Ijodkorlar o'rtasida tabaqalanish yuz berdi. Zimdan hayot va adabiyotga munosabat did hamda saviya va estetik qarashlararo kurash va ziddiyatlar kuchaydi. Hatto yozuvchilar uyushmasi ikkiga ajralib, alohida faoliyat yurita boshladidi. Buning oqibatida nafaqat keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida, balki tengqurlar o'rtasida ham munosabat noziklashdi. Bu she'riyatning shakli va mazmunining o'zgarishga ham jiddiy ta'sir qildi. Mazmun va g'oyani ifodalashda yangilikka erishishga intilayotgan ijodkor turli qiyinchiliklarga uchraydi. Uni yengib chiqish uchun turli usullarga qo'l uradi, yutoqib yangicha shakl izlay boshlaydi.

Istiqlol davri adabiyotining ilk bosqichida xususiy matbuot va nashriyotlarning paydo bo'lishi va umuman, jamiyatda, fikrlashda oshkoraliq, erkinlik turli darajadagi past-balans, qing'ir-qiyshiq, ko'pincha, o'ta sayoz asarlar oqimining paydo bo'lishiga olib keldi. Ba'zi qalamkashlar to'g'ridan to'g'ri G'arb adabiyotiga taqlid qila boshladilar. Taqlidchilik esa ijodkorni hech qachon ro'yobga chiqarmaydi. Davrning o'zi shoirlardan yangi

she'riy shakllarmi talab qila boshladi. Bu talabga birinchi bo'lib E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, O.Matjon, O.Muxtor, A.Obidjon kabi shoirlar javob berdilar. Masalan, insonning hijron va vafo sog'inchini bosiq ohanglarda kuylashga moslashgan g'azal janri E.Vohidov uchun zamonning o'ta siyosiy, isyonkor masalalarini keskin publitsistik ohangda bayon etishga xizmat qildi. Yoki A.Oripovning chuqr dard bilan sug'orilgan she'rлari istiqlol mazmunining kuchi bilan bir qadar qisqa va keskin shaklga kirdi. O.Matjon yurt ozodligi, xalq tafakkuridagi to'lg'oqlarni ifodalash uchun "Xamsa" shakllariga murojaat qildi. A.Obidjon esa she'riyatda mazmun va shaklning mutanosibligini o'zining usta Gulmat tilidan aytilgan g'azallari, bir satrdangina iborat "ignabarg she'rлar", ikki misradan tashkil topgan "fard"lar (*raqamlar bilan belgilangan*) shaklida bayon qildi. Siz uning ijodini amaliy mashg'ulotda o'rganganingizda ixcham shakllarda kuchli kinoya orqali zamon illatlari fosh etilganiga, ya'ni mazmunning kichkina xumga solingan oltin singari yarqirab turishiga e'tibor bering. Shoир juda katta ijtimoiy mazmunni "ignabarg she'rлar"ida bir satrga, "fardlar"ida ikki misraga, "Uch chanoqlar"ida uch qatorga sig'dira olishning ustidan muvaffaqiyatli chiqa oldi. Ularni o'qigan o'quvchi chuqr o'yga toladi, fikrlaydi, xulosa chiqaradi. Buning uchun uning o'zi ham katta bilim zahirasiga ega bo'lishi talab etiladi. Masalan, mana bu satrlarni sharhlang-chi:

Qarmoq solsam, kulfat ilindi.

\* \* \*

Uxlasa, sal halol yashaydi.

\* \* \*

Yolg'on tarix shol qildi meni.

\* \* \*

Qarz olsang, soqovdan ol.

\* \* \*

Itni itga tishlatib, vaqtি chog'dir itboqar,  
Bo'ldi majruh ikki it, o'zi sog'dir itboqar

\* \* \*

Kirib olding xonamga,  
Hech bo'lmasa bolamga  
So'yla mening tilimda

\* \* \*

Ochsam tarix kitobin,  
Xo'jayin cho'zib oltin,  
Der: "Qilsang-chi maishat!"

Bu ixcham shakllarda bayon etilgan mazmunni izohlash, tushuntirish uchun qancha vaqt, necha qog'oz kerak. A.Obidjonning shakl va mazmun borasida o'tkazayotgan eksperimentlari g'oyat muvaffaqiyatli chiqayotganini, A.Qodiriy aytganidek: "So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht" bo'lishiga erishayotganini, "so'z so'yash va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha"ga rioya qilayotganini ta'kidlash o'rinnlidir.

Farida Afro'z, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Shermurod Subxon, Abduvali Qutbiddin kabi shoirlar ham yangi shakllar izlash, unga mutanosib ma'noni sig'dira olish borasida jiddiy izlanishlar olib borayotirlar. Masalan, F.Afro'z ham ko'plab uch misralik she'rlar yaratdi va ularni o'quvchisiga "tasbehlar" deb taqdim etdi. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev esa shoira F.Afro'z tasbeh janriga asos soldi deb aytdi. Shu olim A.Suyunning "Ey do'st!" turkumidagi besh misralik she'rlarini "qayirma" janri deb e'lon qildi. Bu shakllarning ildizlari o'zimizning ko'hna Sharq adabiyotida ham mavjudligini inobatga olsak, ularga alohida janr deb baho berish ortiqchaligi sezilib qoladi.

Shakl borasida ko'pdan beri turli eksperimentlar o'tkazayotgan shoirlardan biri Faxriyordir. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev aytganidek: "Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham unchalik oson emas" ("Yoniq so'z", T., "Yangi asr avlodi", 2006). Chunki u o'z tafakkurida paydo bo'lgan o'y, narsa va hodisalarni, his-tuyg'ularni turli shakllarda ifodalashga urinadi. Shoир birinchi galda boy o'zbek tilidagi so'z shakllariga ("Suygulim, suy, gulim, suygu lim" kabi), geometrik formulalarga e'tibor beradi, she'rda aytmoqchi bo'lgan mazmunni

chizma shakllar vositasida ifodalaydi. Uning shakl borasidagi izlanishlariga sinchiklab qaralsa, mumtoz Sharq she'riyatidagi harflar san'ati ("jonim" "dagi" "jim" ...), G'arb adabiyotidagi kalligrafiya san'ati, grafik usul, kubizm yo'nalishi ta'sir etganligini anglash qiyin emas. Siz amaliy mashg'ulotlarda shu san'atlar bilan bog'lab tahlil qilsangiz, shaklning mazmunni ifodalashdagi o'rni va rolini ochgan bo'lasiz.

Xullas, otashnafas shoir Cho'lpion ustozи Fitratga bag'ishlangan she'rida "Sen so'zga ipakdan ko'yaklar kiygazding" deb yozganida shoir she'rlarining mazmuni shakliga nihoyatda mos kelishiga urg'u bergandi. Binobarin, har qanday fikr, mazmun o'zining go'zal shakliga muhtojdir. Shundagina u o'quvchi qalbidan munosib o'rin oladi va uzoq yashaydi.

### Nazorat savollari

1. Shakl va mazmun haqida ma'lumot bering.
2. Shakl elementlarini aniqlang.
3. Mazmun elementlarini aniqlang.
4. Shaklbozlikka berilishning oqibati baxayrmi?
5. She'riyatda futurizm, simvolizm, xattotlik san'ati, geografik figuralar haqidagi tushunchangiz?
6. Hozirgi she'riyatdagi mavjud shakllar va ularning mazmunga mutanosibligi haqida gapiring.

## **MAVZU: HOZIRGI DOSTONLARDА TARIX VA ZAMON MASALASI**

### **Adabiyotlar**

1. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. T.: “Fan”, 1992.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T.: “Fan”, 1978-1979.
3. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: “O’qituvchi”, 2004.
4. T.Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. T.: “O’zbekiston”, 2000.
5. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. Adabiyotshunoslik lug’ati. T.: “Akademnashr”, 2010.
6. Y.Solijonov. Zulmatdan nur qidirganlar. O’quv qo’llanma. T.: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

### **Reja:**

1. Liro-epik tur haqida ma’lumot.
2. Liro-epik tur janrlari va ular strukturasidagi o’zgarishlar.
3. Zamonaviy va tarixiy mavzudagi dostonlar.
4. She’riy romanlar haqida.

Liro-epik tur atamasi Aristotel “Poetikasi”sida ham, V.G. Belinskiy asarlarida ham alohida adabiy tur sifatida tilga olinmagan. Tabiiyki, ulardan so’ng yaratilgan barcha manbalarda ham bu tur hisobga olinmaydi. Uch adabiy turning epos deb nomlangan turida hikoya, qissa va romanlar qatorida doston (poema) janri ham tilga olinadi. Masalan, sizga tavsiya etilgan ilmiy adabiyotlarning barchasida shunday tasnifga duch kelasiz. U holda nega biz to’rtinchi adabiy tur sifatida liro-epik asarlarni kirityapmiz?

Ma’lumki, har bir adabiy tur o’z shakli-shamoyiliga ega: lirika-she’riy, epos-nasr, drama esa – harakat va dialog asosida dunyoga keladi. Ham she’riy, ham nasriy yozilgan, ba’zan

dialoglar ham aralashib qoladigan asarlar qaysi turga kiradi? Bu masala ko‘p asrlar davomida adabiyotshunoslarni o‘ylantirib kelayotgan bo‘lsa-da, hech kim uni ko‘tarib hal qilishga jur’at etmadni. Hatto professor B.Sarimsoqov “To‘rtinchı adabiy tur” sifatida liro-epik asarlarni emas, paremiya turini taklif qiladi (*qarang: B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: 2004*). Garchi adabiy turlar qatorida liro-epik tur nomi ishlatilmasa ham ayrim darsliklar, qo‘llanmalar, monografiya va tadqiqotlarda bu atama ishlatib kelinadi. Biz badiiy adabiyot taraqqiyotini, undagi sifat o‘zgarishlarni, janrlar mohiyati va strukturasini inobatga olib, liro-epik turni alohida ro‘yxatga olishni, uni janrlar asosida tasnif etishni va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishni lozim topdik. Adabiyot tarixidan yaxshi xabardor mutaxassislar uchun liro-epik tur bor va u yashaydi. Demak, liro-epik tur o‘z qurilishi va tasvirlash obyektiga ko‘ra boshqa guruhga xos asarlardan farq qiladi. Bu turga oid asarlar voqelikka asoslangan bo‘lib, lirik chekinishlar bilan bayon qilinadi. Liro-epik turga quyidagi janrlarni kiritish mumkin:

1. Masal.
2. Ballada.
3. Doston (poema).
4. She’riy roman.

Adabiyotshunos D.Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida kichik epik shakllar sifatida latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse kabilarni ham ro‘yxatga oladi. Albatta, ularni shartli tarzda qabul qilish mumkin. Aslida latifa, afsona, ertaklar - folklor, hikoyat, rivoyat, badia, ocherklar epik turga mansubdir. Esse esa adabiy tanqidchilik janri sifatida tan olingan. Bularni olimning o‘zi ham tan oladi va shartli ravishda “ularni turdan tashqari formalar deb tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi”, — deydi. Shunday qilib, liro-epik tur janrlari sifatida yuqoridaagi 4 xil asoslarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Masal o‘zbek adabiyotidagi eng qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biridir. Uning ilk namunalari A.Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan o‘rin olgan “Sher-u Durroj”, “Kabutar”,

“Yolg‘onchi”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi “Toshbaqa bilan Chayon”, “Maymun bilan Najjor”, “Tuya bilan Bo‘taloq” kabilardir. Bu janrlarga xos asarlar undan ham oldinroq Yunon adipi Ezop tomonidan hamda “Kalila va Dimna”, “Qobusnomá” kabi yodgorliklarda yaratilgan. Xo‘sh, masal nima? U qanday xususiyatlarga ega? A.Zunnunov va N.Hotamovning o‘rta umumta’lim maktablari uchun chiqarilgan “Adabiyot nazariyasi” nomli qo’llanmada masal haqida quyidagicha yozilgan: “Masal liro-epik asarlarga (?) mansub janrlardan biri bo‘lib, asosan she’riy shakldagi, majoziy xarakterga ega qisqa syujetli asardir. Masallarning tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat katta bo‘lib, inson xarakteriga xos xususiyatlar hayvonlar, o‘simpliklarga ko‘chiriladi”. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinovlarning “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” (1979) nomli kitobida “Masal arabcha so‘z bo‘lib, o‘rnak, maqol, hikoyat ma’nolarini bildiradi. Masalda turmush va undagi voqelar, insonlar hayoti kinoyaviy obrazlar orqali tasvir etiladi. Unda aksar hollarda hayvonlar, qushlar, ba’zan esa narsa-predmetlar obrazi yaratiladi” deb ta’rif berilgan. “O‘ZME”da masal haqida shunday yozilgan: “Masal (arab. namuna, misol) – didaktik adabiyot (?) janri. Ta’limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag‘ishlaydi(5-j., -B.498). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ega quyidagicha qisqa izoh beriladi: “Masal (a. namuna, andoza, o‘xhashlik, ramziy hikoya). 1. Kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya” (2-j., -B. 549.).

Bu ta’rif-u izohlarga qo’shimcha va aniqlik kiritib, ularni tartibga solamiz-da, masalga quyidagicha ta’rif beramiz: “*Masal liro-epik turning faol va ko‘hna janrlaridan biri bo‘lib, bunday asarlarda ikki yoki undan ziyod perosnaj ishtirok etadi (ularning biri-muallif).* Asar bayoni kinoyaga asoslanadi. Sirtdan

*qaraganda bayon etilayotgan hodisa uch qismdan tashkil topgandek (kirish, asosiy voqe va xulosa) tuyulsa ham, syujeti bir tugun asosida rivojlanadi va yechim topadi. Masaldagi personajlar majoziy xarakterga ega bo‘ladi”.*

Masal XX asr o‘zbek adabiyotida shoir, dramaturg, ma’rifatparvar olim A.Avloniy tomonidan yangilandi va rivojlantirildi. Adib dastlab rus masalnavisi I.A.Krilov asarlarini tarjima qildi va o‘zining “Maktab guliston” nomli asarida e’lon qildi. O‘zi ham ko‘plab ibratli masallar yaratdi (*bu haqda qarang: Y.Solijonov. Zulmatdan nur qidirganlar. O’quv qo’llanma. T.: 2007. 24-30-b.*)

Liro-epik tur janrlaridan yana biri G‘arbiy Yevropadan kirib kelgan balladadir. Bu atama fransuzcha-lotincha so‘z birikmasidan tuzilgan bo‘lib, *bal va oda, ya’ni bazmda aytilgan qo’shiq, raqs tushmoq* degan ma’nolarni anglatadi. Ballada dramatik, tragik, qahramonona voqeа-hodisalarni romantik metod asosida, ko‘tarniki uslubda aks ettiruvchi poetik janrdir. Uning ilk namunalari Fransiyada yaratilgan. XIV-XV asrlarda fransuz klassik she’riyatida 28 misradan tashkil topgan lirik she’rlar ballada deb atalgan. Balladaning struktural qurilishi qat’iy qoidalarga bo‘ysunadi. Ballada to‘rt bandga bo‘linadi. Uning uch bandi 8 misradan (24 misra), oxirgi bandi 4 misradan iborat bo‘lishi shart. Ana shu 4 misralik oxirgi band “bag‘ishlov” deb ataladi. Birinchi bandning so‘nggi misrasi qolgan hamma bandlarda takrorlanishi shart. Balladaning dastlabki uch bandi a-b-a-b= b-s-b-s; “bag‘ishlov” bandi esa b-s-b-s tarzida qofiyalangan.

Ballada o‘zbek adabiyotiga XX asrning 20-30-yillarida kirib keldi va jiddiy struktural islohotlar (o‘zgarishlar)ni boshidan kechiradi. Avvalo, o‘zbek adabiyotida ballada hajman kengaydi. Bundan tashqari XX asrning 30-40-yillarida ballada ko‘proq qahramonona voqealarni tasvirlashga bag‘ishlangan (*H.Olimjonning “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari”, M.Shayxzodaning “Muhammad to‘pchi” kabi*) bo‘lsa, 80-90-yillar va mustaqillik davri adabiyotida mazmunan ham o‘zgarib ketdi. Masalan, U.Azim, X.Davron, M.Yusuf, E.Shukur, T.Jo‘ra kabi

shoirlar “ballada” deb taqdim etgan asarlar yuqoridagi talablarning birontasiga javob bermaydi. Janr sifatida faqat nomi qoldi xolos. Liro-epik turning eng yirik janri doston (poema)dir. Bunday asarlarda bayon qilinayotgan voqeа lirk qahramon munosabati orqali ifodalanadi. Chunki doston mazmuni asosida lirk yo‘nalishda yoritilgan syujet yotadi. Syujet elementlarini qay tarzda joylashtirish, ya’ni asar shaklini loyihalashtirish muallif mahoratiga bog‘liqidir. Istiqlol yillarida yaratilayotgan dostonlar o‘zining shakli-shamoyili bilan ham, mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lmoqda. Bu davr dostonchiligidagi inson qalbini chuqurroq tadqiq etish, lirk kechinmalar ko‘lamini kengaytirishga e’tibor kuchaydi. Ularda voqelik qamrovi kengaydi, zamonaviy ruh kuchaydi, mazmun va shakl birligi yanada mustahkamlandi. Lirk qahramonning tafakkur olamidagi evrilishlar mukammalroq ifodalana boshladи. Siz doston janrining tarixi, uning o‘ziga xos janr xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari to‘g‘risida yuqori kurslarda saboq olasiz. Biz esa hozirgi adabiy jarayondagi dostonlarning fazilatlari, ulardagi ayrim yetishmovchiliklar xususida to‘xtalaylik.

Keyingi yillarda adabiy hayotda yuz bergen ijobiy o‘zgarishlar, xususan, tarixiy mavzuga munosabatning yangilanishi doston janriga ham xosdir. Xalqimiz tarixidagi oq dog‘larni yo‘qotish, qora dog‘larni yuvish niyatida ko‘pchilik ijodkorlar o‘tmishda muhim o‘rin tutgan, ammo adabiyot sahifalariga kirolmagan tarixiy siymolar haqida dostonlar yaratishga kirishdilar. Bu yillarda, ayniqsa, Amir Temur va temuriyzodalar faoliyati mavzusi dostonlarda ko‘p ishlandi. Mavzuning qahramonona mohiyatini inobatga olgan holda dramatik doston shaklida yaratilishi bu janrning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. A.Oripovning “Sohibqiron” dramatik dostoni, M.Jalilning “Sohibqiron”, A.Suyunning “Sarbadorlar”, U.Azimning “Xalil Sulton” dostonlari, Sohibqiron bobomizning o‘zbek o‘quvchisiga ma’lum bo‘lмаган qirralari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Shuningdek, Sh.Qurbanoning “Temur Malik”, “So‘z yo‘li” (Navoiy haqida), M.Yusufning “Ko‘hna quduq”,

“Qora quyosh”, E.Samandarning “Ajdodlar qilichi” (J.Manguberdi haqida) singari dostonlari ham ulug’ ajdodlarimizning hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan.

Zamonaviy mavzuda ham ko’plab dostonlar dunyoga keldi. Bunday mavzudagi dostonlar ruhiga istiqlol g’oyasi singdirilganligi, chuqr milliylik bilan sug’orilgani ahamiyatlidir. A.Suyunning “Imorat”, “O’zbekiston”, I.Otamurodning “Uzoqlashayotgan og’riq”, “Tag’azzul”, “Yobondagi yolg’iz daraxt”, Sh.Qurbonning “Ukajonlar, singiljonlarim”, “Bir qalb manzarasi”, T.Sulaymonning “Ergash Jumanbulbul el kezadi”, T.Nizomning “Cho’lpon”, “Oq gul”, “Xumo”, O.Muxtorning “Buyuk bir muhabbat”, T.Ahmadning “Fig’on” nomli dostonlari shular jumlasidandir. Agar A.Suyun bilan T.Sulaymonning dostonlari baxshiyona usulda yozilgani bilan ajralib tursa, O.Muxtor asari teran publitsistik ruhning kuchliligi bilan e’tiborni tortadi. To’g’ri, bu dostonlar orasida hali yuksak badiiylik darajasiga ko’tarilmagan, shakl nochorligi tufayli mazmunning mukammal ifoda etilmaganligi, qahramonlarning ruhiy kechinmalari to’laroq ochilmaganlari ham uchraydi. Shuningdek, tarixiy mavzuda yozilgan dostonlarda nedurki, mustaqillik bizga tariximizni yoritish imkonini berdi degan fikr bilan haqiqatdan chekinish, tarixiy shaxslar obrazini ideallashtirishga urinish hollari uchraydi. Bular, shubhasiz, dostonchilik taraqqiyotining takomiliga ma’lum darajada putur yetkazadi.

Liro-epik turning hajman eng katta, shaklan rang-barang, mazmunan boy janri she’riy romandir. She’riy roman dostonga nisbatan kamhosil, ammo strukturasi jihatdan ildizi chuqr. Garchi she’riy roman atamasi bizga G’arbiy Yevropa va rus adabiyoti orqali (A.S.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari) kirib kelgan bo’lsa-da, she’riy roman talablariga javob beradigan asarlar X-XI asrlardayoq dunyoga kelgan. Firdavsiyning “Shohnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hiybat ul-haqoyiq” singari fanda doston sifatida qabul qilingan asarlar katta ijtimoiy-ma’rifiy voqelikka asoslanganligi, personajlarga boyligi, syujet qurilishining

murakkabligi bilan she'riy roman deyishga arziydi. A.Navoiy "Xamsa"si esa to'la ma'noda she'riy roman bo'la oladi. Chunki u yuqorida tilga olingan asarlarga nisbatan ham voqelikka asoslanganligi, nazm va nasrning qorishiqligi, har bir bo'lim va bobda alohida shaxs hayotiga oid voqeanning bayon etilishi, personajlarning xarakter darajasiga ko'tarilishi, lirik chekinishlarga boyligi bilan alohida ahamiyatga egadir.O'zbek adabiyotida she'riy roman nomi bilan e'lon qilingan birinchi asar Mirmuhsinning "Ziyod va Adiba"sidir (1959). 70-yillarga kelib H.Sharipovning "Bir savol", M.Alining "Boqiy dunyo", S.Akbariyning "Ko'kan bobo" kabi she'riy romanlari dunyoga keldi. She'riy roman yaratishda shoir B.Boyqobilov hammadan o'zib ketdi. U mustaqillikning dastlabki 10-yilligida dastlab "Navoiynoma", keyinroq "Yangi Xamsa" degan nom ostida 5 ta ("Notinch Xuroson", "Shukuhli karvon", "Sokin Xuroson", "Qonli Xuroson", "Hayrat ul-Ahror"), "Debocha" va "Xotima"dan tashqari 7 fasldan tashkil topgan "O'zbeknoma" (844 bet) "she'riy roman"larini taqdim etdi. Olimjon Bo'rievning "Amir Temur" deb atalgan she'riy romani yaratildi. Ammo ular adabiy jamoatchilik tomonidan chin ma'nodagi she'riy roman sifatida tan olinmadni. Mustaqillik yillarda dunyoga kelgan eng yangi she'riy roman O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizom qalamiga mansub "So'zga aylangan qilich" nomli asardir (T.: "Mumtoz so'z", 2015). U ham shoh, ham ijodkor, "Jahonnoma" dostoni, "Tarixi Rashidiy" nomli memuar asar muallifi Haydar Muhammad Mirzoga (1499-1551) bag'ishlangan. Roman asosida "Tarixi Rashidiy" asarida bayon qilingan voqealar yotadi. Muallif bu asarni juda chuqur o'rgangan, unda ilgari surilgan g'oyani she'riy roman markaziga olib chiqqa olgan. Romanga Haydar Muhammad Mirzoning "O'tkir qilich chopar yuzta askarni, So'z esa yengadi butun lashkarni" satrlari epigraf qilib olingan. Bu misralar "Tarixi Rashidiy" asarining 5-faslida "O'tkir qilich chopar yuzta askarni, Aqling yenga olur butun lashkarni" (67-b.), V.Rahmonov bilan Ya.Egamovaning so'zboshisida "Bitta o'tkir qilich yuz bosh kessa gar, Bitta o'tkir fikr – lashkarni yengar"

tarzida uch xil berilgan. Shunga qaramay, bu satrlar she'riy romanning mazmun-mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Asar ko'proq barmoq vaznining 7,9,11 bo'g'inlari asosida yozilgan. Romanda Bobur, Muhammad Husayn, Shayboniyxon kabi tarixiy shaxsalar, zamondoshimiz, Bobur xalqaro ekspeditsiyasining rahbari Zokirjon Mashrabov, ekspeditsiya a'zolari bilan birga Qoplon,Rashid,Gulruxsor,Omonniso singari to'qima obrazlar ham uchraydi va bu she'riy roman voqealarining kengayishini ta'minlaydi. She'riy romanga xos xususiyatlardan yana biri epik qatlamning chuqurligi, zamon va makon ko'laming kengligidir. Shoir tez-tez lirik chekinishlar qilib, ro'y bergan voqeahodisalarga, xususan, Z.Mashrabovning faoliyatiga munosabat bildiradigan lirik chekinishlar qiladi. Shu bilan birga kezi kelganda aruz vaznidagi g'azallar, ruboilar, muxammaslar ham uchraydi. Unda nasriy bayonga ham keng o'rinn berilganki, bu she'riy roman janrining muhim talablaridan biridir. She'riy roman "Bolalik", "Andijonda", "Qashqarda", "Borsa qaytmas yo'l", "Kashmir qo'shig'i" nomli qismlardan iborat. Ular boblarga ajratilgan. Roman "Bas, o'quvchim, ayladik sayr, Haydar bilan qadamma-qadam.Yo'l tugadi,hozircha xayr, Salomat bo'l, ey yaxshi odam!" degan ehtirosli misralari bilan tugaydi.

Xullas, liro-epik yo'naliш adabiy tur sifatida yashamoqda va yuqoridagi tilga olingan janrlar ozmi-ko'pmi dunyoga kelib, adabiyot xazinamizni boyitmoqda.

### Nazorat savollari

- 1.Liro-epik tur mavjudmi? Turning o'ziga xosligini ayting.
- 2.Turning janrlarini sanang va masal haqida ma'lumot bering.
- 3.Ballada nima? O'zbek adabiyotida qanday o'rinn tutadi?
- 4.Doston janri haqida gapiring.
- 5.Tarixiy mavzudagi dostonlarni ayting.
- 6.Zamonaviy mavzudagi romanlar.
- 7.She'riy roman qanday bo'ladi?
- 8.T.Nizomning "So'zga aylangan qilich" she'riy romani haqida gapiring.

## **MAVZU: HOZIRGI EPIK TUR VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

1. Epik tur haqida ma'lumot. Uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek adabiyotida epik tur takomili.
3. Hozirgi o'zbek nasriga G'arb adabiyotiga xos xususiyatlarning kirib kelishi va ularning ahamiyati.

### **Adabiyotlar**

- 1.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6, 9, 10, 11-t. T.: 2002-2006.
- 2.A.Timofeev, N.Vengrov. Kratkiy slovar lit-vedcheskix terminov. M.: "Uchitel", 1963.
- 3.N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1979.
4. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T.: "Fan", 1978-1979.
5. I.Sultonov. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: "O'qituvchi", 1981, 1986, 2005.
- 6.T.Boboev. adabiyotshunoslik asoslari. T.: "O'zbekiston", 2002.
7. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: "Fan", 2007.
8. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T.: "Yangi asr avlodii", 2004.
9. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T.: A.Navoiy nomli O'MK, 2009.
- 10.D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: 2010.

Adabiyot hayot ko'zgusi, hayot darsligi deyiladi. Chunki u kishilik jamiyati hayotida ro'y bergen kattami-kichikmi, har

qanday o‘zgarish va evrilishlarning aks-sadosi tarzida namoyon bo‘ladi, ularni badiiy asarlarida aks ettiradi. Hatto adabiyot o‘z g‘oyalari, mavzusi, yaratgan qahramonlari, badiiy tasvir yo‘nalishi bilan o‘sha o‘zgarish va evrilishlarni (hatto inqilobiy tarzda) tayyorlashda bevosita qatnashadi ham. Buning uchun biz XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti namoyondalari ilgari surgan ma‘rifatparvarlik, istiqlol g‘oyalari bilan 20-30-yillardagi sho‘ro adabiyoti vakillarining asarlarida ifodalangan sotsiologik kurashlar, haybarakallachilik, sovet hukumatiga sadoqat g‘oyalarini taqqoslab ko‘raylik. Yoki II jahon urushiga nafrat, Vatan tuyg‘usi... Dastlabki bosqichda omma jadid adabiyoti ta’sirida o‘z qadrini anglash, huquqini tanish va himoya qilishga kirishib, jasorat bilan milliy ozodlik qo‘zg‘oloniga otlangan bo‘lsa (1916 yil), keyingi yillarda yangi sotsialistik hayot ulug‘langan deklorativ asarlarini o‘qib, laqqa tushdi. Boshida qilich o‘ynatsa ham, dorga osib, qamoqqa olib, otib tashlasa ham lom-mim demadi. Urush davrida partianing quliga, xizmatkoriga aylangan adabiyotning “SSSR sening Vataning, uni himoya qil!” degan chaqirig‘iga “labbay” deb javob bergen xalqimiz million-million farzandlaridan judo bo‘ldi va bu bilan faxrlandi. Bu adabiyot, so‘z san’atining kuchli ta’sir vositasi ekanligini isbotlaydi.

O‘tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab, adabiyotda yana xalqni uyg‘otish istagi paydo bo‘ldi. Bu vazifani ado etishda epik tur ham lirik tur bilan yonma-yon va qadam-baqadam hamkorlik qildi. Xo‘s, epik turning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Bizga ma’lum ilmiy manbalarning barchasida “Epos” nomi bilan tilga olingan epik tur keng ma’noda – “voqeband badiiy asar, badiiy adabiyotning hikoyaviy bir turi”; tor ma’noda – “xalq eposi, og‘zaki yaratilgan va xalqning qahramonona o‘tmishini, orzu-umidlarini ifodalovchi katta epik asarlar” deb ta’riflanadi (*N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. T.: “O‘qituvchi”. 1979.-B.356-357*). “Eposning spesifikasi” haqida “Adabiyot nazariyasi” kitobining II tomida shunday deyiladi: “Tom ma’nodagi eposning

(yoki epik asarning) mazmun va shaklini davrning umumiyligi dunyoqarashi va xalq ruhining obyektiv holati tashkil etadi” (192). “Adabiy turlar va janrlar” kitobining 1-jildida “Epos markazida voqeа turadi; eposda voqeа (inson emas) hukmronlik qiladi. Voqeа, tarix, muhit, obyektiv sharoit insondan ustun bo‘lib, u jamiyatning taqdirini belgilab beradi. Mazkur voqealar silsilasiga urushlar, qo‘zg‘olonlar, inqiloblar, hayot va tarixning turli-tuman kichik va ulkan faktlari hamda hodisalari kiradi” deb yozilgan (8).

Chindan ham epik asar, avvalo, voqelikning obyektiv aks etishidir. V.G.Belinskiy ham epik turning bu bosh xususiyatini alohida ta’kidlaydi: “posda voqeа-qahramon-voqeadir”. Epik asarda ijodkor oddiy hikoyachi sifatida voqelik ortiga yashirinadi. Ammo bu epik asarda badiiy kechinma bo‘lmaydi degani emas. Professor B.Sarimsoqov aytganidek: “Agar lirikada shaxs va uning his-tuyg‘ularidan voqelikka qarab borilsa, (*ya’ni she’rda his-tuyg‘u ustivor bo’lsa* – Y.S.), eposda voqelikdan shaxsga qarab boriladi” (*B.Sarimsoqov. Badiylik asoslari va mezonlari. T.: - B.81*)

Eposda voqelik ustivor bo‘lar ekan, unda voqealar tizimi turli ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Buni syujet deyiladi (lirikada esa syujet mavjud emas). Siz syujetning ta’rifini, uning turlari, tarkibi va elementlarini “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasii” fanidan o‘rganasiz, o‘qib olasiz. Ana shu voqealar tizimi, ya’ni syujet va ularning muayyan tartibda o‘zaro bog‘lanishi kompozitsiya deb nomlanadi. (*lirikada kompozitsiya fikr tartibiga asoslanadi*). Voqealar tanlanib, ularni muayyan tartibda va izchillikda berish uchun qahramonlar kiritiladi. Epik asarda lirikadan farqli o‘laroq, personajlar ko‘pchilikni tashkil etishi mumkin. Ular ishtirok etishi, muallifning g‘oyaviy niyatini ifodalashiga ko‘ra 3 toifaga bo‘linadi: 1. Bosh qahramonlar. 2. Asosiy qahramonlar. 3. Epizodik qahramonlar. Bosh va asosiy obrazlar xarakter darajasiga ko‘tarilishi talab etiladi. Asar qahramonlari voqealar tizimini harakatga keltiradi va dinamikasini ta’minlaydi.

Epik asar voqealari va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'zaro to'qnashuv – konflikt asosida rivojlanadi. Konflikt badiiy asarda motor vazifasini bajaradi. Personajlar harakati va faoliyati ma'lum zamon va makonda ro'y beradi. Bularning barchasi badiiy ijod uchun zaruriy shartlar hisoblanadi. Ushbu shartlar ta'minlangach, ijodning eng qiyin va og'ir bosqichi – bosh maqsadni aniqlash jarayoni boshlanadi. Yozuvchi ongini, qalbini chulg'ab olgan, uni bezovta qilgan g'oyani ifodalovchi barcha narsalami badiiy adabiyotning 1-elementi hisoblangan so'z orqali tasvirlab yoki ifodalab berish qoladi. Bu adibdan alohida mahorat talab qilinadigan jarayondir. "Mana shu jarayonlarning barchasida ijodkorga epik kechinma hamrohlik qiladi" deydi professor B.Sarimsoqov. Bu epik kechinma o'z tabiatiga ko'ra bir maromda, uzoq davom etadi (*lirkada shiddatli, tez, dramada harakatchan; bosqichma-bosqich*). Asarning boshidan oxirigacha davom etadigan bu uzlusiz jarayonni B.Sarimsoqov "sekin-asta portlashga olib boradigan minaga" o'xshatadi. Bu taqqosning to'g'riligini Z.Qurolboy qizining "Tafakkur", U.Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyalari misolida isbotlash mumkin.

Epos ham xuddi lirika singari o'zbek adabiyotida juda qadimdan boshlangan. Xalq og'zaki ijodidagi qahramonlik dostonlari, yozma adabiyotdagи "Shohnoma", "Xamsa" kabi asarlar garchi she'riy usulda yozilgan bo'lsa-da, xalq hayotining katta voqealarini qamrab olishi bilan xarakterlidir. XV-XVI asrdan boshlab nasriy bayon vujudga keldi. Epik turning ilk namunalarini N.Rabg'uziy, A.Navoiy, Poshsho Xoja, Bobur kabilar yaratdi. XX asr boshlariga kelib epik tur lirika bilan bema'lol musobaqa boshladi va asrning 2-yarmiga kelib ba'zi sohalarda undan o'zib ham ketdi.

Akademik I.Sulton yuqoridagi uch adabiy turning farqini yanada aniqroq tushunib olish uchun bir xil mavzu va materialda yozilgan uch xil asarni misol qilib keltiradi. Bularning biri M.Shayxzodaning "O'rtoq Navoiy" she'ri (*bu aslida ballada deb ataladi*), ikkinchisi Oybekning "Navoiy" romani, uchinchisi Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy" dramasidir. Shoир o'z

sherida A.Navoiy hayotining obektiv va keng manzarasini olmaydi, balki o'zining ulug' shoirga, uning atrofidagi kishilarga munosabatini aks ettiradi. Unda Navoiy yashagan davr va shoir taqdiri haqidagi o'ylar, his-hayajon va ko'tarinkilik ustun turadi. "Navoiy" romanida esa XV asr hayotining keng va obektiv tasviri beriladi. Unda yozuvchi Oybek Navoiy va uning atrofidagi kishilar hayoti, xarakterlari va turli taqdirlarni batatsil hikoya qiladi, zamon va makon, tabiat tasviriga keng o'rinn ajratiladi. Hirot va uning tevaragida ro'y berayotgan hodisalarini xuddi chetdan kuzatayotgandek tasvirlaydi. Ma'lumki, dramatik turda avtor qatnashmaydi, uning nutqi replika va remarkalar zimmasiga yuklatiladi. Shu tufayli bunday asarda ifodalanayotgan voqeа hamda kishilar xarakteri faqat ularning xatti-harakatlari va so'zlari orqali ifodalanadi. Bunday asar sahnada qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Bu uch asar hajmi va ba'zi tashqi alomatlari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Roman hajman katta asar, drama ham hajman romandan katta emas. Unda ro'y bergen voqealar ko'pi bilan uch soatga mo'ljallab yoziladi. She'r esa har ikkalasidan ham kichik bo'lib, vaznga solingandir. Bunday asarda his-tuyg'u va kechinmalar ustun holda ifodalanadi. Bu uch adabiy turda "vaqt hissi" (Gegel iborasi) ham boshqa-boshqadir. Lirik asarda "vaqt hissi" insonga xos his-tuyg'u qachon va qaysi davrda ro'y bergen voqelik asosiga qurilgan bo'lishidan qat'i nazar *hozirgina ro'y bergandek* ifodalanishi bilan ajralib turadi. Masalan, Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab", Oybekning "Namatak" sherlarini eslang. Epik turga xos bo'lgan asarda tasvirlangan hayot har doim *bo'lib o'tgan voqeadek hikoya qilinishi* bilan xarakterlanadi. Undagi bayon *o'tgan zamon feli* shaklida olib boriladi. Dramada esa tarixiy voqeа ham, zamonaviy voqeа ham ko'z oldimizda *xuddi hozir bo'lib o'tayotgandek* namoyon bo'ladi. Bu uning tamoshabin bilan sahna o'rtasidagi masofaga asoslanganligidir, aynan voqeani hozir ko'rib turganligimizdandir.

Epik asarlarda lirik va dramatik turga xos elementlardan ham unumli foydalaniladi. Epik turga xos badiiy asarlarning uchta

xususiyatini takidlash o'rinnlidir. Bular: a) tasvirning obektivligi; b) voqeabandlik; v) ko'lamlilik (bularning har biriga alohida tarif beriladi). Aslida adabiy tur tushunchasi xuddi "meva" degan singari mavhum va umumiy tushunchadir. Mevaning olma, o'rik, nok, behi, yong'oq, gilos, olcha singari konkret tushunchani anglatuvchi xillari bo'lgani kabi epik turning ham xilma-xil navlari uchraydi. Rus tilidagi "rod" so'zi o'zbek tiliga "tur", "xil", "jins" tarzida tarjima qilingan. Shuningdek, V.Belinskiyda "vid" so'zi ham uchraydi. Bu so'z o'zbek tiliga ko'proq "janr" deb o'girilgan. Biz epik turning janrlarini uch katta guruhga bo'lib o'rganishni lozim topdik. Bular: 1. Kichik epik asarlar. 2. O'rta epik asarlar. 3.Yirik epik asarlar. Keyingi darslarimizda ularning har birini janrlarga ajratgan holda ko'rib chiqamiz.

O'tgan asrning 90-yillardan keyingi 20 yillik taraqqiyot bosqichi o'zbek adabiyotidagi epik tur takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda, avvalo, epik tur janrlarning shakl va mazmunida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ikkinchidan, yangicha inson *kONSEPSIYASI* (*qarashlar, fikrlar sistemasi, anglash, fikr yuritish usuli; asosiy fikr*)ga munosabat shakllandi. Uchinchidan, mavzu doirasi kengaydi va yangilandi. To'rtinchidan, janrlarning sintezlanishi hodisasi ro'y berdi (hikoyada qissaga xos, romanda hikoyaga xos xususiyatlar). Beshinchidan, tarixga munosabat o'zgardi. Endi tarixiy voqelik yoki tarixiy shaxsni davr yoki masfkura talabiga ko'ra ifodalash barham topdi. Oltinchidan, o'zbek adabiyotiga emin-erkinlik bilan G'arb adabiyotiga oid xususiyatlar ong oqimi, absurd, ekzisensializm, modern yo'nalishlari kirib kela boshladи. O.Muxtor, M.M.Do'st, X.Do'stmuhammad, G'.Hotamov, O.Otaxonov, T.Rustam, N.Eshonqul, A.Yo'ldoshev, Z.Qurolboy qizi, S.Vafo kabi o'rta bo'g'in va yosh ijodkorlar avlodи yevropacha badiiy usullarni dadillik bilan olib kirdilar va epik turning ham shaklan, ham mazmunan yangilanishiga munosib hissa qo'shdilar. Biz bu adiblar asarlaridagi G'arb adabiyotiga xos fazilatlar, ularning qanday qabul qilinishi, mohiyati to'g'risida

epik turning alohida janrlari bo'yicha o'tadigan ma'ruzalarimizda to'xtalamiz.

Xo'sh, modernizm nima? U o'zbek adabiyotiga nima berdi? "Modern" so'zi "yangi", "modernizm" yangilanish nazariyasi degan ma'noni anglatadi. Modern tarafdoirlari Aristotel davridan buyon hukm surgan "taqlid" tushunchasiga, ya'ni san'atning vazifasi aks ettirmoq (in'ikos qonuni), taqlid qilmoq, yanayam soddarоq qilib aytsak, hayotdan, tabiatdan "nusxa" ko'chirmoq degan tushunchaga qarshi chiqdilar. Ularning niyati taqlid qilish emas, balki hayotni, tabiatni, unda umrguzaronlik qilayotgan insonni tadqiq etishdan iborat edi. Shu ma'noda modernizm oqimi o'tmish adabiyotida yaralgan an'analardan uzilib qolgan emas, ya'ni u "yo'q"dan bor bo'lmadi. Adabiyotning bosh obyekti inson ekan, uni zohiran emas, botinan ham tasvirlash tarafdoi bo'lib chiqdilar. Modern adabiyoti bo'yicha nazariyachi – adib (Norvegiya) Espen Xovardsxolmning yozishicha, modernchi san'atkorning vazifasi "obyektiv voqelikni ta'riflash yoki tavsiflash, aks ettirish(gina) emas, balki o'zining badiiy olamidan kelib chiqib, ana shu voqelik bilan munosabatga kirishmoq va shu tarzda sof sub'ektiv san'at asari yaratmoqdir" ("Jahon adabiyoti" jur, № 1, 2001).

Modern yozuvchilari voqelikni qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qotib qolgan va o'zgarmas narsa deb qabul qilmaydilar. Balki olamdagи turfa xil ranglarni "ong kislotasida eritib, jo'nlik quyqalaridan" tozalaydilar va sof holda tasvirlaydilar. Badiiy ong shundayki, "unda badihago'lyik (improvizatsiya) va xayolot parvozi tildagi ifodaning aniqligi hamda quyuqligi uchun yo'l ochib beradi" (E.Xovardsxolm). o'zbek nasrida M.M.Do'st, O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul kabilarning asarlarida yuqorida xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday san'at asarlarida kitobxonning o'ziga ijodiy jarayonda bilvosita ishtirok etishga imkoniyat yaratiladi, ya'ni san'atkor o'quvchiga hamma narsani aytib, tushuntirib beravermaydi, aql o'rgatmaydi. Uning fikr-o'ylariga aralashib, rahnamolik qilavermaydi. Shuningdek, yozuvchi qahramonning

xatti-harakati va o‘ylariga ham aralashmaydi. Bu jihatdan J.Joysning “Uliss sarguzashtlari”, M.M.Do‘stning “Lolazor”, X.Do‘stmuhhammadning “Bozor” romanlarini eslang. Ulardagi qahramonlar Blum, Yaxshiboev, Fozilbek bir paytning o‘zida nimalarni o‘ylamaydi, qayerlarda yurmaydi?! San’atkor esa go‘yo hech narsani bilmagandek turaveradi, o‘zini xolis tutadi. Shu xususiyati bilan yozuvchi o‘z kitobxonini muallif bilan ham hamkorlik qilishga, kechinmalarini baham ko‘rishga chorlaydi. Mabodo, kitobxon asar muallifi bilan hamdard-u hamkor bo‘lmasa, kechinmalarini birga baham ko‘ra olmasa, u holda asarda gap nima haqida borayotganini tushunishga, hazm qilishga qiynaladi.

Xullas, epik tur mustaqillik yillarida yangicha shakl va yangi mazmun kasb etdi. Uning mazmunida sintezlashuv hodisasi yuz berdi, tasvir ko‘lami kengaydi, badiiy nutqning yangicha ko‘rinishlari yuzaga keldi. Bu fazilatlarni alohida janrlar misolida ko‘rib chiqamiz.

### Nazorat savollari

- 1.Epos nima?
- 2.Epik turning bosh xususiyati nima bilan belgilanadi?
- 3.Epik tur asarlariga xos asosiy elementlarni ayting.
- 4.XX asr oxiri XXI asr bosqlaridagi epik tur takomilining o‘ziga xosligi nimada?
- 5.Modernizm nima? Hozirgi adabiy jarayonda paydo bo‘lgan modern asarlarni eslang.
- 6.Epik turning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?

## **MAVZU: KICHIK EPIK JANRLAR**

### **Adabiyotlar**

1. N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1979.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. Т.: "Fan", 1978-1979.
3. I.Sultonov. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2005.
3. T.Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2002.
5. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T.: "Fan", 2007.
6. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: 2010.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6,9,10, 11-jildlari. T.: 2002-2006.
8. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zları. T.: 2009.

### **Reja:**

1.Kichik epik janrlar haqida ma'lumot.

- a) pamphlet;
- b) feleton;
- v) ocherk;
- g) novella;
- d) esse.

2. Kichik epik janrlar taraqqiyoti va ularning sintezlashuvi.

So'z san'ati shunday sehrli va kutilmagan jarayonki, san'atkori tafakkuri va qalbida tug'ilgan fikr o'z shakli-shamoyili bilan dunyoga keladi. Bu jarayonni ayolning to'lg'oq paytidagi holatiga o'xshashi mumkin: u 9 oy mobaynida ardoqlab voyaga yetkazgan farzandi qizmi yoki o'g'il bola bo'ladimi, o'ziga yoki umr

yo‘ldoshiga o‘xshaydimi, sog‘mi yoki nosog‘mi oldindan bilolmaydi. Aslida uning orzusi ancha erta boshlanganini, ayol onalikka juda yoshligidan tayyorgarlik ko‘rganini ham yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Adib ijod jarayonida janrni belgilay olmaydi va tabiiyki, yozish paytida bu asarim mana shu janr qoidalariga to‘g‘ri kelsin deb o‘ylamaydi. Agar san’atkor janr qoidalari qolipiga o‘ralashib qolsa, o‘ylagan g‘oyasi, tanlagan voqeа va personajlari o‘zi istagandek chiqmasligi mumkin. Buni juda ko‘p ijodkorlar tan olishgan (*A.Muxtor, O.Muxtor, F.Uzman*). Gap yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan g‘oyasida, uni ifoda qila bilish mahoratida.

Yozuvchi N.Eshonqulning aytishicha: “Janr – nisbiy tushuncha. Yozuvchi o‘z fikrini qaysi shaklda eplab ayta olsa, o‘sha uning janridir”. (“*Tafakkur*” jur., № 2, 2009, -B.77.) Okeanni butun jonzotlari bilan akvariumga sig‘dirish mumkinmi? Bu san’atkorning qo‘lidan keladi. Bugungi suhabatimiz katta muammolarni kichik idishga sig‘dirishdek murakkab ijod mahsuli bo‘lgan kichik epik tur janrlari to‘g‘risida bo‘ladi.

**1. Pamflet** – italyancha so‘z bo‘lib, ma’nosи turli manbalarda turlicha berilgan. Masalan, “Kratkiy slovar literaturovedcheskix terminov” kitobida “pan” yoki “pam” – hammasi (vsyo), “plecho” –kuydiraman, alangalataman, “O‘zME” hamda “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da “qo‘ldagi varaq”, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da fransuzchadan olingen so‘z bo‘lib, “uchar varaq” degan ma’noni bildirishi aytilgan. Janrning mohiyatini ochuvchi ma’nosи “kuydiraman, alangada yoqaman” degan iboralarda o‘z ifodasini topadi. Chunki pamflet qisqa hajmdagi hajviy asar bo‘lib, biror bir siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik, u yoki bu to‘da yoxud guruhlar faoliyatini, ularning programm maqsadi va vazifalarini kuchli satira vositasida fosh etuvchi publitsistik asardir. Pamflet keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qiladi. Pamfletda u yoki bu tuzum, ijtimoiy voqelik yoki birorta partiyaning aniq namoyandalari ustidan shafqatsiz kulinadi va hukm chiqariladi. Shu xususiyatiga ko‘ra pamflet boshqa janrlardan badiiy

to‘qimaning nisbatan ozligi, uning aniq hujjatlar va tarixiy faktlarga asoslanganligi bilan farq qiladi. Pamfletda tanqid qilinayotgan jamiyat, voqeа-hodisalar va unda muhim o‘rin tutgan turli shaxslar xarakteri achchiq kinoya, kuchli sarkazm vositalari asosida fosh etiladi.

Pamflet janriga xos ilk namunalar dastlab antik adabiyotda yaratilgan. Keyinchalik Yevropa adabiyotida rivojlandi. Erazm Rotterdamskiy, M.Lyuter, Gutten, J.Svift, Volter, V.Gyugo, D.Didro, E.Zolya, Mopassan, A.Nesin pamflet ustasi sifatida tilga olinadilar. Rus yozuvchilaridan M.Gorkiy, L.Leonov, I.Erenburg, M.Zoshchenko, o‘zbek adiblaridan A.Qodiriy (“*Sovinak qori bilan Mag‘zava qori*” (1 bet), “Mahkamayı shar’iyada holvat-lalqon masalasi” (2b.), “Mochalov” (1b.), G‘.G‘ulom (“Hojiboboyi gulfurush” (1b.), “Poraxo‘rlar” (1b.), A.Qahhor (“Baron fon Ring”, “Bos tepkini!”) pamfletlar yaratishgan. Hozirgi davrda pamflet eng kam qo‘llanilayotgan janrdir. Shukurki, u unutilmadi, yozuvchi N.Qobul bir yo‘la “Sukut suiqasdi yoxud Stalindan Saddamgacha” va “Suiqasddan so‘nggi sukut yoxud Chingizxonidan Cherchillgacha” deb atalgan ikkita pamflet-romanlar yaratdi. Siz bu asarlarni o‘qisangiz, mazmunidan quyidagi guruhlarning qaysi biriga mansub ekanligini bilib olasiz.

Pamfletlar ko‘tarilgan mavzusiga ko‘ra:

1. Siyosiy pamfletlar.
2. Badiiy pamfletlar.
3. Axloqiy pamfletlar.
4. Tarixiy pamfletlar.
5. Shaxsiy pamfletlar (yakka shaxs illatlari fosh etiladi).
6. Psixologik pamfletlarga bo‘linadi.

**2. Feleton** - barcha manbalarda bir xil: fransuzcha so‘z bo‘lib, varaq, varaqa ma’nosini bildiradi. Feleton badiiy publitsistik janrlardan biri bo‘lib, u vaqtli matbuot bilan uzviy bog‘langan. Feleton nomi bilan yozilgan asar dastlab Fransiyada XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Aslida bu atama ostida gazetada berilgan modalar namoyishi, teatr tamoshashi va boshqa

ko'rgazmalar haqidagi kichik reklamalar tushunilgan. Keyinchalik feleton o'z hajmi va mohiyatini o'zgartirib bordi. Teatr asarlari, adabiy hodisalar to'g'risida yozilgan jiddiy tanqidiy maqolalar feleton deb atala boshlandi. Ularga gazetalardan maxsus joylar, podvallar ajratildi.

Feleton – janr sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. U har doim aniq tarixiy yoki zamonaviy voqelik, shaxs, faktlarga asoslanadi. Feleton o'z tabiatiga ko'ra ijobiy va salbiy bo'lishi ham mumkin. Biroq davr o'tishi bilan unda salbiy hodisalarga o'tkir satirik muhit muhim o'rinni egalladi. O'zbek adabiyotida feleton XX asr boshlarida dunyoga kelgan bo'lib, unda hayotda uchrab turadigan nuqson va yetishmovchiliklar o'tkir kinoya bilan fosh etiladi. Feletonning dastlabki namunalari A.Qodiri, Cho'lpon, A.Qahhor, G'.G'ulom kabi o'zbek adiblari tomonidan yaratildi. Keyin bu janrda S.Ahmad, N.Safarov, X.To'xtaboyev, M.Xudoyqulov, O.Yunusovlar samarali ijod qilishdi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab feleton janri partiyaning adabiyotdagi asosiy tanqidiy quroliga aylantirildi. Feleton qilingan tashkilot va uning rahbari partiyaviy jazo olishdan to jinoiy javobgarlikka tortilishgacha mahkum edi. Bu feletonni biryoqlama tushunishga olib keldi.

Feleton janrining asosiy vazifasi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy tomonlarini qamrab olish va aks ettirishdan iboratdir. Unda ko'proq mazkur sohalarda uchrayotgan kamchilik, ijtimoiy illatlar, to'rachilik, laganbardorlik, poraxo'rlik, o'zibo'larchilik singari nuqsonlarni fosh etish bilan jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish niyati ustuvor bo'ladi. Feletonning boshqa janrlardan farqi uning hajviy publitsistika qoidalariga asoslanishi, ijtimoiy kulginining ustunligi, satira va humor vositalariga tayanishidadir.

Feleton tuzilishiga ko'ra she'riy va nasriy yo'lda yozilishi mumkin. She'riy usulda yozilgan feletonga Muqimiyning "Tanobchilar", "Ko'r Ashurboy hoji haqida hajv", G'.G'ulomning "Qo'ltiqlangan kalla to'g'risida qofiyali va'z", A.Muxtorming "Kattamiz", "Mini yubka va paranji" asarlari misol bo'la oladi.

Nasriy feletonlar esa juda ko‘p uchraydi (A.Qodiriy, Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, S.Ahmad, X.To‘xtaboev, M.Xudoyqulov, N.Aminov, Ya.Qurban...).

Feleton o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va vazifasiga ko‘ra:

1. Ma’lum faktga, shaxs faoliyatiga, obyektga, voqeahodisaga.

2. Umumiylasalalarga asoslangan bo‘ladi.

Birinchi turdagি feletonlarda hayotdan olingan aniq faktlar, tanqid qilinayotgan shaxs faoliyatidagi ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy illatlar aniq ko‘rsatiladi. Ularda fosh etish ruhi kuchli bo‘lib, bayon satiraga asoslanadi. Ikkinci turida umumlashtirish ustun turadi. Har ikkisida ham asosiy maqsad jamiyat taraqqiyotiga, uning umumiylasalalarga xalaqit berayotgan illatlarga barham berishdir. Demak, feleton adabiyot uchun har doim kerak janrdir.

3. Ocherk – bu janr haqidagi malumotni “O‘zME”ning 6-jildida berilgan Y.Solijonovning maqolasidan olasiz (nusxa ko‘chirib oling).

4. Novella – italyancha bo‘lib, “yangi so‘z” degan ma’noni anglatadi. Hajmi hikoyadan ham kichikroq janr. Hajmning kichikligi mazmunning kengligiga ta’sir etmaydi. Oz so‘z bilan ko‘p ma’noga erishiladi. Oz so‘z bilan soz fikr bildirish hamma san’atkorning ham qo‘lidan kelavermaydi. Shu bois jahon adabiyotida novellist yozuvchilar soni oz. Manbalarda novella hikoyaning bir turi sifatida tilga olingan. Ularning farqi ko‘rsatilmagan. “Adabiyotshunoslik terminlarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da novellaga kengroq ta’rif beriladi. D.Quronov va boshqalarning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ham “Adabiyotshunoslikda novella masalasida yakdil to‘xtamga kelingan emas. Hikoya va novella atamalarini sinonim deb biluvchilar ham, ularni keskin farqlovchilar ham bor. Yana bir toifa novellani hikoyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi. Biz o‘zimizni hikoya janri bilan novellani keskin farqlovchilar qatorida deb bilamiz. Novella mustaqil janr sifatida Italiyada Uyg‘onish davrida yuzaga kelgan. Uning ilk namunalarini Bokachcho, Sakketti, Mazuchcholar yaratishgan. Novella syujet

qurilishining keskin rivojlanishi va o'zgaruvchanligi bilan farqlanadi.

Janr sifatida novella quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Konkret shaxs hayotiga oid voqealar ixcham, badiiy jihatdan mukammal va tugallangan shaklda aks ettirilishi.

2. Novellaning yakuniy xulosasi o'quvchi qalbida portlash hodisasini vujudga keltirishi.

3. Novellada ishtirok etuvchi personajlar miqdori o'ta chegaralangan bo'lishi, epik bayonning bitta personaj hayoti bilan bog'liq bo'lishi.

4. Novellaning syujetni kutilmagan boshlama va keskin yechimga, o'tkir dramatik taranglikka ega bo'lishi.

5. Kichik hajmga katta davrga xos asosiy xususiyatlarni sig'dira olish va shunga mos holda voqeani lo'nda, ixcham bayon etishga erishishi.

6. Novellada syujet ko'pincha bitta muhim detal asosiga qurilishi bilan ajralib turadi.

Shu 6 ta talabga javob bera oladigan novella A.Qahhorning "O'g'ri", "Anor", "Bemor", S.Ahmadning "Qoplon", "Karnay", Sh.Xolmirzaevning "Notanish odam", "Olma yemadim", "Ko'k ko'l" kabilardir. Ular hajman 3-4 betdan oshmaydi. Jahon adabiyotida Gi-de Mopassan, V.Skott, E.Xeminguey, A.P.Chexovlar novellist sifatida shuhrat qozonganlar. Bular shuni isbotlaydiki, novella mustaqil janr sifatida adabiyotda yashash huquqiga ega. Hozirgi yozuvchilardan X.Do'stmuhammad, X.Sultonov, A.Yo'ldoshev, N.Jaloliddin, Z.Qurolboy qizi kabilarning ayrim asarlarini novella sifatida baholash mumkin.

5. **Esse** – fransuzcha urinish, sinash, ocherk ma'nolarida bo'lib, o'zbek adabiyotiga XX asrning so'nggi o'n yilligida kirib keldi. Shu sababli mavjud lug'atlarda u haqida ma'lumot uchramaydi. Esse to'g'risida to'laroq malumotni siz D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievalarning "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobidan olishingiz mumkin. Esseni tadqiqot ocherk deyish to'g'riq bo'ladi. Unda men bilgan narsa, hodisa, muammoning

bilmagan tomonlarim ochib beriladi. Tuzilishiga ko‘ra: 1. Badiiy esselar 2. Ilmiy esselarga bo‘linishi mumkin. Esse janri erkin kompozitsiya qurilishiga egaligi bilan ajralib turadi. Sh.Xolmirzaev esselari (4-t.) badiiy, O.Sharafiddinov esselari ilmiy yo‘nalishga mos.

### **Nazorat savollari**

1. Pamflet nima?
2. Feleton qachon, qayerda paydo bo‘lgan?
3. Ocherk janrining o‘ziga xosligi haqida gapiring.
4. Novella qanday asar? Uning hikoyadan farqi nimada?
5. Esse janri haqida ma’lumot bering.

## **MAVZU: HIKOYA JANRI**

### **Adabiyotlar**

1. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. Т.: “Fan”, 1978-1979.
2. Adabiy tur va janrlar. 3 томлик. 1 том. Т.: “Fan”, 1991.
3. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. Т.: “Yangi asr avlodi”, 2004.
4. Normatov U. Ijod sehri. “Sharq”, NMAK, 2007.
5. Normatov U. Yangi o’zbek adabiyoti. Т.: “Universitet”, 2007.
6. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. Т.:2005.
7. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. Т.: “Sharq”, NMAK, 2007.
8. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zları. Т.: 2009.
9. Mustaqillik davri o’zbek adabiyoti. Т.: ASN, 2006.
10. O’zMU. X1 том. Т.: 2005, 330-331-betlar.
11. D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Т.: 2010.
12. Y.Solijonov. Lirika latofati, nasrning nazokati. Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.

### **Reja:**

1. Hikoyaning janr xususiyatlari.
2. Hikoyaning shakl va mazmunidagi o’zgarishlar.
3. Hozirgi o’zbek hikoyachiligidagi mavzu, muammo va yechim.

Hikoya epik turning kichik hajmga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos imkoniyat va qamrovga, badiiy tasvir vositalariga ega ekanligi bilan avvalgi darsda o‘rganganimiz kichik janrlar – pamflet, feleton, ocherk, novelladan farq qiladi. Bu farq birinchi galda asarning yuksak badiyiligida, inson hayotiga oid qisqa voqelikni ko‘rimli tarzda ifodalay olishida namoyon bo‘ladi. “Kratkiy slovar”da aytishicha, hikoyada qisqa

epizodda inson hayotining eng muhim, tipik ko‘rinishi ochib beriladi va bu holat uning butun hayotiga tegishli ko‘zgu bo‘lib qoladi (masalan, “O‘g‘ri”, Sh.Xolmirzaevning “O‘zbek xarakteri”). Hikoya, qissa, roman kabi janrlardan shu bilan farq qiladiki, unda tasvirlangan voqeagacha nima bo‘lgan, qanday bo‘lgan, kim bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot berilmasligi ham, ayrim detallar orqali ishora qilinishi ham mumkin.

Hikoya tasvir ko‘lami, syujeti va kompozitsion qurilishining nisbatan soddaligi, bayonning odatda bitta shaxs tomonidan (avtor yoki hikoyachi) olib borilishi jihatidan farq qiladi. Hikoya shakliy tomonidan asosan nasriy bayonga asoslanadi. Shu bilan birga ayrim voqealar she’riy usulda hikoya qilinishi ham mumkin. Voqelikning she’riy yo‘l bilan hikoya qilishning ilk namunalarini A.Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Hamza Hakimzodalar ijodida uchratamiz. XX asrning 60-yillariga kelib A.Muxtor tomonidan “she’riy novellalar” ham yaratildi.

“Hikoya” atama sifatida kengroq ma’noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So‘zlab berilgan bunday hayotiy voqelik qamrovining kengligi, muammoning muhimligi, hajmi, unda ishtirot etuvchilarining salmog‘i jihatidan hatto qissa yoki romanga xos bo‘lishi ham mumkin. Bunday hollarda “hikoya” termini “janr” ma’nosida tushunilmaydi. Masalan, Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi 7 nafar musofirning hikoyati har biri qissa janri darajasiga ko‘tarilgan. Yoki A.Muxtorming “Chinor” romani “rivoyatlar, hikoyatlar, qissalar” dan tashkil topgan yaxlit asardir. O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi, “Ikki eshik orasi” romani ham o‘ziga xos hikoyalardan tashkil topgan. Yozuvchi Sh.Xolmirzaev esa o‘zining “Olabo‘ji” asarining janrini “romandan katta hikoya” deb belgilaydiki, bunda ham hikoyaning “so‘zlab berish”, “gapirish” ma’nolari ustun turadi. “Mening nazarimda, hikoya romandan ham qiyin va mas’uliyatli janrdir, - deb yozadi Norvegiya adabiyotshunosi Xuan Rulfo. Chunki, hikoyada juda katta voqealarni ham lo‘nda tarzda bayon etish, o‘zingni chegaralab, qisqalikka intilish kerak bo‘ladi. Boshqalar 200 sahifada aytmoqchi bo‘lganini hikoyachi 5-6, nari borsa 10

sahifaga sig‘dirishi kerak. Buning uchun yozuvchidan juda katta mahorat talab qilinadi. Hikoyada aniq maqsad qisqa, lo‘nda bayon qilinadi. Yozuvchi har qancha intelektual salohiyat egasi bo‘lmasin, o‘quvchiga o‘z hukmini o‘tkazishga, ularni o‘zi istagandek yashashga majbur qilishga haqqi yo‘q. Ijodkor buni anglab yetsa, shuning o‘zi katta gap”.

Har bir janr singari hikoya ham o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lib, u muttasil ravishda o‘zgarib, yangilanib bormoqda. Bu hikoyachilikdagi badiiy shakl va uslub borasidagi izlanishlar samarasidir. O‘zbek hikoyachiligining shaklan va mazmunan o‘zgarishni uning mumtoz namunalari bilan XX asr boshlaridagi Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy hikoyalarni, bu adiblarning 20-yillarda yaratgan hikoyalari bilan 30-yillarda G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oydin kabilar tomonidan yozilgan ayrim hikoyalarni taqqoslash o‘rinlidir. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda yaratilgan hikoya(t)larda xarakter turg‘un, tayyor holda olib kirilgan bo‘lsa, keyinroq (XX asr boshlarida) qahramonlar xarakteri dinamikasiga e’tibor berila boshlandi. Ammo bu hikoyalarda qahramonlar harakatda, doimiy faoliyatda berilsa ham ularning ichki dunyosi chuqr ochilmas, personajning surati va siyrati mukammal va parallel holatda tasvirlanmasdi. Bunday ko‘rinish o‘tgan asrning 60-yillarigacha davom etdi.

Endi G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oydin singari hikoyanavislarning asarlarini O‘.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, U.Nazarov, E.A’zam, X.Sultonov, I.Sulton, A.Qayumov, U.Hamdam, Z.Qurolboy qizining hikoyalari bilan taqqoslab ko‘ring! Ular orasida nafaqat shaklan, balki mazmunan, ko‘tarilgan muammosi, xarakterlar tasviri, ifoda usullari, ohangi, mahorat darajasi jihatidan yer bilan osmoncha farq bor. Albatta, bundan o‘sha klassik yozuvchilarimiz mahorat nuqtai nazaridan keyingi adiblardan pastroq ekan-da, degan xulosaga kelmang-da, ijodkorlar yashagan davrni, shart-sharoitni, ijodiy maktablar mavjud yoki mavjud emasligini, o‘rganish va ifodalash uchun imkoniyatlarning tor yoxud kengligini hisobga oling. Bu yerda gap yozuvchining ijodiy individualligi ustida emas, balki janr evolyusiyasi – taraqqiyoti

xususida ketayotir. Shu xususiyatlardan kelib chiqib, hikoyachilik taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rghanish mumkin:

1. XII-XV asrlar (Rabg'uziy hikoyalaridan Navoiy hikoyalarigacha).

2. XVI asrdan XX asrgacha (Poshshaxo'janing nasriy bayonga asoslangan hikoyalaridan).

3. XX asr boshlaridan 20-yillargacha (Fitrat, Qodiri, Cho'lpon, Avloniy).

4. XX asrning 30-40 yillari (G'.G'ulom, A.Qahhor, Oydin).

5. XX asrning 40-60 yillari (S.Ahmad, A.Muxtor, P.Qodirov, O.Yoqubov).

6. XX asrning 60-90 yillari (Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov, U.Nazarov, E.A'zamov, Z.A'lam, X.Sultonov, M.M.Do'stlar).

7. XX asrning 90-yillaridan XXI asrning dastlabki 20 yilligi (X.Do'smuhammad, A.Yo'ldoshev, N.Jaloliddin, Z.Qurolboy qizi, S.Vafo qizi, U.Hamdam, I.Sulton kabilar).

Bu bosqichlar orasidagi muddatlar qisqa bo'lsa-da, hikoya janri voqelikni badiiy aks ettirish, xarakter yaratish, adabiyotning bosh obyekti bilan insonni tushunish, uning surati va siyratini to'laqonli tasvirlashdagi yangiliklar, o'zgarishlar muttasil ro'y berganini kuzatish mumkin. Yangilanish har bir janrning doimiy va qonuniy xususiyatidir.

Hikoya janrining to'la ma'nodagi dunyoga kelishini o'tgan asrning boshlaridan deb hisoblasak, o'tgan yuz yillik davrdagi taraqqiyoti bu xalqimizning ma'naviy-madaniy evrilish, tafakkurining kengayishi, kechinmalar dunyosining bat afsilroq ochilishga erishishiga olib keldi. Shu bilan birga so'nggi bosqichda o'zbek adabiyotiga bemalol kirib kelgan jahon adabiyotiga xos usullar ham hikoyachilik imkoniyatlarining kengayishi va yangilanishiga yordam berdi.

Hikoya janrining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

1. Material tanlay bilish. Kichik bir epizod bilan katta hayotiy voqeani bera olish qobiliyati. O'.Hoshimovning "Dehqonning bir kuni", "Urushning so'nggi qurbanii", A.Yo'ldoshning "Bo'ladigan

bola”, “Hayot endi boshlanadi”, “Qizil tilla, qip-qizil tilla” hikoyalari.

2. Turg'un xarakterdan harakatdagi (dinamik) xarakter tasviriga o'tish. Z.Qurolboy qizining “Tafakkur” hikoyasi. “Qahramoni – qishloq tegirmonchisining to'ng'ichi Tangriberdi” degan bola. Tegirmonchi Dovulboy, kolxoz raisi Eshboev. Uning uyida “dilbuzar” bor. Qiziqib, ko'rgani kelgan Tangriberdi “Shaxmat degan baloni televizorda ko'rib” devona bo'lib qoladi. U shaxmatni puxta o'rganib, o'z vaqtida o'quvchisining noyob iste'dodini payqagan, uni ro'yobga chiqarish uchun otasiga yalinib-yolvorgan o'qituvchi Shovqi muallim yordamida, tuman, viloyat, respublika musobaqalarida qatnashadi va g'oliblik shohsuppasiga ko'tariladi. Afsuski, otasi kutganidek, uyiga pul emas, diplom va Faxriy yorliq qog'ozlarini ko'tarib kelgan o'g'il tegirmonchi Dovulboyning qarshiligiga uchraydi. Otasidan kaltak yeganiga qaramay 6-sinf o'quvchisi Tangriberdi o'quvchilararo musobaqada g'olib chiqqan bo'lsa, keyinroq katta musobaqalarda qatnashdi. Ammo, yana pul o'rni... Bola esa ana shu yorliqlar, diplomlari bilan faxrlanar, o'qituvchisi Shovqi muallim “otangga ber” deb cho'ntagiga pul solib qo'ysa ham “Pulni yaxshi ko'radi»gan otasiga 1-o'rinni olgan bo'lsa ham bir tiyin berishmaganini aytib, “qo'qqisdan yuziga tushgan tarsaki zarbidan devor yoniga uchib tushdi”. Ota qanchalik zolim, qahri qattiq bo'lmasin, adiba ota va bola o'rtasidagi milliy koloritni unutmaydi, o'g'il otaga tik boqmaydi, qo'l ko'tarmaydi, gap qaytarmaydi. Ichki bir ruhiyat isyon ko'tarsa ham otasining aytganini qiladi. Natijada o'zining porloq kelajagini qabrga dafn qiladi. Tangriberdi rais Eshboevni fosh qilmoqchi bo'lgani uchun uning odamlari tomonidan mayib-majruh holga kelganida ham tafakkuri so'nmaydi. Hikoya tafakkur qudratining boqiyligini ko'rsatish bilan optimistik ruhda tugaydi. Bu hikoyaning yuksak badiiy fazilatlarini yirik adabiyotshunos U.Normatov payqadi va Z.Qurolboy qiziga ochiq xat yo'llab, hikoya uchun maqbul xotima topishning o'zi ulkan kashfiyot” ekanligini ta'kidlab, adibani “ana shu jiddiy muvaffaqiyat bilan chin dildan qutlaydi. Majruh bo'lsa

ham Tangriberdining xarakteri tinimsiz o'sib boradi va o'quvchida unga nisbatan ham achinish, ham faxlanish tuyg'usini, otasiga, rais Eshboyevga, uning timsolida esa butun bir totalitar diktatura jamiyatiga nafrat uyg'onadi.

3. Hikoyani detallar asosiga qurish. Ma'lumki, ijod qilishdan asosiy maqsad o'quvchini muallif fikri va his-tuyg'usi bilan oshno qilishdan iboratdir. Badiiy asar mukammalligiga voqelikni bat afsil tasvirlash orqali erishiladi. Biroq bat afsil tasvirlash ko'proq roman janriga xos bo'lib, hikoya hajman kichik bo'lganidan avtor o'z niyatini ko'proq detallarga yuklashga harakat qiladi. Detallashtirish ixchamlikka olib keladi. M.Gorkiy aytganidek, hikoyada muhimmi detalni topishdir. Agar uni topa olsangiz, - deydi yozuvchi, - u Sizga butun xarakterlarni yoritib beradi, undan syujet ham, fikr ham, g'oya ham o'sib chiqaveradi. Detalning kuchi va mazmuni shundaki, tomchida quyosh aks etganidek, eng kichik detal o'zida asarning butun g'oyasini o'zida mujassam etadi. Chunki "detal san'atning minatyur modelidir" (Y.Dobin). Bu fikrni yaxshiroq tushunib olish uchun siz mening kitobimdag'i "Detallar tilga kirganda" va "Erkagi bor uy"ning fazilatlari" sarlavhali maqolalarim bilan tanishib chiqing.

4. Absurd hikoyalarning paydo bo'lishi. Keyingi o'n yillikda N.Eshonqul, E.Shukur, U.Hamdam hikoyalarida shunday xususiyatga ega hikoyalar yaratildi. Masalan, N.Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Xayol tuzog'i", "Muolaja", E.Shukurning "Pul sanayotgan odam", U.Hamdamning "Lola", "Tosh" kabilar Kamyuning "Sizif haqidagi afsona" asarini esga soladi. Agar Sizif tinimsiz ravishda toshni tepalikka olib chiqishga behuda urinsa, "Pul sanayotgan odam" (ismsiz) bir me'yordagi pulni qayta-qayta qo'shib sanash orqali millioner boyga aylanadi. Ikkovining maqsadi ham absurd (ammo umid bor).

5. Ba'zi hikoyalar uchun bosh qahramon xarakterini ochishga yordam beruvchi 2-darajali orqa planda tasvirlangan personaj muhimroq hisoblanadi. Masalan, N.Jaloliddinning "Bayroq", U.Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyalarida shunday.

Xullas, hozirgi o'zbek hikoya janrining shakli va mazmuniga xos bu fazilatlar shu bilangina cheklanmaydi. O'qigan va tushungan o'quvchi yangi-yangi xususiyatlarni kashf etishi mumkin. Shu yo'lda sizga muvaffaqiyat tilayman.

### Nazorat savollari

1. Hikoya janrining tarixi.
2. Hikoyani atama va janr sifatida ta'riflang.
3. Hikoya janrining taraqqiyot bosqichlarini sanang.
4. Hikoyaning janr xususiyatlari aytинг.
5. Z.Qurolboy qizining "Tafakkur" hikoyasini tahlil qiling.
6. O'zbek adabiyotidagi modern, absurd hikoyalar haqida gapiring.

## **MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTIDA QISSA JANRI**

### **Adabiyotlar**

1. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. Т.: “Fan”, 1978-1979.
2. Adabiy turlar va janrlar. 3 томлик. Т.: “Fan”, 1991. (1-т).
3. A.Xolmurodov. Qissa poetikasi. Т.: “Fan”, 2007.
4. O'zMU 11-т. Т.:2005. 22-23-betlar.
5. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. Т.: ASN, 2006.
6. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. Т.: “O'qituvchi”, 2005.
7. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zları. Т.: 2009.
8. D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Т.: “Akademnashr”, 2010.

### **Reja:**

1. Qissa janri. Povest atamasi haqida.
2. Hozirgi o'zbek qissalarining janr xususiyatlari.

Qissa – epik tur janrlaridan biri bo'lib, voqealarni bayon qilib berishga asoslangan. G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida “qissa” (povest) tushunchasi yo'q. Ularda romandan boshqa barcha nasriy asarlar “novella” nomi bilan atalgan. Rus adabiyotida “povest, povestvovanie” atamasi mavjud bo'lib, biror voqeani kengroq planda hikoya qilib berish tushunilgan. Rus adabiyotshunosi L.Timofeev “o'rta epik shakl” (“srednyaya epicheskaya forma”) deb ataydi. Uning yozishicha, povest asosiy personaj atrofiga uyushgan bir necha epizodlarni tasvirlash orqali uning hayotidagi alohida davrni qamrab oladi.

Biron ta'minada “qissa” (povest) atamasiga janr sifatida aniq ta'rif berilmagan. L.Timofeev va N.Vengrovning “Kratkiy slovar literaturovedcheskix terminov” kitobida aytilishicha: “povest (qissa) hikoyadan farqli o'laroq, odatda unda ishtirok

etuvchi asosiy qahramonning hayotiga oid bir necha voqealar ifodalanadi". Unda bir necha personaj qatnashadi, ular asosiy qahramon atrofiga uyushtiriladi. Shuningdek, povest (qissa) hikoyaga qaraganda hayot murakkabliklarini kengroq, romanga nisbatan xarakter hamda voqelik ko'lamini ozroq aks ettiradi. Buni anglab yetish uchun Siz A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasi bilan "Sinchalak" qissasini taqqoslang. N.Xotamov, B.Sarimsoqovning "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da ayttilishicha: "povest (qissa) hayotiy voqeа-hodisalar qamrovi jihatdan romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan kattaroq va murakkabroq bayon shakliga ega bo'lgan janrdir. Povestda u yoki bu shaxs hayotining ma'lum davri xronikal bayon etiladi". "Adabiyotshunoslik lug'ati"da (muallif D.Quronov va b.) yozilishicha, qissa "epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri povest. O'zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig'idagi hodisadir: hikoyada qahramon hayotidan birgina voqeа, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi".

Albatta, bu ta'riflar nisbiy va umumiylar tarzda bo'lib, hanuzgacha qissa (povest) o'zining janr sifatidagi aniq va mukammal bahosini olgan emas. Hatto qissa janrining xususiyatlari va poetikasi muammolariga bag'ishlangan maxsus tadqiqot muallifi A.Xolmurodov ham o'zining doktorlik dissertatsiyasida bu sohani chetlab o'tadi. Kim bo'lsa ham qissa – povest xususiyatini roman bilan hikoyaga nisbatan hajmiga qarab belgilaydi. Shunday bo'lsa, Sh.Xolmirzaevning "O'zbek bobo", "Ozodlik", "Bulut to'sgan oy" hikoyalarini hajmiga ko'ra bemalol qissa deb qabul qilsak bo'laverar ekan-da! (*Bu haqda mening kitobimga qarang*).

Hatto, Belinskiydek ulkan tanqidchi ham "Poeziyaning tur va xillarga bo'linishi" nomli maqolasida: "Povest ham romanning o'zginasidir, faqat kichik hajmdadir. Asarning hajmi mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi" deb yozadi. Yana bir

maqolasini “Rus povesti va Gogol povestlari”da “povest – bo‘laklarga bo‘lingan roman – romandan olingen bir bobdir” deydi. Yana bir rus adabiyotshunosi G.Abramovichning fikricha, povest o‘rta epik forma bo‘lib, murakkab ijtimoiy muammolarni ochishda bir qancha hodisa va voqealarni o‘ziga birlashtiradi, unda qatnashuvchi personajlar soni ham hikoyadagidan ko‘proq bo‘ladi. L.Shevilovalning yozishicha, povest hayotning ko‘p tomonlarini qamrab olsa ham o‘z hajmining kichikligi, mazmunning ixchamligi bilan romandan farqlanadi. Hikoyadan esa syujetining murakkabligi, voqealar va personajlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Biroq Shevilovalning qissa hajmining kichikligi, mazmunning ixchamligi, syujetining murakkabligi nimalar evaziga ro‘y berishi lozimligi to‘g‘risida to‘xtalmaydi.

Qissaning janr xususiyatlari doir nomzodlik dissertatsiyasi yozgan tadqiqotchi F.Rajabova ham uning hikoya va romandan farqi haqida to‘xtalib, qissa “bir shaxsning kechmishi va sarguzashtlariga asoslan”ishi, lirik talqinga moyil voqealar tanlab olinishi, uni hajm jihatdan chegaralash ilmiy mezon bo‘lolmasligini to‘g‘ri qayd etgach, shunday xulosa chiqaradi: “Qissa yagona qahramon sarguzashtining xronikal izchillikdagi tasviri bilan roman va boshqa epik janrlardan farq qiladi”. 2 jildlik “Adabiyot nazariyasi” kitobining “Epos” turiga bag‘ishlangan bobida qissa – povest to‘g‘risida umuman to‘xtalinmagan. “Adabiy turlar va janrlar” kitobining 1-jildida povest – qissa janri haqida fikr yuritgan olim E.Karimov janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari, boshqalardan farqi to‘g‘risida emas, ko‘proq uning tarixiga to‘xtaladi. Muallif keltirgan misollarning ko‘pi adabiyotshunoslikda hikoya va roman deb tan olingen (*masalan, “Doktor Muhammadyor”, “Yangi saodat”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi*) asarlarini ham qissa atab, tahlilga tortadi. Unda qissa – povest janri haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar emas, asosan asarlarning qayta bayoni o‘rin olgan.

Akademik I.Sulton darsligida “Bir kishi va u bilan hayoti bog‘liq bo‘lgan bir necha kishining taqdiri o‘rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o‘z

oldiga vazifa qilib qo'ymaydigan asarlar povest janriga mansubdir. Qissada (*domla povest deb aytgan. Zero, sovet davrida terminlar internatsional tilda aytilgan*) odatda, lirizm hikoya va romanga nisbatan kuchliroq bo'ladi". Menimcha, yuqoridagi ta'riflar orasida eng to'g'risi mana shudir. Chunki boshqa ta'riflarning birontasida ham lirizm to'g'risida aytilmagan edi. Vaholanki, lirizm – qissa vujudini qon bilan ta'minlab turuchi tomir hisoblanadi. Lirizm voqelikda ham, ohangda ham, bayonda ham, mavzuda ham (hatto ijtimoiy mavzu bo'lsa ham) ustivor o'rinni egallaydi. Shuningdek, I.Sulton domla povest bilan qissa atamasi orasidagi farqqa ham nozikkina ishora qilib o'tadilar. Olimning ta'kidlashicha, "qissa ko'pincha ishqiy mazmunga ega, hozirgi zamon povestida esa ishqiy liniyaning bo'lishi shart emas".

Endi biz yuqoridagi manbalardan olgan taassurotlarimizga asoslanib, hamda o'z tajribamiz va qarashlarimizdan kelib chiqib, qissaning quyidagi xususiyatlarini tavsiya etamiz:

1. O'zbek adabiyotida "qissa" atamasi rus tilidagi "povest", "povestvovanie" atamalarining ma'nosini o'zida to'la mujassam etadi. Ota – bobolarimizning "qissaxonlik, qissago'ylik" degan iboralarini eslang.

2. Qissa janrini aniqlashda bir qancha "shartli" belgilarga ham e'tibor berish zarur. Jumladan:

a) asarning ichki hajmi (tashqi, ya'ni sahifasining oz yoki ko'pligi emas, balki mazmun-muammoning qamrab olinishi);

b) syujetning ko'p planli bo'lishi (romanda esa ko'p tarmoqli bo'ladi), bir voqeа ikki yo'nalishda hal qilinishi mumkin (O.Yoqubovning "Qanot juft bo'ladi", O'.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi", N.Jaloliddinning "Bolalar" qissalari);

v) yagona syujet liniyasining ustivorligi;

g) asosiy qahramon atrofiga birlashgan bir necha personajlarning mavjudligi;

d) bosh qahramon hayotida ro'y bergen barcha voqealarni batafsil tasvirlash shart emasligi (batafsillik roman janriga xos);

3. Qissa roman janri singari murakkab hayotiy jarayonni, keng qamrovli voqealarni uzliksiz rivojlanishda, taraqqiyotda ko‘lamli tasvirlay olishga qodir emas.

4. Qissa qalamga olingan ijtimoiy mazmunning kengligi va chuqurligi bilan hikoyadan farq qiladi.

5. Qissa janri o‘zining ichki tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim qissalarda yagona syujet liniyasi hukmron bo‘lib, ana shu syujet markaziga birgina qahramonning hayoti, taqdiri, uning shu hayoti doirasida ro‘y bergen asosiy voqealar – qo‘yiladi (“Sinchalak”, “Shaytanat”).

6. Shunday qissalar ham bo‘ladiki, unda asosiy qahramonning hayoti, taqdiri mustaqil novellalarga sochib yuboriladi. Hamma novellalarda hayotning ma’lum bir tomoni, har xil personajlar hayotida yuz bergen voqealar – hikoya qilinishi mumkin. Biroq ularni asardagi markaz – bosh qahramon birlashtirib turadi (masalan, “Dunyoning ishlari”).

7. Ichki tuzilishga ko‘ra bir necha hikoyalardan tashkil topgan qissalar ham bo‘ladi (A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”).

O‘tgan asrning 80-yillaridan o‘zbek qissachiligi ham shakl, ham mazmun jihatdan yangilandi. Agar O‘.Hoshimov qissa janriga yuksak badiylik va chuqur lirizm fazilatlarini olib kirgan bo‘lsa, E.A’zam bilan M.M.Do‘stlar yangi qahramon konsepsiyasini olib kirish bilan yanada yuqori bosqichga ko‘tardilar. E.A’zam “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasidagi beg‘araz betgachopar, shartaki talaba Asqar, M.M.Do’stning “Galatepaga qaytish” qissasidagi dinshunos Toshpo‘lat G‘aybarov, N.Jaloliddinning “Bolalar” asaridagi o‘qituvchi Otajon aka ana shunday yangicha qiyofadagi insonlardir.

O‘zbek qissachiligidagi lirizmning kuchayishida T.Murodning xizmati beqiyosdir. Uning “Momo yer qo‘shig‘i”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom” qissalarining nomlanishi ham, ohangi ham, bayon usuli ham lirikdir. U yozmaydi, balki kuylaydi.

Qissa ham romanlar singari mavzu va muammozi, yo‘nalishiga ko‘ra quyidagi turlarda yoziladi:

1. Avtobiografik (M.Muhammadjonov, S.Ayniy, Oybek, N.Safarov, I.Rahim, A.Obidjon).
2. Biografik (G'.G'ulom, A.Qahhor, H.G'ulom).
3. Tarixiy (M.Osim, J.Ilyosov, Mirmuxsin, X.Sultonov).
4. Fantastik (T.Malik, H.Islom shayx, M.Mahmudov).
5. Axloqiy (X.Do'stmuhammad, A.Yo'ldosh, N.Jaloliddin).
6. Hujjatli qissalar (N.Boqiy).

Mustaqillik yillarda G'arbiy Yevropa adabiyoti ta'sirida talay qissalar yaratildi. Bular orasida N.Eshonqulning "Urush odamlari", "Tun panjaralari", "Qora kitob", U.Hamdamning "Yolg'izlik", I.Sultonning "Munojot", T.Jo'rayevning "Yiqilgan oy" qissalari xarakterlidir. Mavzu jihatdan yangilanish kechagi kunimizga qarashda ham ayon bo'ldi. Sovet davrida 20-yillardagi o'zaro fuqarolar urushida milliy – ozodlik uchun kurashgan vatanparvar ota-bobolarimiz "bosmachi" deb ataldi. Bunday nomunosib qarashlarga ham badiiy adabiyot, xususan, qissa janri birinchi bo'lib javob berdi. M.Alining "Ko'k to'nilar", M.Mahmudovning "Bog'don qashqiri", T.Malikning "So'nggi o'q", "Chorrahada qolgan odamlar" nomli qissalarida o'sha davr kishilari faoliyati haqqoniy tasvirlandi. Ayniqsa, M.Mahmudovning "Bog'don qashqiri" qissasida ko'tarilgan muammo va yaratilgan qahramon xarakterlidir. Unda Zavlod taqdiri ko'rsatilganyu Bog'don qishlog'ida voyaga yetgan Qilichbek chor rusiyasi askarlariga qarshi kurashadi. O'zi amalga oshirolmagan niyatini o'g'li Yusufbekka vasiyat qilib qoldiradi. U o'rta jangari, qo'rs, axloqsiz, hech narsadan taft tortmaydigan, hech kimdan qo'rqmaydigan, odamlarga nafrat bilan qaraydigan (otasi o'rgatgan) kishi bo'lib o'sadi. U qishlog'inining eng go'zali Gavharni xohishiga qarshi opqoqhib ketadi. Ahmadbek ismli o'g'il ko'radi. Bu 3-avlod vakili inqilobchi bo'lib yetishadi. Otasi o'z jonini asrab qolish uchun o'g'lini qizillarga sotadi. Yusufbek o'zi va otasi orzu qilgan erkka erisholmay o'lib ketadi. Uning vaxshiy qashqir qiyofasiga kirishiga rus istilosи sabab bo'ldi.

## **Nazorat savollari**

1. Qissa va povest atamasining mazmun – mohiyati.
- 2.O'zbek adabiyotida qissa janrining tarixiy taraqqiyoti.
- 3.Qissa janrining asosiy xususiyatlarini aytib bering.
- 4.Mavzu va muammosi jihatidan qissalarni qanday guruhlarga bo'lib o'rGANISH mumkin?
- 5.O'zbek adabiyotida lirik qissa qachon paydo bo'ldi?  
Kimlar ko'proq ijod qildi?
6. O'zbek modern qissalari haqida gapiring.

## **MAVZU: ROMAN JANRIDAGI YANGILIKLAR VA IZLANISHLAR**

### **Adabiyotlar**

- 1.Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T.: “Fan”, 1978-1979.
- 2.Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik. 1-tom T.: “Fan”, 1991.
- 3.Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T.: “Yangi asr avlodni”, 2004.
- 4.S.Mirvaliev. O‘zbek romani. T.: “Fan”, 1969.
- 5.O‘zME. 7-t., T.: 2004.
- 6.I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., “O‘qituvchi”, 1981, 1985, 2005.
- 7.U.Normatov. Ijod sehri. T.: “Sharq” NMAK. 2007.
- 8.Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. T., “Yangi asr avlodni”, 2006.
- 9.A.Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. T.: “Sharq” NMAK. 2007.
- 10.A.Rahimov. Roman san’ati. “Farg‘ona” nashr., 2015.
- 11.Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko‘zлari. T.: 2009.
- 12.Y.Solijonov. Ko‘zgudagi hayot. T.: 2013.
- 13.Y.Solijonov. Adabiyot xiyoboni. Farg‘ona, 2020.
- 14.D.Quronov vab. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: “Akademnashr”, 2010.

### **Reja:**

- 1.Roman va uning taraqqiyot yo‘li.
- 2.Roman – epik turning yirik janri.
- 3.Hozirgi o‘zbek romanlarida tarixiy mavzuning ishlanishi.

Roman (fransuzcha roman) – o‘zigacha paydo bo‘lgan ko‘plab adabiy asarlarning yig‘indisi, sintezi hisoblanadi. Shu fazilatiga ko‘ra roman qomusiy xususiyatga egaligi, imkoniyatlarining g‘oyat kengligi bilan ajralib turadi. Roman epik tur janrlaridan biri bo‘lib, bu atama dastlab XII-XIII asrlarda

G'arbiy Yevropada paydo bo'ldi. Roman tillarida (*hind-yevropa tillari oilasiga mansub qardosh tillar guruhi*) yaratilgan she'riy va nasriy asarlar ana shu nom bilan atalgan. XV asrdan boshlab bu atama hikoya, bayon qilish degan ma'noda ishlatila boshlandi va epik turning eng katta hajmli janri roman deb nomlandi. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan, ma'lum ma'nodagi mustaqil olam sifatida tahlil etiladi. Aynan shu xususiyat roman janri mundarijasining o'ziga xos tabiatini belgilab beradi.

XVII asrga kelib Yevropada "ritsarlik romanlari" paydo bo'ldi. Servantesning "Don Kixot" romani ritsarlik sarguzashtlariga parodiya asar sifatida shuhrat qozondi. Bora-bora romanlar ijtimoiy-siyosiy hayot, shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni qamrab ola boshladi va janrning g'oyaviy-badiiy mavqeい oshdi. Unda murakkab turmush jarayoni, hayotdagi ziddiyatli hodisalar doirasi kengayib, inson va jamiyat taqdiri yetakchi o'rinni egalladi.

Roman qamrovi g'oyatda keng janrdir. Shuning uchun ham men uni okean (ummon)ga qiyoslaganman va yozuvchi-g'avvos uning bag'riga sho'ng'ib, hovuchiga yarasha dur-u gavharlarni olib chiqishiga o'xshatganman. Boshqa janrlardan farqli o'laroq, roman hayotni eng mayda "ikir-chikirlari" gacha batafsil tasvirlash imkoniyatiga ega. V.G.Belinskiy aytganidek; "Roman miniatyuradagi olam"dir.

Roman janri markazida bosh qahramon inson obrazi turadi va uning hayoti aks etadi. Bu bosh qahramon taqdiri uning jamiyatda egallagan mavqeyi, o'rni bilan har doim ham bog'liq bo'lavermasligi mumkin. Ba'zan, aytaylik, bosh qahramon uchun tanlangan inson jamiyatda ro'y berayotgan voqeа-hodisalar oldida katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Binobarin, uning mavqeyi yoki taqdiri o'rtasida ziddiyat ro'y beradi va bu asarning konfliktini belgilab, syujet liniyalarini harakatlantiradi (*Z.Qurolboy qizining "Armon asirasi" romani aynan shunga misol bo'la oladi*).

O'zbek adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi H.H.Niyoziy, Mirmuxsin Shermuhammedov, A.Qodiriylar nomi

bilan bog‘liq. Agar Hamza “roman” atamasini birinchi bo‘lib aldabiyotga olib kirgan bo‘lsa, “O’tkan kunlar” tom ma’nodagi roman janri sifatida paydo bo‘ldi va uning muallifi A.Qodiriy dunyodagi oltinchi romanchilik maktabining asoschisi sifatida tan olindi. Shundan so‘ng roman janri o‘zbek adabiyotida ham rivojlanishning keng yo‘liga chiqib oldi. A.Qodiriy boshlab bergen tarixiy mavzu keyinroq Oybek (“Navoiy”), O.Yoqubov (“Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”), P.Qodirov (“Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovonii”, “Ona lochin vidosi”), Mirmuxsin (“Me’mor”, “Turon malikasi”), 90-yillarga kelib, M.Ali (“Sarbadorlar” dilogiya, “Ulug‘ saltanat” trilogiya), S.Siyoev (“Yassaviyning so‘nggi safari” dilogiya), A.Dilmurod (“Mahmud Tarobiy”, “Pahlavon Mahmud”), T.Hayit (“Vafo malikasi”), J.Fozil (“Ayriliq ostonasi”) va boshqa ko‘plab yozuvchilar tomonidan davom ettirildi.

Endi ana shu nuqtayi nazaridan o‘zbek adabiyotida so‘nggi yillarda yaratilgan tarixiy va zamonaviy mavzudagi romanlarga nazar tashlaylik. O’tgan darsimizda tarixiy romanlar taraqqiyoti, uning bir asr davomida qancha to‘lqini (bosqichi) dunyoga kelganligi haqida aytib o‘tgandik. Bugungi darsimizda, asosan, tarixnavis adiblarning 4-5 – avlodi yaratgan asarlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalamiz. Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan bu avlod vakillaridan M.Ali, S.Siyoyev, A.Dilmurod, N.Qobul, Sh.Isaxonova, Z.Begmatov, S.Vafo kabilardir. Albatta, ularning har biri to‘g‘risida to‘xtalishga vaqt yetmaydi, shuning uchun ularning ayrimlariga murojaat qilamiz, xolos.

Eng muhimmi, mustaqillik o‘zbek adiblari uchun tarixiy mavzularagi cheklanganlikka barham berdi. Yozuvchi endi xohlagan tarixiy shaxs, tarixiy mavzu, voqelik haqida emin-erkin yozish imkoniyatiga ega bo‘ldi. To‘g‘ri, sovet davrida ham tarixiy mavzuda xohlagancha asar yaratish mumkin edi. Faqat sharti shuki, tarixiy roman g‘oyasi kommunistik mafkura, sovet voqeligi nuqtayi nazaridan yoritisin. Ana shu prinsipga amal qilishga majbur bo‘lgan tarixnavis adiblarning 2-3-avlodi vakillari –

Oybek, O.Yoqubov, Mirmuxsin, P.Qodirovlar ayrim tarixiy faktlarni “buzdilar”, o‘zgartirdilar, tarixiy shaxslarning qiyofasiga qora bo‘yoqni mo‘lroq chapladilar. Birgina P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romani boshidan kechirgan ko‘rguliklar uning keyingi “Avlodlar dovoni” romani strukturasiga, bayon usullariga salbiy ta’sir ko‘rsatganini eslash kifoya.

Yoki Amir Temur mavzusining ishlanishini olib ko‘raylik. Sovet davrida u johil, zolim, bosqinchi, qonxo‘r, savodsiz, axloqsiz shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lsa (*masalan, S.Borodinning “Samarqand osmonida yulduzlar” diliqiyasi*), endi butunlay buning aksi. Qisqa fursatda Amir Temur haqida o’nlab dostonlar (A.Oripov, M.Jalil, O.Bo‘riev) dramalar, romanlar dunyoga keldi. Bular orasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali g‘oyat izchil va samarali ijod qilmoqda. U dastlab “Sarbadorlar” romani bilan ulkan va tunganmas mavzu dargohiga qadam qo‘ydi. Keyin “Ulug‘ saltanat” degan umumiy nom ostida romanlar yozishga kirishdi. Amir Temur va uning avlodni to‘g‘risida tetralogiya yaratishni niyat qilgan adib hozir uning uchinchi kitobini yozib tugatdi. “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining 1-kitobi Sohibqironning eng suykli farzandiga bag‘ishlangan bo‘lib, “Jahongir Mirzo” deb atalgan. 23 bobdan iborat bo‘lgan bu roman Amir Temurning rahbarlik va lashkarboshilik salohiyati, oilasiga, farzandlariga g‘oyat mehribon ota ekanligiga bag‘ishlanadi. Romanda Amir Temurning dolg‘ali, keskin kurashlarga boy hayoti Amir Muso, Amir Husayn, shoir tabiat Axiy Jabbor (“Sarbadorlar” ni eslang), Jahongir Mirzo va boshqa beklar bilan munosabatlarida to‘la ochila boradi.

Romanda Jahongir Mirzo 13-14 yoshlaridan ko‘rinadi, u g‘oyat jasoratli, botir yigit edi. Afsuski, 20 yoshida og‘ir xastalik tufayli olamdan o‘tadi va bu musibat Amir Temurning qaddini bukadi. Tetralogiyaning 2-kitobi “Umarshayx Mirzo”, 3-kitobi “Mironshoh Mirzo”, 4-si “Shohruh Mirzo” deb nomlangan. M.Alining yutug‘i shundaki, bu asarlarida shu nomlari bitilgan temuriyzodalar hayoti va faoliyati to‘g‘risida o‘quvchilar kam bilardi. M.Ali bu tetralogiyasi bilan qariyb uch asrdan ko‘proq

turli hududlarda hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasining mukammal badiiy solnomasini yaratib bera oladi deb umid qilamiz. Mustaqillik yana XII asrda yashab o'tgan mashoyixlar sarvari "shayxul-rais" Ahmad Yassaviy to'g'risida ham erkin fikr bildirish imkonini berdi. Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev bu ulug' zot to'g'risida "Ahmad Yassaviy" deb nomlangan asar yaratdi. Roman 2 kitobdan iborat bo'lib, 1-kitobi "Qasamxo'rning jazosi" (dastlabki nomi "Yassaviyning so'nggi safari" edi), 2-kitob esa "Ona yurt shamollari" deb ataladi. Ularda hazrat Yassaviyning o'z muridlari, sahobalari, shogirdlari, Samarcand podshosi Sulton Mahmud, amir-u beklar, oddiy fuqarolar bilan uchrashuvlari, muomalasi, avliyo sifat qobiliyati, karomatlari haqida hikoya qilinadi. Mana, shayx ul-mashoyixning karomatlaridan biri: "Yassaviyning sodiq muridlaridan biri Shahobiddin hoji bora-bora ochko'zlik, boylik, shuhrat ortidan quvib, piriga xiyonat qila boshladи. Kechira-kechira sabri tugagan hazrat bir yig'inda uning ayblarini ochib tashlaydi, xaloyiq oldida uni fosh qiladi. Ammo hoji ayblarini tan olmaydi. Shunda shayx ul-rais uning qo'liga Qur'on berib ont ichishni so'raydi. Hoji tap tortmay, uyalmaynetmay Qur'oni Karimni ko'ksiga bosib qasam ichadi. Oradan ko'p o'tmay jazosini oladi. Eshakdan yiqilib, oyog'i sinadi, og'zi qiyshayib qoladi. Hazratning karomatpeshaligi shundaki, Shahobiddin hoji piridan uzr so'rash niyatida yo'lga tushadi va yarim yo'lda jag'i to'g'rilanib, ortiga qaytadi. Uyiga kelgach, yana og'zi qiyshayib qolaveradi"

Yoki Samarcand hokimi Sulton Mahmudning yakka-yu yagona o'g'li Qutbiddin otasining taxtidan, cheksiz boylik, shon-shuhratdan voz kechib darveshlikni, shayx Yassaviyga xizmat qilishni afzal ko'radi va kamolga yetadi. 1-kitob haj safariga otlangan Yassaviyning Samarcandga qo'nishi, Sulton Mahmud bilan uchrashuvi, Qutbiddin taqdirining hal etilishi bilan tugaydi. 2-kitobda Samarcanddan hajga borish yo'lidagi voqealar, oddiy xalq ommasining Yassaviyga izzat-hurmatini ifodalashga bag'ishlangan.

Yozuvchi A.Dilmurod "Mahmud Tarobiy", "Pahlavon Muhammad" nomli tarixiy romanlarini yaratdi. Ikki qismdan iborat "Mahmud Tarobiy" romanida Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Chig'atoy ulusini isyonga boshlagan vatanparvar shaxsning faoliyati asos qilib olingan. Uning pahlavonligi, xalqparvarligi, odamoxunligi, tabibligi, hunarmand inson ekanligi ishonarli ko'rsatilgan. Uning atrofiga uyushgan piri Shamsiddin Mahmudiy, shayx Ibrohim, jasur ukalari Muhammad, Ali, xalq qahramonlari Vafo Xo'jandiy, Navro'z polvon kabilar ham esda qolarlidir. Keyingi romani Navoiyning do'sti, hamkori, ixlosmandi Pahlavon Muhammadga bag'ishlangan. U orqali yosh Alisherning o'ziga xos xarakteri ham ochiladi.

Nihoyat, tariximizning yana bir yorug' yulduzi Alisher Navoiy haqida ham yangi tarixiy roman dunyoga keldi. Qariyb yarim asrdan so'ng iste'dodli yozuvchi Omon Muxtor Oybek panjasiga panja urib "Navoiy va rassom Abulxayr" deb atalgan roman-dilogiyasini (1. "*Ishq ahli*", 2. "*Buyuk farrosh*") yaratdi va bu asari uchun 2009-yilda mustaqillikning 19 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu asarida adib o'ziga xos yangi yo'lidan boradi, Oybekdan farqli o'laroq O.Muxtor Alisher Navoiyning hayot yo'lini, amaliy-ijtimoiy faoliyatini tasvirlash yo'lidan bormadi. Asar markaziga o'quvchiga tanish bo'lgan, ulug' mutafakkir shoir Navojini anglash masalasi qo'yiladi. Bu g'oyaviy niyatini ifodalash uchun yozuvchi bayonning yangicha usullarini, syujet va kompozitsiyaning o'zgacha shakllarini qo'llaydi.

Romanda rassom Abulxayrning Navoiy portretini yaratish oldidan uning mukammal qiyofasini ifodalash uchun olib borgan izlanishlari, iztiroblari, anglash qiyinchiliklari kundaliklari orqali ochiladi. Rassom Abulxayr shoir Navoiyning suratini uning siyratini anglamay turib chizolmasligiga aqli yetadi va mutafakkir shoirning lirik merosini chuqr o'rganishga kirishadi. Xulosa shuki, "Navoiy bu - tubsiz osmon! Navoiy bu – ulkan ummon! Uni qamrab bo'lmaydi!". Muallif hikoyachi – qahramoni rassom Abulxayr nigohi orqali ulug' shoirming she'riyati qa'riga chuqr

kirib boradi va shubhasiz, uning bayoniga ham nazm usuli kirib keladi. Nasriy bayonda nazm imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari to‘g‘risida Vyetnam adabiyotshunosi To Xao y shunday yozadi: “Roman o‘zga janrlarning eng yaxshi sifatlari va imkoniyatlarini o‘zida qamrab oladi. Biz pesa, ocherk, hikoya, povest usullarini romanga olib kira olamiz. Bunda poeziyadan ham foydalanish, uni har bir bobiga, har bir qismiga, har bir jumlasiga singdirish mumkin. Bu priyomlar (usullar)dan bevosita yoki ularni roman personajlarining fikr va harakatlarini ifodalaydigan darajada o‘zgartirgan holda foydalansa ham bo‘ladi”. Ajabki, O.Muxtorning ushbu tarixiy romanigina emas, balki ko‘plab zamonaviy romanlari ham nazm bilan qorishiq usulda bayon qilingani bilan xarakterlidir.

60-yillardan boshlab o‘zbek adabiyotida roman-dilogiya (M.Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha”, H.G‘ulomning “Mash‘al”, A.Ibrohimovning “Uyqu kelmas kechalar”, O.Muxtor “Navoiy va rassom Abulxayr”, A.Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”), roman-trilogiya (“Ufq”, “Judolik diyori”), roman-epopeya (J.Sharipov “Xorazm”)lar ham vujudga keldi. Shuningdek, adabiyotimiz so‘nggi yillarda bu janrning roman-hikoya (“Ikki eshik orasi”, “Olabo‘ji”, “Navoiy va rassom Abulxayr”), roman-monolog (N.Qobil “Unutilgan sohillar”), roman-xronika (B.Ahmedov “Amir Temur”), mistik-fantastik (H.Islom Shayx “Telba dunyo”, “Tutash olamlar”), mifologik singari yangi shakllari ham rivoj topmoqda. Roman aslida janr sifatida yagona bo‘lib, tarixiy, tarixiy-biografik, avtobiografik, sarguzasht-fantastik kabi atamalar romanning yo mavzu yoki muammosi bilan bog‘liq shakllaridir xolos.

Mavzusi, hajmi, syujetining murakkabligi, kompozitsion qurilishining mukammallik darajasi jihatdan va tasvir usullarining rang-barangligi bilan roman janri ba‘zi bir badiiyat unsurlarining (syujet turlari, konflikt, yechim, bayon qilinish usuli) qo‘llanishga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan O.Muxtor, M.M.Do‘s, X.Do‘stmuhammad, T.Jo‘rayevlarning romanlari xarakterlidir. Janr imkoniyatlarining kengligi romannavisnlarning

turlicha badiiyat unsurlari, badiiy tasvirning har xil shakli hamda vositalaridan erkin foydalanish huquqini beradi.

### **Nazorat savollari**

- 1.Roman qachon, qayerda paydo bo'ldi?
- 2.O'zbek adabiyotida roman atamasi qachon va kim tomonidan qo'llanildi?
- 3.O'zbek adabiyotida roman janrining 1-namunasini kim yaratdi?
- 4.Roman – dilogiya.
- 5.Roman – trilogiya.
- 6.Roman – epopeya.

## **MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK ROMANLARIDA MAVZU, MUAMMO, QAHRAMON VA BADIYLIK**

### **Adabiyotlar**

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T.: "Fan", 1978-1979.
2. Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik. 1-tom T.: "Fan", 1991.
3. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T.: "Yangi asr avlodi", 2004.
4. S.Mirvaliev. O'zbek romani. T.: "Fan", 1969.
5. O'zME. 7-t., T.: 2004.
5. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: "O'qituvchi", 1981, 1985, 2005.
6. U.Normatov. Ijod sehri. T.: "Sharq" NMAK. 2007.
7. Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. T.: "Yangi asr avlodi", 2006.
8. A.Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. T.: "Sharq" NMAK. 2007.
9. A.Rahimov. Roman san'ati. "Farg'ona" nashr., 2015.
10. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T.: 2009.
11. Y.Solijonov. Ko'zgudagi hayot. T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2013.
12. D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: "Akademnashr", 2010.

### **Reja:**

1. Hozirgi o'zbek prozasida zamonaviy mavzu va yozuvchi dunyoqarashi.
2. Yozuvchining g'oyaviy niyati va estetik ideal masalasi.
3. Hozirgi o'zbek romanining istiqboli.
4. Hozirgi o'zbek adabiyotida polifonik romanlar.

Biron bir millatni adabiyotsiz tasavvur qilib bo'lmanidek, har qanday milliy adabiyotni janrlarsiz tasavvur qilish ham mumkin emas. Janr badiiy adabiyotning konkret ko'rinishidir.

Ana shunday janrlardan biri roman bo'lib, uning tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatining ayrim tomonlari to'g'risida o'tgan darsda suhbatlashdik. Ammo roman epik turning eng yirik, imkoniyatlari g'oyat keng janri bo'lganligidan uning poetik olamiga chuqurroq kirib borganimiz sari hali kashf etilmagan fazilatlarini anglab boraveramiz.

Roman, eng avvalo, epik obraz yaratuvchi prozaik bayondir. Ana shu epik obraz yozuvchining dunyoqarashini, romanning g'oyaviy-estetik tabiatini belgilab beradi. Epik obrazni ifodalash jarayonida hayot haqiqatiga qat'iy amal qilish talab etiladi. Zero, raelizm (ya'ni hayotiylik) romanning asosiy qon tomiridir. Roman qanday shaklda, qaysi usulda yozilmasin, ya'ni u fantastik-sarguzasht bo'ladimi, rivoyat yoki mif va afsonalarga asoslanadimi, oxir oqibatda reallikka intiladi. Asarning janr tabiatini unda aks ettirilgan g'oyaviy niyatning qaysi yoki qanday badiiy shaklda, uslubda berilishi bilan belgilanadi.

Romanning eng muhim xususiyatlari:

- 1.Epik obraz.
- 2.Prozaik bayon.
- 3.Yozma uslub.

Romanda o'quvchining esida qoladigan yaxlit, ko'lamli, o'z qiyofasiga ega bo'lgan epik obrazlarni ko'p uchratganmiz. Bular: Yusufbek hoji, Otabek, Yo'Ichi, Mirzakarimboy, Navoiy, Ochil buva, Orif oqsoqol, Nazar Yaxshiboev, Mirza G'olib, Yusuf, Fozilbek va hokazo. Chunki ularni eslashimiz bilan ko'z oldimizda yashagan davri, shart-sharoit, o'zaro to'qnashuvlar namoyon bo'ladi. Atrofidagi barcha personajlar u yoki bu darajada ana shu epik obrazlar bilan bog'langanligini his qilamiz.

Hozirgi paytda prozaik bayonsiz romanni tasavvur etib bo'lmaydi. Rus adabiyotshunosi V.Kojinov o'zining "Proisxojdenie romana" ("Romanning kelib chiqishi") kitobida yozishicha: "Shu narsa e'tirof qilinganki, roman, birinchidan, kishilarning, narsa-hodisalarining, kechinmalarning o'zaro bog'langan holdagi mustaqil realligini to'la-to'kis ko'z oldimizda gavdalantiruvchi, epik obrazni yaratuvchi bayon-hikoyadir.

Ikkinchidan, roman “epik” so‘zining ikkinchi ma’nosiga yaqin asardir. Yanada aniqroq qilib aytganda, u hayotiy haqiqatni kengroq qamrab olishga, o‘z ichiga singdirishga intiluvchi epopeya ruhidagi bayondir. Va nihoyat, uchinchidan, roman prozaik bayondir. Romanning bu xususiyati unda nutqning tashqi shakllanishi bilangina to‘la-to‘kis xarakterlanmaydi, albatta. Balki bu xususiyat roman janrining bir qator xossalarini – prozaning umumiy estetik koloritidan tortib to uning yozma tabiatigacha bo‘lgan hamma xossalarini belgilab beradi”.

Endi zamonaviy mavzudagi romanlar xususida gaplashsak. Aslini olganda, mavzu va muammoсидан qat'i nazar barcha adabiy asarlar zamonaviy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lishi shart. Masalan, yozuvchi tarixiy mavzuga murojaat qilar ekan, shubhasiz, o‘zi yashab turgan zamoni nuqtayi nazaridan yondashuvi talab etiladi. Faqat asar zamonasozlikdan xoli bo‘lsa bas. Istiqlol davri adabiyotida ko‘plab zamonaviy mavzuda yaratilgan asarlar adabiy jamoatchilikning yaxshi bahosini oldi. Bular orasida U.Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, T.Jo‘rayevning “Arvoohlар tunda izg‘iydi”, “Bozor dunyo” romanlari alohida ajralib turadi. Bunday deyayotganimning sabablari bor. Mustaqillik tufayli badiiy adabiyotda ijodiy erkinlik vujudga kelgandan keyin uni suiiste’mol qilib, yengil-yelpi mavzularda, oldi-qochdi, ur-yiqit voqealariga asoslangan, axloqiy buzuqlik, fohishabolik, o‘g‘rilikka bag‘ishlangan “romanlar” nihoyatda ko‘payib ketdi. Eng yomoni “bozor adabiyoti” paydo bo‘ldi. Nuriddin Ismoilov, Muhammad Ismoilov, Solih Qahhor, To‘xtamurod Rustam, Habib Temirov kabilarning “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” “roman”lari zamondoshlarimizning fikrini chalg‘itdi, adabiyotning tarbiyaviy vazifasini chetga surib qo‘ydi. Afsuski, aksar o‘quvchilar ana shunday asarlarni o‘qish bilan ovoralar. Yaxshiki, bunday asarlar adabiyotning umumiy saviyasini belgilamaydi. Biz, yaxshisi,

Ulug‘bek.Hamdam, Luqmon Bo‘rixon, Tilavoldi Jo‘rayevlarning yuqorida tilga olingan romanlari to‘g‘risida gaplasha qolaylik.

Said – arbob

I. “Muvozanat”. Uchlik 1. Yusuf

Mirazim – bozorchi

otasi Odil aka, xotini Oygul

2. Yusuf

3. Yusuf

akasi Amir, Zahro

Saidning xotini – Oygul – Mirolimning xotini. Bular barchasi hayot tarozisining pallalari, muvozanatni talab qiladi.

II. “Bozor dunyo” Nozima ↔ Salima ↔ Kaniza

Mansur ↔ Nozima ↔ Kaniza

Kanizaning traktorchi eri ↔ Kaniza ↔ Mansur

Akasi Zokir ↔ Mansur ↔ otasi

Mansur ↔ hokim Zokir ↔ prokuror Qodir

Aliyevich

Mansur ↔ Q.Alievich ↔ Nozima

Qishloq ↔ bozor ↔ shahar

Ma‘naviyat ↔ adolat ↔ savdo

“Jaziramadagi odamlar” romani bilan yozuvchi birdaniga adabiy jamoatchilikning e’tiborini tortdi. Adabiyotshunoslarning davra suhbatlarida, kitob annotatsiyasida, yozuvchi E.A’zam esa “O‘zAS”dagi maxsus maqolasida muallif L.Bo‘rixon to‘g‘risida iliq gaplar aytildi. Romanga Toshbibi chechaning xalq topishmoqlarida aytilgan “Bir otim bor – ajabgina, Dumlari gajakkina. Hali kelsa... Kula-kula o‘lasiz” degan satrlar epigraf qilib olingan. Roman voqealari oliy o‘quv yurtining ruhshunoslik fakultetida o‘qiydigan talaba yigit tilidan hikoya qiladi. Unda Safarmurod chavandozning tashviqoti bilan Mirzacho‘lga kelib, shahar qiyofasiga o‘xhash posyolka bunyod qilgan mehnatsevar odamlar hayoti ifodalananadi. Sovxozi direktori Chinor Mengliyev, Safarmurod chavandoz, Ulash agronom, hikoyachi talabanining otasi Ergash (bular uchovi sinfdosh), Fayzulla bug‘oltir, uning

shaharlik kelini Lolaxon kabilarning har biri o‘ziga xos taqdir va tasvirga egaligi bilan ajralib turadi. Roman tabiiyligi bilan etiborni tortadi.

Hozirgi adabiy jarayondagi eng katta yangilik nasrimizda ko‘povozli (polifonik) romanlarning paydo bo‘lishidir. Polifonik aslida bizning adabiyotimiz uchun yo‘qdan bor bo‘lgan, to‘satdan chetdan kirib kelgan hodisa emas. U aslida bizning ko‘p asrlik lirik merosimizda, XX asr boshlaridagi nasr va dramatik asarlarda u yoki bu darajada uchraydi. Faqat bu adabiy hodisaning qadimiyligini, o‘zbek adabiyotiga xos ko‘rinishlari va xususiyatlarini biz, adabiyotshunoslar, o‘z vaqtida tadqiq qilib, isbotlab berolmaganmiz xolos. Polifonik roman yaratgan adib Dostoevskiy bo‘lib, bu atamani fanga olib kirgan va keng miqyosda tadqiq qilgan olim M.M.Baxtindir. Olimning Dostoevskiy asarlari yuzasidan chiqargan xulosalariga ko‘ra polifonik roman o‘zining:

1) syujeti; 2) kompozitsiyasi; 3) qahramonning tanlanishi va kitobxonga taqdim etilishi; 4) bayon usuli va badiiy nutq tiplarning qo‘llanishi jihatidan ham; 5) qahramonlarning ruhiy dramasini tasvirlash tomonidan ham an'anaviy romanlar qolipiga tushmaydi. O‘zbek adabiyotida O.Muxtorning barcha, M.M.Do‘sning “Lolazor”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, T.Jo‘rayevning “Arvohlar tunda izg‘iydi” romanlarida ana shunday fazilatlar uchraydi. Polifonik romanlarning o‘ziga xosligi shundaki, oddiy tipdagi romanlardan farqli o‘laroq, ularning qahramonlari ovozi avtor ovoziga teng huquqli ohang qurilishiga ega bo‘ladi. Polifonik romanga xos nutq strukturasi monologik nutqdan qahramonlarning mustaqil va o‘ziga xos fikrashi, ichki erkinlikka ega bo‘lishi, ba’zi paytlarda o‘zini yaratgan avtor baholariga ham qo‘shilavermasligi, sarkashligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan M.M.Do‘sning “Lolazor” romaniga murojaat qilib ko‘raylik.

Romanning har ikki qahramoni – Nazar Yaxshiboyev ham, Saidqul Mardon ham ijodkor shaxs bo‘lganliklaridan xuddi avtor singari o‘zining mustaqil nutqi strukturasi va ohangiga ega. Shu

xususiyatiga ko'ra ular bir-biriga ham, avtor nutqi ohangiga ham qo'shilib ketmaydi. Bu qahramonlar romanning boshidan oxirigacha o'zlarining to'laqonli ovozi va sezgisi bilan mustaqil ravishda ishtirok etadilar. Ular mustaqilligining birinchi belgisi shundaki, N.Yaxshiboyev bilan S.Mardon asarning "Bemor" bobida biron marta ham uchrashmaydi. S.Mardon N.Yaxshiboyevning tashqi hayotidagi faoliyatini aks ettiruvchi ko'zgudir. "Qissanavis" boblarida S.Mardon N.Yaxshiboyevning amaliy faoliyati, yozuvchi va jamoat arbobi sifatidagi fazilat hamda qusurlarini, inson sifatidagi o'kinchlari, armonini batafsil tasvirlaydi. Shifoxonada kechgan 5-10 kunlik ichki hayotidan asosan N.Yaxshiboyevning ong oqimi, xotiralar tizimi orqali xabardor bo'lamiz.

Polifonik romanlarning muhim belgilardan yana birivoqealarning boshdan oxirigacha dialog asosiga qurilishidir. Chunki dialog ko'povozlilikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Dialog qurilishi jihatidan ham "Lolazor" romani polifonik asar oldiga qo'yilgan talablarga javob bera oladi. Masalan, N.Yaxshiboyev palatada yotib ham, o'tirib ham, davolanib turib ham, tashqarida yurib ham uzliksiz ravishda kimlar bilandir doimiy muloqotda bo'ladi. Goh davolovchi shifokor, goh marhum do'sti Sharif Vallomat, goho xotini Muxsina xonim yoki "oqpadar, so'tak" o'g'li Avvalbek, gohida shogirdlari, ba'zan do'sti Oshno bilan tinimsiz muloqotda bo'ladi. Bu muloqot xayoliy dialog turi orqali namoyon bo'ladi. Qissanavis Saidqul Mardon esa hikoyasining boshidan oxirigacha o'quvchi bilan suhbat quradi, unga murojaat qiladi, savol beradi, uzr so'raydi va hokazo.

Polifonik romanda yozuvchi o'z qahramonining ichki dunyosini xuddi optik ko'zgu bilan ko'rayotgandek eng mayda ikir-chikirigacha ochib bera oladi. M.M.Do'st ham N.Yaxshiboev qalbiga ana shunday optik ko'zgu bilan qaraydi. Shu boisdan "Bemor" boblarida uning ichi go'yo ag'darilib ko'rsatilayotgandek tuyiladi. Ya'ni o'quvchi uning o'z o'y-fikrlari (ong oqimi) orqali xudbinligidan tortib qaysarligigacha, obro'

talabligi-yu, maqtanchoq ekanligigacha, qay darajadagi yozuvchiligidan boshlab uning jamiyatda, muhitda egallagan mavqesigacha, barcha-barchasini besh qo'lday bilib oladi. Shunisi borki, bu qusur-u fazilatlarni asosan uning o'z tilidan eshitamiz yoki ichki nutqi orqali bilib olamiz va bu bizga erish tuyilmaydi. Ya'ni o'quvchi N.Yaxshiboyevni nokamtar, maqtanchoq odam sifatida qabul qilmaydi, negaki, polifonik roman talabiga ko'ra Yaxshibyoev xarakteri syujet ichida tug'ilmagan, balki syujetga ana shunday shakllangan holda olib kirilgan.

Men bu yerda birlgina polifonik romanning o'zbek adabiyotidagi birinchi namunasi "Lolazor" romani xususida to'xtaldim xolos. Siz o'zingiz mana shu fikrlardan kelib chiqib, mustaqil o'qish uchun berilgan va polifonik romanning qariyb barcha talablariga to'la javob bera oladigan Omon Muxtor asarlari misolida yanada chuqurroq bilib olasiz deb umid qilaman.

Modernizm milliy ramkalar-qoliplar qobig'ini yorib chiqishga harakat qiladi. Modern yozuvchining diqqat markazida tashqi narsalardan ko'ra ko'proq ichki narsalarga e'tibor berish istagi ustun turadi. Ya'ni san'atkorning vazifasi "obyektiv voqelikni ta'riflash, tavsiflash yoki aks ettirish emas, balki o'zining badiiy olamidan kelib chiqib, ana shu voqelik bilan munosabatga kirishish va shu tarzda sof subyektiv san'at yaratmoqdir". Modernchi san'atkorlar voqelikni qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qotib qolgan va o'zgarmas narsa deb bilmaydi, olamdag'i turfa xil ranglarni "ong kislotasida jo'nlik quyqalaridan" tozalab, sof holda tasvirlaydilar.

Hozirgi zamon modern asarida tasvirlanayotgan voqelik obyektiv voqelikka muvofiq kelishi talab qilinmaydi. Modern asarga nisbatan haqqoniylit talabini qo'llab bo'lmaydi. Asar haqiqatsimon bo'lishi ham, haqqoniy bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. O.Muxtarning "Aflatun", "Tepalikdagi xaroba" romanlarini eslang. Ularning qahramonlari boshidan kechirayotgan voqealar real hayotda yuz bermaydi. Mustaqillik tufayli o'zbek adabiyotida 70 yil hukmronlik qilgan sosialistik realizm metodining barham topishi roman janrining erkin nafas

olishi va yanada rivojlanishga turtki berdi. Bu yillarda yuz bergan eng muhim yangilik o'zbek adabiyotiga, xususan, roman janriga Yevropa adabiyotiga mos modern yo'nali shining emin-erkin kirib kelishi bilan Joys, Kafka, Kamyu, Nitshe, Markes va boshqa mohir san'atkorlarning ijodiy an'analari asosida yaratilgan romanlar ko'paydi. Eng muhimi, bunday romanlar o'zbek kitobxonining ham o'qish va uqish borasidagi malakasi hamda qobiliyatini tarbiyaladi. O.Muxtor, M.M.Do'st, X.Do'stmuhammad, T.Jo'rayev kabilarning romanlarini o'qiganingizda ulardagi an'anaviy syujet va kompozisiya o'mini, qahramonning surati va siyratini avtor tomonidan an'anaviy tasvirlash usulini ko'proq assosiativ, avanturistik syujet turlari, personajlarning xatti-harakatidan ko'ra ruhiy dramasi, ong oqimi egallaganiga guvoh bo'lamiz. Demak, roman syujeti, kompozisiyasi, bayon qilish usullari jihatidan mutlaqo yangilandi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

### Nazorat savollari

- 1.Romanning eng muhim xususiyatlarini aytинг.
- 2.Mustaqillik yillarida tarixiy mavzuda yaratilgan romanlar va ularning o'ziga xosligi nimada?
- 3.Hozirgi adabiy jarayonda yaratilgan zamonaviy mavzudagi romanlar haqida gapiring.
- 4.Ong oqimi asosida bayon qilingan qanday romanlarni bilasiz?
- 5.Mavzuda zamonaviylik va zamonasozlik deganda nimani tushunasiz?
- 6.Polifonik romanlar haqida gapiring.

## **MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK DRAMATURGIYASI**

### **Adabiyotlar**

- 1.Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. Т.: “Fan”, 1978-79.
- 2.Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. Т.: “Yangi asr avlodi”, 2004.
- 3.Abdusamatov H. Drama nazariyasi. Т.: G'.G'ulom nomli ASN, 2000.
- 4.Imomov B. va b. O'zbek dramaturgiyasi tarixi Т.: “O'qituvchi”, 1995.
- 5.Mustaqillik davri adabiyoti. Т.: G'.G'ulom nomli ASN, 2006.
- 6.Rizaev Sh. Jadid dramasi. Т.: “Sharq” NMAK, 1997.
- 7.Abdusamatov H. Qalb gavhari. “Sharq yulduzi” jur., № 5-6, 2006.
- 8.Y.Solijonov. Men sizdan saboq oldim (adiblarga maktublar). Т.: 2007.

### **Reja:**

- 1.Dramatik turning taraqqiyot yo'li.
- 2.XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi dramalarda inson va jamiyat muammolari.
- 3.Tragikomediya janrining o'ziga xos xususiyatlari.

Dramatik tur o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo'ldi. Ilk dramatik asar sifatida tan olingen Behbudiyning “Padarkush” asari 1911-yilda yozilgandi. Yuz yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan bu o'zbek dramaturgiyasi o'tgan asrning boshi va ikkinchi jahon urushi davrini hisobga olmaganda har doim ham boshqa adabiy turlardan sustroq rivojlangan. Bu susayish ayniqsa, o'tgan asrning “turg'unlik davri” deb atalgan 70-80- va mustaqillikning dastlabki yillarda aniq sezildi. Bunday sustkashlikning muayyan obyektiv va subyektiv sabablari ham bor. Avvalo, shuni achinish bilan ta'kidlash o'rinniki, adabiyotimizda faqat dramaturgiya bilan

shug‘ullanadigan maxsus ijodkorlar juda kam. Borlari ham tezda shuhrat topib, kashfiyat darajasidagi sahna asarlari yaratib, teatrlarning doimiy hamkoriga aylanib ketavermaydilar. Ikkinchidan, mabodo, shunday talantli drama yaratilib, sahnalashtirilsa ham unga tomoshabinni jalb etish muammosi tug‘iladi. Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti tufayli dramaturg o‘z asari bilan boyib ketayotgani yo‘q. Shunga qaramay, so‘nggi 20 yil ichida drama yaratilmay ham qolmadi, sahna bo‘sab ham qolmadi, ozmi-ko‘pmi tomoshabin ham teatrga kirib turdi. Eng muhimi, so‘nggi yillar dramaturgiyasi shakl va mazmun tomonidan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San’atkorlar jahon dramaturgiyasining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'anaga ko‘ra ko‘plab she’riy dramalar dunyoga keldi. E.Vohidovning “Istambul fojiasi”, A.Oripovning “Sohibqiron”, U.Qo‘chqorning “Rasululloh kotibi”, R.Bobojonning “Yusuf va Zulayho” kabi asarlari ana shu usulda bitilgan.

Dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko‘lamining kengayishida yaqqol ko‘rindi. Bu borada ayniqsa, tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko‘payganligini alohida ta’kidlash lozim. Tarixga munosabatning o‘zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o‘rganish tufayli xalqimiz o‘zligini anglash jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa, Amir Temur, Ahmad al-Farg‘oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli shakldagi sahna asarlari dunyoga keldi. Bular orasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Fotihu Muzaffar yoxud bir parivash qissasi” nomli tarixiy dramasi muhim o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinlikni, O.Yoqubov dramaturgiya borasida xiyla tajribali adib. 60-yillardayoq “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Chin muhabbat”, “Olma gullaganda”, “Bir koshona sirlari” deb atalgan dramalari bilan shuhrat qozongan edi. Mana shu tajriba va mahorat san’atkorning so‘nggi dramasida o‘zining yaxshi samarasini bergen.

Avvalo, shuni aytish kerakki, tarixiy mavzudagi ushbu drama sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlangan. Muallif ulug‘ Amir hayotiga oid tarixiy faktdan unumli foydalaniб, badiiy to‘qimaga asoslangan jiddiy tarbiyaviy sahna asari yarata olgan. Drama markazida sarlavhada urg‘u berilganidek, “Fotihi Muzaffar” – Sohibqiron Amir Temur bilan uning “eng so‘nggi va eng suyukli rafiqasi” Suluvko‘z ismli ayol turadi. Tarixdan ma’lumki, Amir Temur o‘z nikohiga olgan ayollar orasida eng go‘zali, eng mashhuri, eng oqilasi, eng vafodori, eng suyuklisi, maslahatgo‘yi, eng ishongani Chig‘atoy ulusiga mansub mo‘g‘ul xonlaridan biri Qozonxonning qizi Saroymulkxonim (uni saroyda Bibixonim deb atashgan) bo‘lgan. Bu ayol avval Amir Husaynning xotini bo‘lgan. Uni yengib, qatl etgan Sohibqiron malikalar orasidan Saroymulkxonimni tanlab oladi. Ayol xon avlodiga mansub bo‘lganligidan aqli-farosati, didining yuksakligi, irodaligi, saroy muhiti va idora usullarini yaxshi bilganligi, fikrlash doirasining kengligi, tadbirkorligi bilan boshqa malikalardan ajralib turgan. Bundan tashqari Saroymulkxonim husn-latofatda, nazokatda, erga nisbatan xotinlik munosabatida, xulq-atvorida benazir bo‘lib, tez orada Amir Temurning muhabbatini qozonadi. Saroymulkxonim ayni chog‘da mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotidan yaxshi xabardor bo‘lgan, Vatanini jon-dilidan sevgan,adolat uchun kurashgan xalqining farovon, yurtining obod bo‘lishini orzu qilgan. Bu fazilatlari Amir Temurning niyatlari bilan mos kelganligidan Sohibqiron malikaga boshqaruvning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga oid masalalarni hal etishda faol qatnashuviga izn bergen, uning dono maslahatlaridan foydalangan. Harbiy yurishlarida ham har doim uning yonida bo‘lgan. Amir Temur o‘z nikohiga olganida Saroymulk 29 yoshda edi. Ular bir-biriga cheksiz muhabbat bilan 55 yil yashadilar.

Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, Amir Temur suyukli rafiqasi Bibixonim sharafiga mahobatli obida qudirmoqchi bo‘ladi. Minora qurilishiga malikaning o‘zini mas‘ul qilib qo‘yadi. Tengi yo‘q me’mor ishni boshlaydi. Albatta, mas‘ul shaxs sifatida Saroymulkxonim qurilish maydoniga tez-tez kelib

turadi. Ustalar bilan qurilish loyihasi bo‘yicha maslahatlashadi. Aytishlaricha, me’mor malikaga oshig‘-u shaydo bo‘lib qoladi. Rivoyatni aytib beraman: (ro‘mol ustidan o‘pish, yuzdag‘i dog‘, ustanning taqdiri, qushlar patidan qanot qilib uchib ketish...)

Xullas, mana shu fakt O.Yoqubov uchun o‘zining Amir Temur haqidagi fikrlarini ifodalashga asos bo‘lib xizmat qiladi. San’atkor bu g‘oyaviy niyatini o‘z holicha bergenida ma’lum chekhanishlarga yo‘l qo‘yishga majbur bo‘lardi. Shuning uchun badiiy to‘qimaga murojaat qiladi va Amir Temurning hiyla “qariganda” topgan bu mahbubasini (*“Eng so‘nggi va eng suyukli”*) Suluvko‘z deb ataydi. Umuman, muallif bu dramada personajlar ismiga katta ma’no yuklaydi: Tarixiy Bibixonim asarga Bibi Sardor – qattiq qo‘l, jahldor, zolim, kanizaklar Saragul, Aqchagul, navkar Qalqonbek shular jumlasidandir.

Dramada muallif bir tomondan chin muhabbatni, go‘zallikni ulug‘laydi. Ikkinchini tomondan, bevafolik har qanday odamning yuzini shuvit, o‘zini sharmanda qiladi degan fikrni ifodalashni niyat qiladi. Suluvko‘z me’morning shartini noiloj ado etib, yuzida dog‘ qoladi (me’mor malikani sevib qoladi). Uning oyog‘i ostiga yiqilib, “jamolizingizni bir ko‘ray” deb iltimos qiladi. Suluvko‘z unga yuzini ko‘rsatadi. Me’mor endi ikkinchi shartini aytadi: “bitta bo‘sа оlаy!”. U biladiki, birinchi shartini bajargan ayol ikkinchisini ham bajaradi. Boz ustiga usta agar aytganimga unamasangiz “Qurilishni tugatmay, masjidi jome’ peshtoqidan o‘zimni tashlayman!” deb qo‘rqtadi. Qurilish bitmay qolsa, Suluvko‘z Amir Temur oldida nima degan odam bo‘ladi? Axir, suyukli eri, Sohibqiron bu qurilish taqdirini unga topshirgan-ku! Noiloj ko‘nadi – parda ustidan o‘ptiradi. Ammo me’morning muhabbatni alanga otash ekan, yonog‘ini kuydirdi! Dog‘ qoldi. Bu sharmandalik o‘lim bilan tugadi).

Amir Temur haqida yana T.Akbarxo‘jaevning “Zamon o‘g‘li”, Q.Abdug‘aniyevning “Amir Temur va Yildirim Boyazid” singari dramalari ham yaratildi.

Tarixiy mavzuda yana Ahmad Farg‘oniya bag‘ishlangan bir necha asar paydo bo‘ladi. Bular: H.Rasulning “Piri koinot”,

I.Rahimning "Allomaning yoshligi", J.Jabborovning "Al-Farg'oniy", Y.Sulaymonning "Osmonga sig'magan muhabbat", Nurulloxon hojining "Bashar alloma" dramalaridir. Yana bir alloma, Imom al-Buxoriy haqida J.Rasultoyevning "Muqaddas ziyo", S.Ehsonning "Muhaddis", M.Ergashevning "Saodat yo'li", U.Qo'chqorning "Rasululloh kotibi", R.Ma'diyevning "Bir kechalik tush", T.Jumatovning "Imomal - Buxoriy", M.Hamidovaning "Buxoriy muhabbat" kabi sahna asarlari dunyoga keldi. Bulardan tashqari Y.Muqimovning "Mangu mash'al" (Avesto haqida), Y.Muqimov va H.Rasulovning "Muqaddas Taxtizar" (Spitamen haqida), R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho", U.Azimning "Alpomishning qaytishi", E.Samandarning "Jaloliddin Manguberdi", "Ajodolar qilichi", Z.Muhiddinov va M.Hamidovalarning "Zahiriddin Muhammad Bobur", E.Xushvaqtovning "Mashrab", N.Qobilning "Na malakman, na farishta" (Mashrab haqida), A.Suyunning "Sarbadorlar" dramalari ham tarixiy mavzudadir. Lekin ularning barchasini ham etuk badiiy darajada va kutilgan niyatga erisha olgan deb bo'lmaydi.

Bu davrda zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi. Bu borada Erkin Xushvaqtov, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz, Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. Ulardan ba'zilarining asarlari teatrلarning doimiy repertuariga aylandi va tomoshabinlarning tashnaligini qondirib, teatrlarga qiziqishini orttirdi. Zero, teatrning xalqni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashning eng samarali va jonli vositasi ekanligi azaldan ma'lum. Sahna real hayotning badiiy ko'zgusidir. Shu ma'noda yuqorida nomlari tilga olingan dramaturglardan E.Xushvaqtov ayniqsa, uloqda sovrinni olib ketdi. U ko'proq xalq og'zaki ijodi materiallariga, folklor-etnografik mavzularga, milliy urf-odatlarimizda o'lib borayotgan udumlarga murojaat qildi.

E.Xushvaqtovning O'zbekiston Milliy teatrida birin-ketin sahnalashtirilgan "Chimildiq", "Qalliq o'yin", "Qirmizi olma", "Andishali kelinchak" kabi pesalariga iloji boricha o'zbek

xalqining azaldan yashab kelgan udumlari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini ochishga urinadi. Ko'p o'rnlarda bunga erishadi ham. Ammo dramaturg har doim ham o'z niyatini ifodalash uchun tanlagan usul va shakllarda yutuqqa erishavermaydi. Masalan, "Chimildiq", "Qalliq o'yin" dramalari avvalo, yengil-yelpi voqealar asosiga qurilgani, personajlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ta sun'iyligi, urf-odatlarimizning qadrini ko'tarish o'rniga o'ziga nafrat uyg'otadi. Bu dramalarda echim ham tamoshabinni qoniqtirmaydi.

### **Nazorat savollari**

- 1.Dramaturgiyaning o'ziga xosligi nimada?
- 2.Dramatik tur janrlarini aytинг.
- 3.Komediya janri va hozirgi davr.
- 4.Tragediya va uning taraqqiyoti.
- 5.Hozirgi davrdagi tragikomediyalar va ularning dolzarbliги.

## **Talabalarning mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun quyidagi savollar berilishi mumkin:**

**1-savol:** Adabiyotda qanday adabiy turlar bor? Biz ulardan qaysisi birlarini o'rgandik?

Javoblar: 1-talaba: Qadimgi yunon adabiyotshunos Aristotel 3 xil adabiy tur borligini aytgan. Bular: lirik, epik, dramatik turlardir. Lekin davrlar o'tgan sari adabiy turlar va janrlarning yangilanishi yuz beryapti. Masalan, Aristotel epik tur deganda ham she'riy, ham nasriy usulda yaratilgan asarlarni nazarda tutgan. Biroq keyingi davrlarda bunday asarlarga qarash o'zgardi va ular "liro-epik" tur deb atala boshlandi. Biz darsda lirik va liro-epik turni o'rgandik. Endi epik turni o'rganishga kirishdik.

2-talaba: Darsimizning "Kirish" mavzusida bizga yana bir adabiy tur mavjudligi to'g'risida ma'lumot bergansizlar. Bu adabiyotshunos B.Sarimsoqov tomonidan taklif etilgan paremiya nomli adabiy turdir. Olim bu turning o'ziga xosligini ularda hissiy munosabatdan ko'ra aqliy nisbat ustunligining ajralib turishi bilan izohlaydi. Bu turga maqol, matal, topishmoq, aforizm kabi janrlarni taklif qiladi.

**2-savol:** O'zbek adabiyotida "qissa", "povest" degan atamalar bilan yaratilgan asarlarni bilasiz. Ular orasida farq bormi, yo'qmi?

Javoblar: 1-talaba: Menimcha, ular orasida farq yo'q. Sho'ro davrida yaratilgan o'rta epik asarlarning barchasi "povest" deb atalgan.

2-talaba: Menimcha, ular orasida farq bo'lishi kerak. Lekin qanday farq borligini aytolmayman. Axir, o'sha Sho'ro davrida yaratilgan o'rta-epik asarlarning ayrimlari qissa deb atalgan-ku! Masalan, O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi.

**3-savol:** O'zbek adabiyoti tarixida yaratilgan 1-qissani bilasizmi?

Javob: Biz buni o'zbek mumtoz adabiyoti fanidan bilamiz. Qissa nomi bilan atalgan birinchi asar Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asaridir.

**4-savol:** Hozirgi adabiy jarayonda eng sermahsul qissanavis adiblardan kimlarni bilasiz?

Javoblar: 1-talaba: Men Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul kabilarni hozirgi adabiy jarayonning eng sermahsul qissanavislari deb bilaman.

2-talaba: Men ular qatoriga Tog'ay Murod, Abduqayum Yo'ldoshev, Qo'chqor Norqobilov, Nabi Jaloliddinlarni ham qo'shgan bo'lardim.

**5-savol:** Hozirgi adabiy jarayonda roman janrida sermahsul ijod qilayotgan yozuvchilardan kimlarni bilasiz?

Javoblar: 1-talaba: Hozirgi adabiy jarayonda eng sermahsul ijod qilayotgan yozuvchilardan bir Ulug'bek Hamdam deb bilaman. Ijodini mustaqillik yillarda boshlagan bu adib 5 ta roman yaratdi.

2-talaba: Men bu yozuvchi qatoriga 10 ta Omon Muxtor (6ta), Xurshid Do'stmuhammad (2ta), Isajon Sulton (4ta) kabilarni ham qo'shgan bo'lardim.

**6-savol:** Hozirgi o'zbek romanlarining asosiy yo'nalishlarini ayтиб bering?

Talaba: Hozirgi adabiy jarayonda romanlar to'rt yo'nalishda yaratilmoqda:

1. Falsafiy-realistik.
2. Ramziy-majoziy yo'nalish.
3. Sarguzasht-fantastik.
4. Dedektiv yo'nalishlar.

**7-savol:** Istiqlol davri adabiyotining birinchi romani qaysi va uni kim yaratgan?

Talaba: O'zbekiston mustaqilligiga bag'ishlangan ilk roman "Otamdan qolgan dalalar" bo'lib, u O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod tomonidan yozilgan.

**8-savol:** Hozirgi adabiy jarayonda dunyoga kelgan dastlabki roman-epopeya qanday ataladi va uni kim yozgan?

Javob: Hozirgi adabiy jarayonda yaratilgan dastlabki roman-epopeya 4 kitobdan iborat "Ulug' saltanat" asari bo'lib, uni O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali yozgan.

## FANNI O'ZLASHTIRISH UCHUN O'QILADIGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008.
2. I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka etibor. T.: 2010.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2016.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Adabiyot va san'at – madaniyatni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Ijodkorlar bilan uchrashuvda so'zlagan nutqi. "O'zAS" gaz., 4.08.2017. № 32 (4431).
6. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. Т.: "Fan", 1978-1979.
7. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. T.: "Fan", 1991-1993.
8. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T.: "Yangi asr avlod", 2004.
9. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: "O'zbekiston", 2002.
10. Istiqlol, adabiyot, tanqid. T.: "Turon zamin ziyo", 2015.
11. N.Karimov, S.Mamajonov va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
12. B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. T., G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2016.
13. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T., 2006.
14. Ozod Vatan saodati. She'riyat. Nasr. Dramaturgiya. Publisistika. Adabiy tanqid. 5 jildlik T.: "Adib" nashriyoti, 2013.
15. N.Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012.
16. Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2009.
17. Y.Solijonov. Ko'zgudagi hayot. T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2013.
18. Y.Solijonov. Mo'jizalar sehri. T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2013.
19. Y.Solijonov. So'z sehri va mehri. T.: "Sharq" NMAK. 2018.
20. Y.Solijonov. Lirika latofati, nasrning nazokati. T.: "Sharq" NMAK, 2018.
21. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2005.
22. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T.: "Fan", 2007.

## MUNDARIJA

MAVZU: KIRISH. FANNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	3
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK LIRIKASI.....	11
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK LIRIKASINING TARAQQIYOT TAMOYILLARI .....	18
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK SHE'RİYATIDA MAVZU VA G'OYA BIRLIGI.....	25
MAVZU: LIRIK SHE'RDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI.....	32
MAVZU: HOZIRGI OSTONLARDA TARIX VA ZAMON MASALASI .....	39
MAVZU: HOZIRGI EPIK TUR VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	47
MAVZU: KICHIK EPIK JANRLAR .....	55
MAVZU: HIKOYA JANRI .....	62
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTIDA QISSA JANRI.....	69
MAVZU: ROMAN JANRIDAGI YANGILIKLAR VA IZLANISHLAR .....	76
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK ROMANLARIDA MAVZU, MUAMMO, QAHRAMON VA BADIYLIK .....	84
MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK DRAMATURGIASI .....	92
Fanni o'zlashtirish uchun o'qiladigan adabiyotlar .....	100

Yo'ldosh Solijonov

# HOZIRGI ADABIY JARAYON

*O'quv qo'llanma*

*Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020*

*Muharrir: F. Kolsaidov  
Texnik muharrir: Q. Mamiraliyev*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 7,5.  
Adadi 100 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*

**ISBN 978-9943-6793-5-1**

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6793-5-1.

9 789943 679351